

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**UDK**

Magistratura bo'limi

«Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi»  
kafedrası

**ALIYOROVA SHAXNOZA HASANOVNANING**

**“Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy –axloqiy tarbiyalashda  
xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish” mavzusidagi  
magistrlik dissertatsiyasi**

**DAKda himoya qilishga ruxsat  
berilgan  
Magistratura bo'limi boshlig'i  
\_\_\_\_\_p.f.d., prof.N.A.Muslimov  
Kafedra mudiri \_\_\_\_\_  
p.f.d.,prof.R.A.Mavlonova  
\_\_\_\_\_2010 yil.**

**Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_  
p.f.n.,dotsent D.A.Abdurahimova**

\_\_\_\_\_2010

**Toshkent 2010  
MUNDARIJA**

## **KIRISH.**

**I BOB. O`zbek xalq pedagogikasida ma`naviy- axloqiy tarbiya pedagogik muammo sifatida**

**1.1. O`zbek xalq pedagogikasida milliy qadriyatlarning ifodalanishi.(Xalq dostonlari misolida)**

**1.2. Kichik yoshdagi maktab o`quvchilarini ma`naviy – axloqiy tarbiyalashda xalq qo`shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati**

**I Bob bo`yicha xulosa**

**II BOB. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ma`naviy – axloqiy tarbiya berishda xalq pedagogikasi manbaalaridan foydalanishning shakl va usullari**

**2.1. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ma`naviy – axloqiy tarbiya berishda xalq ertaklaridan foydalanish**

**2.2. Dars va darsdan tashqari vaqtlarda bolalar fikrlash jarayonini shakllantirishda xalq topishmoqlaridan foydalanish**

**2 Bob bo`yicha xulosa**

**III Bob. Bolalarni ma`naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanish texnologiyasi va uning samaradorlik darajasi**

**3.1. Kichik yoshdagi maktab o`quvchilarini manaviy axloqiy kamol topshirishda oila, mahalla va maktab hamkorligi**

**3.2. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanish yuzasidan oilb borilgan tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari**

**Umumiy xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

**Ilovalar**

Biz o`z xuquqlarini taniydigan, o`z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo`layotgan voqea – xodisalarga mustaqil munosabat bilan

yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

ISLOM KARIMOV.

**Mavzuning dolzarbligi** – Insoniyat tarixi buyuk XXI asr sari qadam qo'ydi. Kurrai zaminimizning barcha o'lkalarda siyosatdanlar, iqtisodchilar, ijtimoiy soha namoyondalari, nufuzli xalqaro tashkilotlar XX asrga yakuniy xulosalar chiqarmoqdalar. Ular tomonidan bu shonli 1000 yillikda bosib o'tilgan tarixiy yil atroflicha taxlil etilib, unda nimalarga erishilgani, qaysi voqea, xodisalar asrimizning eng ulug', buyuk ishlari, qaysilari tufayli insoniyat azob uqubat chekdi, qaysi sarqitlarni o'tgan asrga qoldirib, qaysilarini XXI asrga olib o'tish mumkin, XX asrdan qolgan dolzarb muammolarni qay yo'sinda hal qilish mumkinligini sarhisob qilinmoqda.

O'zbekiston hayotida XX asrda juda katta voqea ro'y berganini alohida ta'kidlash zarur. 1991-yilning 1-sentiyabrida vatanimiz isiqololga erishdi, xalqimizning asriy orzusi ro'yobga chiqdi. O'z taqdirimizni o'zimiz belgilash, boy ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, milliy boyliklarimizga egalik qilish, tinch iqtisodiy, ijtimoiy rivojlansh yliga o'tish imkoni tug'ildi. Erishilgan yutuqlar haqida johonning eng nufuzli iqtisodchilari, siyosatchilari ko'pdan-ko'p ijobiy fikrlar aytmoqdalar, yutuqlarimizni bir necha o'n yilliklarga hatto asrlarga qiyoslashmoqdalar. Muvoffaqiyatlarimiz do'stlarimizni shodlantirib, g'araz niyatli kishilarni tashvishlantirib qo'ydi. Shu boisdan ham ular xalqimizni turli g'alamisliklar, ig'vo, bo'xtonlar va qurolli dag'dag'a bilan qo'rqitmoqchi bo'ldilar. Lekin o'zbek xalqi Prezident I. Karimov atrofiga jipislashgan holda o'z milliy isiqololining musahkamlash, bu go'zal diyorumizni yovuz niyatli g'animlardan sabot va matonat bilan himoya qilish, mamlakatimizni kelajagi buyuk davlatga aylantirishdan iborat ezgu niyatni diliga joylab, nurli kelajak sari dadil va sobitqadamlik bilan olg'a intilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo`lib o`tgan qo`shma majlisidagi “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimiz” hamda Vazirlar mahkamasining 2010-yil 29-yanvar kuni bo`lib o`tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” mavzularidagi ma`ruzalari mazmun-mohiyati va undagi xulosalarni o`rganish yuzasidan Vazirlar mahkamasining 2010 yil 23 fevraldagi 101-F – sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan tashkiliy tadbirlarni amaliyotga joriy etish jamiyatimizdagi kun tartibidagi bosh masalalardan biridir<sup>1</sup>.

Prezidentimiz o`z ma`ruzasida “ . . . mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz” degan fikr mulohazalaridan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang`ich ta`limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, bo`ljak boshlang`ich sinf o`qituvchilari ta`lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishi asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida xis etilishi zaruriyati mavjuddir.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Barkamol avlod yili” davlat dasturi to`g`risidagi Qarorida mamlakatimizda sog`lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o`z ijodiy va intellektual salohiyatini ro`yobga chiqarish bo`yicha qo`yilgan vazifalarda “.... ta`lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogic texnologiyalarni, electron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va Oliy o`quv yurtlarida o`qitish sifatini tubdan yaxshilash .... samarali tizimini yanada rivojlantirish” ko`zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustivor maqsadimiz” O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo`lib o`tgan qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. Adolat gazetasi Toshkent 2010 yil 29 yanvar. N 4 1-3-betlar

<sup>2</sup> “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. O`zbekiston Respublikasi prezidentining Qarori. Adolat gazetasi. Toshkent 2010 yil .29 yanvar N 4. 1-2 betlar.

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar davlatimizning oldiga ta'lim tizimini rivijlantirish bilan bog'liq muhim masalani qo'ydi. Ijtimoiy hayot tubdan o'zgargan bir sharoitda ta'limning yangi texnologiyalari va usullarini qo'llash asosida bu tizimni jadal rivojlantirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim tizimini tubdan isloh qilish uni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab bergan. Shundan kelib chiqib xujjatda shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub'ektiv va ob'ektiv sifatida qaraladi, demak, Respublikada amalga oshiralayotgan o'zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi – inson, uning barkamol rivojlanishi hisoblanadi. Savol tug'iladi: Inson qachon barkamol, komil inson bo'ladi? Qachonki, u jismonan sog'lom, vijdonan pok, ma'naviyati yuksak bo'lsa. Bunda o'sib kelayotgan yosh avlodga beriladigan ta'lim-tarbiyaning o'rnini beqiyosdir. Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu gaplarini keltirib o'tishni o'rinli deb topdim: "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir... Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yoritiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq...". /I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari "Ma'naviyat" 2008. 60-61-bet.

Bizning asosiy maqsadimiz ta'lim jarayonini shaxsning hayotiy qiziqishlarini qondirishga, umumiy madaniyatini shakllantirishga, uning jamiyat hayotida moslashuvi, ta'lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlay olishi hamda o'zlashtira olishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun shaxsni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashga shakl va metodlarini ishlab chiqish, ma'rifiy ishlarni rivojlantirish, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, xususan boshlang'ich ta'lim sifati, ularning madaniy va ma'naviy-axloqiy darajalariga talabni oshirish o'quv-tarbiya jarayonini eng yangi o'quv-metodik to'plamlar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan to'la ta'minlash zarur. Bizning magistrlik

dissertatsiya ishimiz ham aynan shu eng ilg`or pedagogik texnologiyalarini ta`lim tizimida, xususan, boshlang`ich ta`lim odobnoma darslarida tadbiq etishning metod, uslub va shakllarini nazariy tomondan asoslab berish hamda samarali natijalarga erishishdan iborat.

Bular haqida yurtboshimiz I. A. Karimov 1999 – yil 14-aprel kuni birinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 14-sessiyasida “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” mavzusida qilgan ma`ruzasida quyidagilarni alohida ta`kidlagan edi.

“Biz XXI asr bo`sag`asida turibmiz, biz yangi buyuk ishlar oldida turibmiz. Siz bilan bizning vazifamiz davr oldimizga qo`yayotgan talablarga munosib javob qaytarishdir. Isiqbolimizning aniq va ravshan tasavvur etib xalqimizga tinch va farovon turmushni ta`minlashdir, jahon maydonida o`zimizga munosib o`rin egalashdir”<sup>3</sup>.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohatlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borishi natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo`g`ini hisoblanadigan xalq ta`limida ham tub islohatlar ro`y bermoqda. U yangilanmoqda, yoshlar ta`lim-tarbiyasining takomilashtirish, ularning mazmuni, uzluksizligini ta`minlab beradigan yangi xujjatlar pedagogika texnologiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib bormoqda. O`tmish davriga xos iqtisodiy murakkabliklarga qaramay, ta`limning moddiy negizi musahkamlanib bormoqda.

Respublika Prezidenti va xukumatining ta`limni rivojlantirish, yosh avlodga jahon andozalariga mos bilim, iqtidor va ko`nikmalar berish, ularni ona-Vatanga, milliy isiqqlol g`oyalariga sadoqat ruxida tarbiyalash borasida ko`rsatilgan doimiy g`amxo`rligi tufayli ta`lim-tarbiya ishlarining bugungi qiyofasi tubdan o`zgardi.

Shu o`rinda e`tirof etish kerakki, mamlakat iqtisodiyotida, shu jumladan, ta`lim tizimida amalga oshiriladigan islohatlar o`z-o`zidan bo`lmayapti. Ular katta kuch, mablag`, mehnat evaziga amalga oshirilmoqda.

---

<sup>3</sup> I. A. Karimov 1999 – yil 14-aprel kuni birinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 14-sessiyasida “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda”

Ayrimlar: "Mana respublikada, "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi, "endi yoshlar o'zini bilimga uradi" deb engil-elpi xulosa chiqardilar. Bu noto'g'ri albatta.

Zotan mazkur risolaning bosh maqsadi ham ta'lim kishilarning eng ibratli, isiqbolida yanada takomililashtirish ko'zda tutilgan amaliyot turlarini, erishilgan yutuqlarini mustahkamlash, voz kechishimiz bo'lgan illatlar, kamchilik va nuqsonlarni ko'rsatish ta'limimizni porloq istiqbolariga olib chiqadigan yo'lini to'g'ri belgilab berish, shu asosda XXI asr maktabini bunyod qilishga hizmat qilishdan iborat.

Mamlakatimiz isiqbolining eng dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimiz yaratgan og'zaki adabiyotlarni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish, zaminini musahkamlash, uni davr talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga katta ahamiyat berildi.

Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida ish shakli keskin o'zgaradi. Respublikada bolalar muassasalari "oila bog'chasi", "bog'cha-maktab" majmualari barpo etildi.

Ta'imdagi isloxatlar uzluksiz ta'limning o'rta maxsus va oliy ta'lim bo'g'inlarida ham olib borildi, ko'pgina pedogogika institutlari unversitetlarga, pedagogika bilan yurtlari kollejlarga aylantirildi.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma'lumki har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va asosan ta'lim-tarbiya munossabatlarida shakllantiriladi. Ta'lim vositalari o'quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o'ziga xosliklarini to'liq hisobga olgandigana yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Respublika Prezidentining tashabbusi bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy sog'lom, ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash, iste'dodini aniqlash va rag'batlantirish maqsadida "Mahalla", "Kamolot", "Sog'lom avlod

uchun”, “Nuroniyy”, “Ulug`bek”, “Umid” jamg`armalari tashkil etildi va ular ta`lim muassasalari bilan hamkorlikda samarali faoliyat ko`rsatmoqdalar.

Respublika iqtisodiyoti uchun har bir so`m o`ta zarur bo`lib turgan sharoitda yosh avlodning kelajagiga astoydil ishongan, uning insoniy kamolatini ta`minlashga intiluvchi, farzandlarimizga o`zgalar havas qiladigan darajadagi ozod va obod Vatan qoldirishni maqsad va shior qilib olgan davlat va uning rahbarigina shunday dadil ish yuritish mumkin.

Ta`lim-tarbiya berish jarayonida xalq og`zaki ijodidan foydalanish ham juda samarali o`rin egallaydi.

Xalq poetik ijodini o`rganish, ayniqsa ijtimoiy fanlar yuzasidan olib boriladigan ilmiy – tadqiqotlar uchun bebaho qiymatga ega. Chunki “Xalq og`zaki ijodini bilmaguncha mehnatkash xalqning xaqiqiy tarixini bilish mumkin emas”.

Shunday ekan, xalq og`zaki ijodini o`rganish boshqa ijtimoiy fanlar kabi pedagogika tarixini o`rganish uchun ham g`oyat muhim ahamiyatga ega.

Chunki “Xalq pedagogikasi asta-sekin xalq ommasi ichida tarkib topa boradi va xalq ijodining topishmoq, matal, maqol, ertak, doston va qo`shiq kabi yodgorliklarida aks etiriladi”.

Xalq ommasining turmush faoliyat jarayonida to`plangan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlar yig`indisi xalq pedagogikasining mazmuni ifodalaydi. Ya`ni xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va xalq donishmandlarining xamon yoshlarini kutilgan maqsadga muvofiq kishilar qilib etishtiradigan tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo`lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta`lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish bobida qo`llanib kelingan usul vosita, ko`nikma va malakalar birligini ifodalovchi tajribalar asosida to`plangan bilim va ma`lumotlar yig`indisidir.

Boshqacha qilib aytganda, xalq pedagogikasi xalq ommasining og`zaki tarzda yaratgan avloddan avlodga o`tib kelayotgan tarbiya haqidagi ma`lumotlar – pedagogik ijodlari yig`indisidir. Biroq bu pedagogik ijodlar yig`indisi pedagogika Fani uchun ilmiy pedagogika bo`la olmaydi. U pedagogika fanining predmeti, muhim tekshirish ob`ektidir.

Ma`naviyatni o`sb kelayotgan yosh avlod ongida shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz vositasida har tomonlama tarbiyalab borish O`zbekistonning har bir fuqarosini mas`uliyatli burchi va vazifasi hisoblanadi.

“Har qaysi xalq yoki millatning ma`naviyatini uning tarixi, o`ziga xos urf-odat va an`analari, xayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo`lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma`naviy meros, madaniy boyliklar, ko`xna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo`lib xizmat qiladi”, -deb ta`kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov.<sup>1</sup>

Tarbiya oldindan ma`lum maqsadga yo`naltirilgan bo`lib, bolaning ulg`ayishida muqim ahamiyatga egadir. Jamiyatdagi tajrkbani o`zlashtirishda hal qiluvchi holat bolaning o`ziga, uning faolligi, tashki muhit bilan o`zaro munosabat doirasiga bog`liq. SHuning uchun o`yin - bu ijodiy faollikni shshrovizatsion ya`ni tayyorgarliksiz holatida erkin namoyon qilishdir.

**Mavzuning ishlanganlik darajasi – biz tomonimizdan tadqiq etilayotgan** mavzu ko`gina fol`klorshunos, pedagog, psixolog, sotsiolog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini, izlanishlarni debochasi hisoblanadi.

Fol`klorning “Qo`shiq” janri fol`klorshunos M.Afzalov, B. Karimov, M.Alaviya, X.Zaripov, Z.Mirtursunov, G`.Jahongirov, B.Sarimsoqov va boshqa fol`klorshunos olimlarimiz tomonidan keng talqin qilingan, monogrofiyalar, nomzodlik va doktorlik dissertasiyalar tadqiq etilgan.

Pedagog olimlarimizdan M.Inomova, O.Musurmonova, A.Ortiqov, M.Xaydarov, D.Abdurahimova, A.Teshaboev, X.Sanoqulov singari olimlarimiz tomonidan, pedagogik nuqtai nazar tomonidan yoritilgan.

Lekin yuqorida zikr etilgan folklorshunos va pedagog olimlarimizning tadqiqotlarida xalq pedagogikasining ayrim qirralari yoritilganligini ko`ramiz.

**Shunga asosan biz magistrlik ilmiy- tadqiqot ishimizni “Boshlang`ich sinf o`quvchilarni ma`naviy–axloqiy tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanish” deb nomladik.**

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch:” 29 b.Toshkent. “Ma`naviyat”. 2008.

**Magistrlik ishning maqsadi-** Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ma`naviy – axloqiy tarbiya berishda xalq pedagogikasining imkoniyatlarini aniqlash, undan foydalanishning shakl va usularini asoslab berish hamda boshlang`ich sinf o`quvchilariga tegishli metodik tasfiyalar tayorlash.

### **Magistrlik ishning vazifasi**

1. Muammoning nazariya va amaliyotdagi holatini o`rganish asosida boshlang`ich sinf o`quvchilariga ma`naviy – axloqiy tarbiya berishda xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanishning dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash.

2. Boshlang`ich sinflarda bolalarning ma`naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanishga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, shakllari va metodlarini ishlab chiqish va ularni tajriba- sinovdan o`tkazish.

3. “Boshlang`ich sinf o`quvchilarni ma`naviy –axloqiy tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanish texnologiyasini yaratish va xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanishga yo`naltirilgan ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Magistrlik ishning ob`ekti** - xalq pedagogikasi materiallaridan foydalanib, boshlang`ich sinf o`quvchilariga ma`naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonini tashkil etish.

**Magistrlik ishning piredmeti** ta`lim–tarbiya jarayonida xalq pedagogikasi materiallaridan foydalanib, kichik yoshdagi maktab o`quvchilariga ma`naviy – axloqiy tarbiya berish.

### **Magistrlik ishining ilmiy farazi.** Agar:

- Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy – axloqiy tarbiyasini shakllantirishda xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanishning mazmuni, shakli, usul va metodlari aniqlansa:

- Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ma`naviy – axloqiy tarbiyasini xalq og`zaki ijodi janrlari vositasida shakllantirishga yo`naltirilgan muayyan texnologiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilsa, uning samaradorligini birmuncha erishishga erishish mumkin.

**Magistrlik ishining ilmiy tadqiqot metodlari – Boshlang`ich sinf o`quvchilarini** ma`naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishga oid nazariy- metodik adabiyotlarni tahlil qilish, suxbat, anketa, tabiiy eksperimental kuzatish, aniqlovchi va shakllantiruvchi tajriabalar.

**Magistrlik ishining yangiligi:**

1. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish jarayonida xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash dolzarb pedagogik muammo eaknligi ilmiy jihatdan asoslandi.

2. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish jarayonida xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanishga yo`naltirilgan faoliyat mazmuni, shakli, uslubi ishlab chiqildi.

3. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish jarayonida xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanishga texnologiyasi yaratildi.

4. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish jarayonida xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanishgaga yo`naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

**Magistrlik ishining ilmimy va amaliy ahamiyati:**

1. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy – axloqiy tarbiyasini xalq og`zaki ijodi janrlari asosida tashkil etishning pedagogik shart- sharoitlari mazmuni, shakoi, uslublari;

2. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy – axloqiy tarbiyasini xalq og`zaki ijodi janrlari asosida tashkil etish texnologiyasi;

3. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy – axloqiy tarbiyasini xalq og`zaki ijodi janrlari asosida tashkil etishga yo`naltirilgan nazariy yondashuvlar hamda ilmiy – metodik tavsiyalarga ega bo`ldi.

**Magistrlik ishining metodologik asosi:** O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta`lim-tarbiya sohasiga, milliy g`oya va milliy mafkuraga oid asarlari, shuningdek, O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash

Milliy dasturi” va mavzuga oid ilmiy – pedagogik, metodik, tarixiy, falsafiy manbalar.

**Magistrlik ishning tuzishlisi.** Magistrlik ilmiy- tadqiqot ishi;

Kirish, 3 bob 6 fasl, umumiy xulosa va foydalangan adabiyotlardan iborat.

## **I BOB. O`zbek xalq pedagogikasida ma`naviy-axloqiy tarbiya pedagogik muammo sifatida.**

**1.1. O`zbek xalq pedagogikasida milliy qadriyatlarning ifodalanishi.(Xalq dostonlari misolida).**

Insoniyat taraqqiyotida avlodan-avlodga ko`chib, tarix sinovlaridan o`tib kelayotgan umuminsoniy va madaniy-ma`naviy qadriyatlar, milliy an`analar, axloqiy omillar va urf-odatlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki ular xalqning jamoa ijodkorligining mahsuli bo`lib, insonlarning talab-ehtiyojlari zahirida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, dunyoqarashi, tafakkuri, orzu-armonlari, e`tiqodi va axloq-odob qoidalarini o`zida mujassam etgan, jamiyatning ma`naviy-madaniy rivojiga katta hissa qo`shuvchi moddiy va ma`naviy boyligi bo`lgan.

Shu boisdan Prezidentimiz I.A.Karimov Milliy mustaqillikka erishish tub o`zgarish sifatida oilada va ta`lim muassasalarida kichik yoshdagi bolalarni ma`naviy- axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan, jumladan, xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanish borasida ham jiddiy o`zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Shu boisdan ham Prezidentimiz I.A.Karimov “..... mamlaktni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz” degan fikr mulohazalaridan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang`ich ta`limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi, Ayniqsa, boshlang`ich sinf o`qituvchilari ta`lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishi asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjuddir.”<sup>4</sup> Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu tarixiy voqea kichik yoshdagi maktab o`quvchilariga xalq og`zaki ijodi janrlari vositasida ma`naviy- axloqiy berishda tarbiyaning mazmunida ayniqsa, bolalar ongiga ma`naviy- axloqiy tushunchalarini singdirishda va bolalarga ta`sir etish vositalarida ko`zga tashlanmoqda.

Xalqning bu boyligi, birinchi navbatda asrlar davomida avlodan-avlodga o`tib kelayotgan o`zbek xalq og`zaki ijodi asarlari – qo`shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql va dostonlarda o`z aksini topgan. Chunki ularda xalqning pedagogik g`oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma`naviy-axloqiy ideallari o`ziga xos yo`sinda aniq, ibratli va qiziqarli tasvirlangan, hikoya qilingan

---

<sup>4</sup> I.A.Karimov “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimiz”. Adolat gazetasi.T., 2010 y, 29 yanvar.№4 (761), 1-2 betlar.

voqea-hodisalarda o`rnak bo`ladigan o`gitlar berilgan, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an`analari, urf-odatlar va falsafasi bayon etilgan. Xalq og`zaki ijodi asarlari badiiy jihatdan yuksak takomilga ega ekanligi, tinglovchilarning, ayniqsa, yosh bolalarning oson tushunishiga, idrok etishiga qulayligi tufayli xalq pedagogikasining eng muhim, ko`p qamrovli va tarbiyaviy ta`siri g`oyat kuchli tarmog`i hisoblanadi. Chunonchi, maqollar xalqning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida vujudga kelgan fikrlarni lo`nda, aniq va obrazli ifodalovchi bir vosita bo`lsa, naqlar hayotiy tajribalari, nasihatombay fikrlari, donishmandligi, axloq qoidalariva falsafasini sodda syujet, ibratli mazmunda ifodalovchi hikoyalardir. Ertaklar esa falsafa, axloq, din, badiiy to`qima va hayolotga asoslangan xalq donishmandligining mahsulidir. Shu bois ertakdagi to`qima voqea-hodisalar silsilasida xalqning ma`naviy qadriyatlari, urf-odatlar, axloq-odobning o`ziga xos milliy xususiyatlari namoyon bo`ladi. Rivoyatlar ham asosan ijtimoiy-maishiy voqealarni, tarixiy shaxs va hodisalarni uydirmalar vositasida bayon etuvchi kichik xajmli hikoyalar bo`lib, ularda lutf va nazokat, aql va idrok, ishq va vafo, adolat va sahovat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik madh etiladi, zulm va zo`rlik, xaqizlik va bosqinchilik qoralanadi.

Ayniqsa, xalq og`zaki ijodining yirik namunasi hisoblangan dostonlarda umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo`lib, ularda xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlar, marosimlar, an`analari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo`lidagi mardonavor kurashlari, vatanparvarligi, sevgi-muhabbatga sadoqati, kelajakka yaqqol ifodalangan. Buni “Alpomish”, “Yakka Ahmad”, “Rustamxon”, “Murodxon”, “Oysuluv”, “Shirin bilan Shakar”, “Kuntug`mish” kabi dostonlarida ko`rish mumkin. Chunki bu dostonlar, avvalo, xalq pedagogikasining tarkibiy qismini tashkil etib, ularda oila va bola tarbiyasi, kelin-kuyov mas`uliyatli va burchi, ota-ona va o`zgalarga hurmat tuyg`usi, do`stlik va hamkorlik, xayru sahovat va mehmonnavozlik, sevgi va sadoqat, jasurlik va qahramonlik fazilatlar kabi ma`naviy-axloqiy qadriyatlar ulug`langan. Misol uchun bu dostonlarda qanday milliy qadriyatlar o`z ifodasini topganini ko`zdan kechiraylik.

“**RUSTAMXON**” dostoni Oqtosh viloyatining bahodiri Rustamxonga bag`ishlangan bo`lib, uning kundoshlar tuhmatiga yo`liqqan onasi Huroyimni jallodlardan qutqarish yo`lidagi jasurligi va onasi bilan o`z yurtidan boshini olib ketgan davridagi g`aroyib va hayotiy sarguzashtlari tasviridan iborat. Dostondagi tarbiya vositalaridan biri shuki, unda xalqimizning ayolga samimiy munosabati, onaga nisbatan hurmat va e`zozi, onalik va bolalik baxtu iqboliga bo`lgan mehru muruvvati g`oyat hayajonli lavhalarda tasvirlangan. Masalan, otasi Sultonxon podsho buyrug`i bilan 300 jallod tomonidan onasi Huroyimning Mansur doriga haydab ketilganligini eshitgan o`n to`rt yoshli Rustamxon otni egarlab, jang asboblarini olib, ikki tozisini yo`lga solib, jallodlar ketidan kuvlab boradi va ularga qarshi jangda katta g`ayrat-matonat ko`rsatadi. Dostonda begunoh onani-tuhmatga yo`liqqan Huroyimni qutqarish, unga omonlik tilash yo`lida xalqning diniy qarashlari, islom g`oyalari bilan bog`liq tasavvuridan ham g`oyat o`rinli foydalanilgan. Avvalo uch xotindan ham farzand ko`rmay, shohlik shavkatini ham tashlab ketishga rozi bo`lgan Sultonxon diniy udumga ko`ra, so`fi-darveshlardan fotiha olgandan keyin, “hademay Huroyim degan o`rtancha xotini xomilador bo`lib qoladi”. So`ngra xalqning diniy tushunchasiga ko`ra, Mansur dori begunoh tuhmat bilan o`ldiriladigan kirishilar uchun qurilgan. Shu bois Huroyimning begunoh o`ldirilishini istamagan xalq xudoga iltijosini Huroyim tilidan shunday izhor etadi:

***“...Senga osilgandir tuhmatning bari,***

***Begunoh quridi oyimning sho`ri,***

***To`rt ming gaz ko`taril Mansurning dori,***

***Otganda etmasin jallod arqoni!***

... Huroyim bu so`zni aytib bo`lgandan keyin dor shiqirlab, poyidan qo`zg`alib ko`tariladi. Dor ham endi bu tuhmatdan xazar qiladi...”

(Rustamxon, 386-387-sahifalar).

Dostonda sharqona tarbiyaning yana bir ko`rinishi farzand odob-axloqi, mehr – shavqati va burchining ota-onaga itoatida, hurmat qilishida, gap qaytarmasligida namoyon bo`lishidir. Chunonchi, Rustam zolimlarni engib,

onasini eson-omon ko`rgandan keyin, endi Oqtoshga qaytamizmi, deb onasidan maslahat so`raydi. Onasi shunday javob qaytaradi:

*“Meni desang Oqtosh elga bormayman,  
Otangning diydori qursin, ko`rmayman,  
Qaytib borib, bu ish esimga tushib,  
Sira, bolam, burungiday bo`lmayman.  
Meni desang, boshqa yurtni izlagin,  
Qursin otang, men ixtiyor qilmayman!...”*

Rustam esi kirib qolgan, kitob o`qib har gapning ma`nosiga tushunadigan bo`lgan, serfahm, aqli ko`p yigit edi. Enasining so`zlarini tinglab, ma`nosiga tushunib, ...enasining gapi ma`qul bo`lub: . Ena, unday bo`lsaixtiyor senda-da. Sen shu gaplarni aytding; men otamning qoshiga bormayman, sendan ayrilib qolmayman. Tirik bo`lsak, bir tepada, o`lik bo`lsak bir chuqurda. Endi senning hayoling qaerda bo`lsa, mening ham hayolim shu erda, dedi”.

(Rustamxon, 390-391-sahifalar).

Ona va bola o`rtasidagi shu birgina samimiy muloqotdan ajdodlarimizdan meros qolgan hurmat, mehr-muhabbat qoidalari targ`ib etilgani yaqqol ifodalangan. Aniqroq qilib aytadigan bo`lsak, bunday ota-onaga, kattalarga hurmat qoidasi asosini e`zozlash, rag`batlantirish, qo`llab-quvvatlash, xizmatga tayyor turish, avaylash, ma`qullash, to`g`ri maslahat berish, ranjitmaslik, samimiy va iltifotli bo`lish kabi muhim insoniy fazilatlar tashkil etishi ta`kidlangan.

“Rustamxon” dostonida bunday ma`naviy qadriyatlar va milliy an`analarni unda tasvirlangan barcha voqea-hodisalar va obrazlarda ko`rish mumkin. Zotan, dostonning asosiy g`oyaviy yo`nalishi ham – ona yurtga muhabbat qo`yish, oddiy kishilarga muruvvat ko`rsatish va yaxshilik qilish, dushmanga nisbatan g`azab va nafrat bildirish, olijanob ezgu niyatlar yo`lida qat`iyat, dovyuraklik va jasurlik ko`rsatish, katta yoshdagi kishilarga jumladan, ota-onaga mehr-shafqatli, muruvvatli, sahovtli bo`lish, insonlar o`rtasidagi birodarlikni ulug`lashdan iboratdir.

“**MURODXON**” dostoni o`zbek xalq ijodining muhabbat mavzuini kuylovchi eng nodir asarlaridan biridir. Doston syujetini Oqtosh mamlakatining

podshosi Murodxonning unga bir ko`rinish bergan Orzigul parini sevib qolishi, oila qurish maqsadida uni izlab, uzoq yurtlarga ketishi, qahramonliklar ko`rsatib, ma'shuqasining visoliga etishuvi tashkil etadi. Shu bois dostonida ilgari surilgan asosiy g`oya – har qanday ezgulik, olijanoblik, do`stlik, vatanparvarlik, qahramonlik, dovyuraklik faqat sof sevgi tufayli amalga oshishini, faqat muhabbatgina inson kamolotini, ma'naviy qiyofasini belgilab berishini va u yovuzlik, yomonlik, adolatizlik ustidan tantanani ta'min etuvchi kuch ekanini ko`rsatishdan iboratdir. Masalan, Murodxon na mamlakati, na nomu nishonidan darak bermagan pari – Orzigulni izlab, kimsasiz, suvsiz cho`lu biyobonlardan o`tadi, “borgan odam qaytib yurtini ko`rmagan” baland va xavf – xatarli tog`lardan oshadi, boshi va oxiri ko`rinmaydigan Xunxor daryosidan uch oyu o`n kun deganda kechib o`tadi. Nihoyat Ko`lquduq mamlakatining podshosi Oqilxon bilan tanishib uning yordamida Orzigulni yurti Guliston mamlakati ekanligini bilib, yana yo`lga tushadi. Ko`p beklarni halok qilgan “juda zo`rabor” Afsar devni engib, u bilan do`stlashadi va dev taqdim etgan falang otda ko`kka uchib, Guliston mamlakatiga boradi. Orzigulni olib, Afsar devning manziliga qaytib keladi. Ketidan o`n ikki ming lashkar bilan quvib kelgan Qiron shoh lashkarlariga qarshi yakka o`zi jang qilib, uni engadi va shohning rozi-rivoligini olib, Oqtosh yurtiga omon-esson etib keladi. Ana shunday voqealar rivoji davomida xalqimizning haqiqiy sevgi, mehru vafo, do`stlik, samimiylik, olijanoblik, mardlik, baxodirlik, epchilik, uddaburonlik, sabru-matonat, jonbozlik, aql-idroklik, fahm-farosatlilik, ishonch, sadoqat, saxiylik, odillik, mehmonnavozlik kabi qadriyatlar ulug`lanadi.

Misol uchun dostonida ajdodlarimizning sharqona odob-axloqini, fe'l-atvorini va muruvvatini ifodalovchi vosita bo`lmish mehmondo`stlik qadriyati fandan ifodalanganini ko`zdan kechiraylik. Ma'lumki, Sharq xalqlariga xos mehmondo`stlik eng qadimgi davrlardan mavjud bo`lib, hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan qadriyatlardan hisoblanadi. Chunki mehmondo`stlik odamga mehr qo`yish, bir-biriga sahovatli va oqibatli bo`lish, oqko`ngillik va olihimmatlilikning yuksak ifodasidir. Buni biz “Murodxon” dostonidagi ijobiy obrazlardan biri – Ko`lquduq mamlakatining podshosi Orzigul parining do`sti

Oqilxon timsolida g`oyat jozibali tasvirlanganini ko`ramiz. Oqilxonning do`stlikni qadrlashi va e`zozlashi, do`st uchun har qanday yaxshilikni, mol-dunyoni ayamasi uzoq yo`ldan piyoda horib-yaaryaab kelgan, ochlikdan holdan toygan, mashaqqat chekkan Murodxonga ko`rsatgan mehribonligida, mehmondo`stlikning barcha rasm-rusumlariga rioya qilib, izzat-ikrom bilan kutib olganida yaqqol ko`rinadi: “Murodxonning ... ko`nglini xushlab, ko`shkiga boshlab olib borib, ostiga palos tashlab, qirquin qiz bekning xizmatida turdilar.

Oqilxon ... Murodxonning oldiga kelib, qo`l uzatib ko`rishib, so`rashib, dasturxon yozib, har turli taomlardan tortib, ko`p siylab tashladi.

Murodxonning oldiga pista, rusta, bodom, har xil alvonda nozu ne`mat narsalardan tortib, oltin kosalariga sharob suzib, Murodxonning ko`nglini xuo`lab ziyofat ustiga ziyofat, asal ustiga sharbat tortib, maylisni qizitib o`tira berdi. Hammasi zarli-zarbof kiyimlardan kiyib, Murodxonga jilvalar qilib, ko`nglini olib, nozlar bilan gapira berdi...”.

Shu xilda vaqtixushlik bilan oqshomni o`tkazib, Oqilxon ertalab mehmon bilan tanishadi, uni maqsadi yo`lida xizmat qilishiga va`da berib, o`z mamlakatini mehmonga ko`rsatadi.

“Oqilxon shahrining yarmini Murodxonga ko`rsatib, past ko`cha, tor ko`cha, rost ko`cha – barini ko`rsatib, guliston chorbog`lariga iyartib, shunday dumog`ni chog` qilib, shul kechani o`tkardi. Shul kecha o`tdi, xo`p yaxshi qildi xizmatdi, oqshom yotdi. Tong otdi. Kun choshkua haddiga etdi. Shunda Oqilxon qirquin kanizlariga buyurdi: - Qora qashqa tulporni egarlab olib kelinglar! – dedi.

... Bu qirquin qizlar hammasi jam bo`lib, otning oldiga bordi. Yalang`ochlab, qashlab, supurib-sidirib, ... otning ustiga tilla, zarli-zarbof abzallarni solib, turli po`pak-tillalarni taqib, otni bezab, tilla yuganlarni urib, har xil kashtali tillaning suvini yugirtgan davirlarni solib, tilla egarni otning beliga urib, yaxshilab, hamma anjom-abzallarni urib, bezab bo`lib otning jilovini hammasi ushlab, bu tulpor otni o`rtaga olib, etaklab, sozlab bora berdi... Shunda Murodxon bu otni ko`rib, vaqti xush bo`lib, dumog`i chog` bo`ldi.

Shunda Oqilxon xazinasini ochdirib, podsholik dag`dag`a bilan turli sarpolar olib kelib, yaxshi sarpo – bosh oyoq kiyimlardan Murodxonga yoptirdi. Safarning kamchilik asboblaridan Murodxonga berib, har nima yovga kerak bo`lsa, hammasini tayyorlab, qo`liga yaxshi tilla dastli qamchin, yaxshi ispixon shamshirlarni ham berdi.

Qizlar uzangini bosib, Oqilxon qiz Murodxonning qo`ltig`iga suyab, Murodxon uzangiga oyoq qo`yib, “bismillo”, deb otga mindi”.

(Murodxon, 89-90-sahifalar).

Ana shunday keyin Oqilxon Murodxonga oq yo`l tilab, fотиha beradi va qirquin qizlariga amr qilib, Murodxonni shahar darvozasidan chiqartirib, yo`lga solib yubortiradi.

Bu parchadan ravshan ko`rinib turibdiki, ajdodlarimizning mehmon kutish qoidalari, mehmonnavozlik rasmi-rusmlari juda qadimdan mavjud bo`lib, asrlar osha sayqal topib kelgan xalq dostonlarida, buyuk mutafakkir allomalarimizning asarlarida pedagogik tarbiyaning bir amaliy shakli sifida bayon etilib, milliyong va g`ururni shakllantiruvchi bir tarbiyaviy vosita sifatida hamon davom etib kelmoqda. Zotan, mehmondo`stlik, qadriyati negizida o`zbek xalqining insoniylik, samimiylik, do`stlik, xayrihohlik, saxiylik xususiyatlari, mehmon kutish, kuzatish, sovg`a tortiq qilish odobi bilan bog`liq taomillar yotadiki, ularni o`rganib, umumlashtirib, hozirgi ta`lim-tarbiya tajribasiga singdirish ilmiy-amaliy mohiyat kasb etadi.

**“ShIRIN BILAN ShAKAR”** dostoni ham o`zbek xalq epik ijodiyotining yaxshi bir namunasi bo`lib, unda oila va bola tarbiyasi, ota-onaning bola tarbiyasi uchun mas`uliyati va burchi, farzandga nisbatan dili pokligi va mehr-muruvvatligi muammolari xalq orzu-havasi talqinida hal etiladi. Chunonchi, doston syujeti afsonaviy Quyonqi yurtining podshosi Qosimxonning sakson xotinlaridan biri – Bo`tako`zdan bir o`g`il, vazirning xotinidan ham bir o`g`il tug`ilishi bilan boshlanadi. Biroq vazirning xotini o`lib, o`g`li etak ostida qoladi. Bo`tako`z vazirning bolasini ham emizib, parvarish qiladi. Podshoning o`g`liga Shakarbek, vazirning o`g`liga Shirinbek deb nom qo`yib, ular aka-uka bo`lib o`sa

beradilar. Ular etti yoshga etib, savodxon bo`lib, birinchi ovga chiqqanlarida tuhmatga yo`liqadilar: o`gay onalari Kenjaoyim o`zining epchi g`ozini ovlagan Shirin bilan Shakardan ranjib, Qosimxonga o`g`illaring meni zo`rladilar, deb shikoyat qiladi. Natijada ular otalarining amri bilan Mansur doriga osib o`ldirishga hukm qilinadi.

Dostondagi bundan keyingi voqealar davomida Shirin bilan Shakarning pirlari Alovxo`ja yordamida dor ostidan qutulib, o`z ota yurtlaridan bosh olib ketganlari, uzoq mashaqqatli sargardonlikdan keyin Chibich cho`liga kelib qolganlari, bunda baland Zil tog`i etagida Xoliyor bobo ismli bir chol bilan topishib, undan bu tog` ichida Gulgun pari borligini, Qoraxon shoh parining xushtori ekanini, lekin parini daxshatli ajdar qo`riqlab yotgani uchun bu erda har yili son-sanoqsiz shoh lashkari qirilib ketayotganini bilib oladilar. Charchab qolgan ukasini tog` to`shida qoldirib, tog`ning yuzasiga chiqqan Shakarbek ajdar damiga ro`baro` bo`ladi va komil piri Alovxo`jadan madad tilab, ajdarni o`ldiradi. Ajdarning ikki shohi tilsimi bilan sirli tog` ichiga kirib, Gulgun pariga uylanadi. Akasini yo`qotgan Shirin esa yolg`iz qolib, to`satdan yo`ldan o`tayotgan qalandalarga qo`shilib Shakarbekni izlab ketadi.

Doston qahramonlarining jangnoma xilidagi sarguzashtlari shundan keyin boshlanadi. Zil tog`iga bostirib kelgan Qoraxon shoh lashkarini tor-mor qilishi, so`ng shoh xiylasiga tushunmay, ayyor kampirning tuzog`iga tushib, sevgan yoridan ajralishi, Gulgun pari maslahati bilan Zil tog`iga kelgan Shirinbek boshliq qalandarlar bilan Qoraxon shoh yurtiga bostirib borib, son-sanoqsiz lashkarni engishi, shu mamlakatga xon bo`lib, Gulgun pari bilan qaytadan topishishi tasvirida Shakarbekning jasurligi, qahramonligi, olijanoblighi, sevgisiga sadoqati, onasiga muhabbati, ukasiga jigarlik samimiyati va jonkuyarligi, hokimiyatni boshqarishdagi tadbirkorligi va odamlarga g`amxo`rligi yaqqol namoyon bo`la boradi. Shu ma`noda “Shirin bilan Shakar” ham ishqiy, ham insoniy sadoqat, ham qahramonlik sarguzashtlarini o`z ichiga olgan doston bo`lib, u xalq pedagogikasining hozirgi zamon tarbiyasi uchun ham o`z qadrini yo`qotmagan qadriyatlarga g`oyat boy asardir.

Masalan, dostonda oilaviy bir janjal kabi maydonga chiqqan ota-bola g`avg`osini ko`zdan kechiraylik. Qosimxon ko`pdan duo olib farzandli bo`lganiga qaramay, ko`p xotilaridan biri Kenjaoy tuhmati bilan Shirin bilan Shakarni o`linga hukm qiladi. Shu o`g`illarini tuqqan va asragan Bo`tako`z oyimning ko`z yoshlari ham podshoga aslo ta'sir qilmaydi:

*Tilab olgan o`g`li poshsho o`ldirar,  
Ko`rib hayron qoldi qancha odamlar...  
Hech zamonda shundayin gap bo`larmi,  
Poshsho farzandini dorga ilarmi?*

Hatto Qosimxon qo`l bergan Alovxo`ja eshon ham Shirin bilan Shakar gunohini tilab kelganida podsho quloq solmaydi:

*Zulm qilma Shirin, Shakar to`raga,  
Alovxo`ja piring tushdi oraga...  
Sen izlama qiyomatning kunini,  
Eshoningga o`tkin o`g`ling xunini...  
Qilmagil sen go`daklarga zulmni,  
Bosh tang`ib, bilmabsan biror yo`lingni,  
O`limdan qaytargin ikki o`g`lingni?*

(Shirin bilan Shakar, 24- sahifa).

Shubhasiz, bu xalq ongi, e'tiqodida ifodalangan diniy orzu va dunyoqarashdir. Ma'lumki, din – ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo`lib, tarixiy zarurat sifatida paydo bo`lgan va asrlar davomida yashab, axloq, qonun, turmush, hayot tarziga, diniy ma'naviy qadriyatlarga katta ijobiy ta'sir ko`rsatib kelgan. Shu ma'noda burungi zamonlarda piriga, eshonga katta e'tiqod qilingan, uning maslahatlari bilan ish tutilgan, hatto buyuk jahongirlar ham o`z piriga itoat etganlar. Biroq "Shirin bilan Shakar" dostonida Qosimxon o`z piringning maslahatlarini ham olmay, o`zining o`ta johilligini, toshbag`irligini ko`rsatadi. Bundan achchig`i chiqqan Alovxo`ja Qosimxonga shunday javob qaytaradi:

*Jafolar solarman tandagi jonga...  
Sen bejoy teginding menday eshonga.*

*Hali ham bir Shirin, Shakar hurmati,  
Otar edim taxti baxting osmonga...  
Qani, men bu erda turmay borayin,  
Go`daklarni o`ldirganing ko`rayin...  
Qo`limldan kelguncha seni ko`rayin,  
Go`daklarga men rahbarlik qilayin.*

(Shirin bilan Shakar, 25- sahifa).

Haqiqatan ham, dostonidagi butun voqealar rivojida Alovxo`ja Shirin bilan Shakarga rahnamolik qilib, madad berganining guvohi bo`lamiz. (Mansur doriga osilishdan saqlab qoladi. Haqiq tog`ida dallodlar tomonidan boylab tashlangan aka-ukalarning qo`lini echadi, ajdarni o`ldirishga yordam beradi. Bo`tako`z oyimni tinchlantirib, “O`n sakkiz yildan so`ng o`g`ling keladi” deb bashorat qiladi).

Otasidan jabr ko`rgan Shirin va Shakarda otaga hurmat, farzandlik mehri bo`lishi mumkinmi? Buni biz Haqiq tog`ida ularni Alovxo`ja pirlari boylovdan xalos qilgandan keyin aka-uka muloqotidan bilishimiz mumkin:

*Shirin shunday deydi:  
Endi ko`rsak Quyonqiday shaharni,  
Tirikmiz, enamga bersak xabarni,  
Shodu xurram qilsak ul mushtiparni.  
Bizlar uchun qonlar yutib qolgandir,  
Qora kiyib, hali yig`lab yurgandir.*

(Shirin bilan Shakar, 53- sahifa).

Shakarbek Shirinning so`ziga shunday javob qaytaradi:

*Qursin ota yurt, Shirinjon, bormaymiz,  
Balki borsak, bizlar omon qolmaymiz.  
Mundan borib burungiday bo`lmaymiz,  
Otamning diydori qursin, ko`rmaymiz...  
Boshimizni olib bundan ketaylik,  
Necha tog`u cho`lni kezib o`taylik,*

***Qaytib elg`a borib, uka, netaylik?***

(Shirin bilan Shakar, 53- sahifa).

Ko`rinib turibdiki, ular otalaridan yuz o`giranlari holda onalarini sadoqat bilan sevadilar, uning farzandlari uchun chekayotgan iztiroblari, ko`z yoshlariga achinadilar, ona diydorini qo`msaydilar. Shakarbek o`zining alamzada onasini o`n to`rt yil mobaynida bir daqiqa bo`lsa ham esidan chiqarmaydi, mudom uning xayoli bilan yashaydi. Hatto Qoraxon davlatini tor-mor keltirib, o`zi xon bo`lib, Gulgun parisi visoliga etishganida ham:

***Bir necha enasi tushib esiga,***

***Shakarining uyqusi qochib ketibdi.***

***Hamma dardin Gulgunoyga aytibdi;***

***Yotib edim taxt ustida bul kecha,***

***Jilva qilib enam bunda kelgandir,***

***Bu yurtlarda mendan xabar olgandir.***

(Shirin bilan Shakar, 121- sahifa).

Shakarbek beva-bechoralarni ko`rganda ham ularni onasiga o`xshatib, achinadi va ularga g`amxo`rlik qiladi. Qoraxon yuborgan ayyor kampirning tuzog`iga ilinishi ham xuddi shunday ko`ngilchanligi, sofdilligi tufaylidir.

“Shirin bilan Shakar” dostoni xotimasi sharqona an`ana va tarbiya qoidalari bilan yakunlanadiki, bu dostonning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Shakarbek devlar yordamida bir qo`rg`on yasatib, uni osmon-falakka uchirib, Quyonqi shahri yaqiniga qo`ndirgandan keyin o`z dushmanlaridan o`ch olmoqqa shaylanadi. Bu niyatini u Alovxo`ja eshonga izhor etadi:

***Nasib qilsa bedovimni minayin,***

***Olmos po`lat qayrab qo`lga olayin,***

***Devlarning barini hamroh qilayin,***

***Ot o`ynatib Quyonqiga kirayin.***

***Ko`zdan to`kib bunda selob yoshini.***

***Men qilayin dushmanlarning ishini,***

***Avval kesay men otamning boshini...***

(Shirin bilan Shakar, 127- sahifa).

Bir qarashda Shakarbekning bu qarori to`g`riday tuyuladi: axir begunoh farzandlarini hech o`ylamay-netmay, yana o`z pirining nasihatiga ham quloq solmay o`limga hukm qilgan ota jazoga loyiq, albatta. Biroq qadimiy sharqona tarbiya mezonlari bunga yo`l qo`ymaydi. Chunki bu mezonlar mazmunida imon, e`tiqod, hurmat, muruvvat kabi tushunchalar mavjud bo`lib, ularning negizini diniy madaniyat, islom dini qonun-qoidalari mohiyati tashkil etadi. Bunday sharqona tarbiya talablariga ko`ra, ota piri buzrukvor, qiblagoh, duogo`y mo``tabar zot hisoblanadi. Farzand otaga e`tiqodli, muruvvatli, samimiy, itoatgo`y bo`lishi lozim. Otaning duoyi badi, qarg`ishi g`oyat yomon, chunki ona urushsa, qarg`asa, ko`krak suti oraga kirib, farzandni asrar, otaning qarg`ishini qaytaradigan kuch yo`q. “Ota rozi-xudo rozi” maqoli ham shu bois yuzaga kelgan. Shuning uchun ham Alovxo`ja eshon islom dini qonun-qoidalari va an`analaridan kelib chiqib, Shakarbekni murosaga chaqiradi:

***Qanday farzand otasiga o`q otar?***

***Bu shaharga o`q otmagin, bek Shakar!***

***Bu shaharda sening qiblagohing bor.***

***Qanday farzand otasiga tig` tortar?***

***Bo`lmagaysan mahshar kuni gunohkor,***

***Tig` tortgan bo`ladi ul oqpadar!...***

***Otangning hurmatin qilgin, bek Shakar,***

***Shaytonning yo`liga kirmoq ne darkor?***

(Shirin bilan Shakar, 127-128- sahifalar).

Demak, xalq o`z ijodida Alovxo`ja eshon timsolida yoshi ulug` komil insonni, axloq-odobga oid diniy qadriyatlarning donishmandini ulug`lash bilan sharq xalq pedagogikasida o`z ifodasini topgan ota-onaga hurmat, qarzdorlik va burchdorlik hissini targ`ib etgan. Chunki sharqona tarbiya qoidalariga ko`ra, bu hissiyot talab, pand-nasihat, vijdoniy burch tarzida farzandlarga etkazilgan. Shu bois doston qahramoni Shakarbek o`z pirining nasihatlariga quloq tutib, “o`z ra`yidan qaytdi”, “devlarga javob berdi”, ota-bola ko`rishib yarashdi.

(Shirin bilan Shakar, 128-129- sahifalar).

“**ALPOMISH**” dostoni qadim zamonlardayoq o`zbek xalqi o`rtasida tarqalgan bo`lib, xalq shoir va baxshilari o`rtasida uni kuylash katta san`at, iste`dod va mahorat hisoblangan, uni kuylaganlar esa alohida hurmat-e`tiborga va nufuzga ega bo`lganlar. Shu sababli “Alpomish” dostonining variantlari ham ko`p. Chunonchi, hozirgi kungacha respublikamiz hududida bu dostonning o`ttizga yaqin varianti yozib olingan bo`lib, ular ichida eng mukammali, oyaviy-badiiy jihatdan eng yuksagi Fozil Yo`ldosh o`g`lidan 1928 yilda yozib olingan variantdir. Shuning uchun ham dostonning shu varianti o`zbek va rus tillarida ko`p marta nashr etilib, keng kitobxonlar ommasi tomonidan sevilib o`qilib kelinmoqda. Chunki “Alpomish” dostonida xalqimizning qahramonona o`tmishi-urug`chilikning emirilishi davrida chorvador xalqimiz hayotida davlatchilikning paydo bo`lishi davridagi munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy hayoti, udumlari, axloq-odobi, qardoshlik tuyg`ulari, kurashi, o`y-fikrlari, orzu – havaslari yorqin ifodalangan. Shu bois dostonni kengroq tahlil etib, uning pedagogik qimmati va tarbiyaviy ahamiyatini ravshanroq bayon etishga harakat qildik.

“Alpomish” dostoni ikki qismdan iborat bo`lib, unda o`zbek xalqining qabilachilikdan feodalizmga ko`chish davri, feodalizmning dastlabki kunlari tasvirlangan. Dostonning mazmunidan ma`lum bo`ladiki, uning birinchi qismida oila uchun, yor uchun kurash g`oyasi, ikkinchi qismida esa urug` birligi uchun, o`z elining or-nomusi uchun kurash g`oyasi ilgari surilgan.

Doston syujeti o`n olti urug` Qo`ng`irot elida Alpinbiyning o`g`illari aka-uka Boybo`ri va Boysarilarning farzandsizlik dog`ida iztirob chekib yurishi va dostondagi an`anaviy motivga – diniy e`tiqodga ko`ra, xudo Boybo`riga egiz farzand – bir o`g`il va bir qiz. Boysariga esa bir qiz ato etishi bilan boshlanadi. Mana shu farzand ko`rish voqeasidayoq xalqimizning an`anaviy udumlari – suyunchi olish, to`yga tayyorgarlik, maslahat oshi va to`y o`tkazish udumlari yorqin ifodalanganini ko`ramiz. Chunonchi: “... Biylar shul vaqtda ovdan qaytdi; bu yoqdan shul vaqtda farzandlar er yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi. Biylar vaqti ziyoda xush bo`lib, manziliga kelib joy olib, har

tarafga xabar yuborib, to`y-tomoshga qilmoqchi bo`lib chog`lanib, sozlanib, o`n olti urug` Qo`ng`irot elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarni yig`dirib, to`y qilamiz deb maslahat qildi. Hamma mamlakatda ovoza bo`lib, elining, yurtning katta-kichiklari qulluq bo`lsinga kelib, do`stlari shodmon bo`lib, dushmanlari g`amgin bo`lib, ilojini topolmay, g`amgin bo`lsa ham hech kim yuragini yorolmay, bular ham qulluq bo`lsinga kela berdi. O`n olti urug` Qo`ng`irot urug`ining odamlari, eshitgan xaloyiqlar guros-guros bo`lib kela berdi. Katta-kichiklar kelib, to`yning asboblarini tuzatib, qancha to`qim mollar so`yib, osh-palovlar damlab, fuqaro beva-bechoralar to`yib, shul asnoda qirq kechayu, qirq kunduz to`y berib yotdi”.

Shu kichik parchada keltirilgan an`anaviy xalq udumlarining nechog`liq hayotiyligi, xalqimiz ongi va odatiga qanchalik chuqur singib ketganligini ularning hozirgi davrimizgacha yashab, davom etib kelayotganligidan ham anglash mumkin. Demak, insonning kundalik hayotida an`analar va urf-odatlar, jumladan, to`y-tantanalari bilan bog`liq udumlar azal-azaldan katta o`rin egallab, muayyan davrning, iqtisodiy va siyosiy tuzumning samarasi hisoblangan.

Halq dostonlarida milliy an`analar, urf-odatlar va insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar xatti-harakatlari bilan bog`lab tasvirlanadi, ular timsolida mardlik, to`g`rilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik birinchi o`ringa qo`yiladi, insoniy qadriyatlar ulug`lanadi. Masalan, “Alpomish” dostonida sevimli yor, oila va urug` birligi yo`lida ko`rsatilgan mardlik, jasurlik, qahramonlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlar birodarligi, do`stlik va samimiyat ulug`lanadi. Xalqning qahramonlik va mardlik haqidagi ideallari, sodiq do`st, vafoli yor, oqibatli jon-jigar to`g`risidagi orzu-umidlari dostonning asosiy ijobiy qahramonlari Alpomish, Barchinoy, Qorajon, Qaldirg`och, Qultoy va Yodgorlar timsolida tasvirlanadi. Xalq ularni o`z dushmanlariga qarshi kurashda har ishga qodir jismoniy baquvvat, ma`naviy etuk qahramonlar qilib yaratgan. Masalan, qo`ng`irot urug`i boshliqlari Boybo`ri va Boysarining bolalari Hakimbek va Barchin ajoyib-g`aroyib sharoitlarda tug`iladi va yoshligidayoq shohimardon pirim tomonidan unashtiriladi. Hakimbek yoshligidanoq bahodirona ishlarga qodir bo`lib o`sadi va etti

yoshidayoq bobosi Alpinbiydan qolgan o`n to`rt botmonli sari yoydan otib, Asqar tog`ining cho`qqisini uchirib yuborgani uchun Alpomish nomini oladi va to`qson alpning biri bo`lib qoladi.

Alpomishning asosiy jasorati, qahramonligi zakot talab qilganligi uchun akasi Boybo`ridan arazlab, o`n besh kunlik masofadagi qalmoq yurtiga – Kashal eliga ko`chib ketgan Boysari oilasi va uning qizi Barchin ustiga bostirib kelgan qalmoq shohi Toychaxon lashkariga qarshi kurashida va ularni tor-mor qilishida yaqqol namoyon bo`ladi:

*Qaramay baland-pastiga,  
Ot qo`ydi qalmoq ustiga...  
Yolg`iz bo`p bunda yuradi,  
Ko`p qalmoqni o`ldiradi,  
Qilich-nayza sop ko`radi.  
Bu alpga ta`sir qilmadi,  
Qalmoq aytgani bo`lmadi,  
Qalmoqlar fikr o`yladi...  
“Tig`i olmos bunga botmas,  
Urush qilgan omon ketmas.  
Bu o`zbek qanday jodugar.  
Yo bu kashmirmi, hiylagar?  
Hech kim bo`lmadi barobar,  
Ursang botmaydi yaroqlar”...*

(Alpomish, 158-159-sahifalar).

Alpomishning katta afsonaviy kuch-qudrati, qahramonligi dostonning ikkinchi qismida etti yillik zindondan qutulib chiqib, Toychaxon yuborgan lashkarga qarshi bir o`zi jangga kirib, uni tor-mor qilishda yanada yaqqol ko`rinadi:

*Sel bo`ldi qalmoq ko`z yoshi,  
Shuldir Hakimbekning ishi.  
Qalmoq ko`pdir, tob berolmas,*

*Bunga ro`baro` kelolmas,  
Qo`lida bor keskir olmos.  
Sermaganda jon qutulmas.  
Nechovlarin chopib o`tdi.  
Qalmoq yurtini bo`zlatdi.  
Bunday yurtni izillatdi.*

(Alpomish, 255-sahifa).

Dostonning ham birinchi, ham ikkinchi qismidagi Qalmoq shoh lashkarlariga qarshi kurashda Alpomishning adolatparvar, oddiy odamlarga jonkuyar va xayrihoh, bechoralarga madadkor ekanini ko`ramiz. Zero, Alpomish qalmoq yurtiga bosqinchilik qilish uchun emas, balki Qalmoqshoh tomonidan mol-mulki tortib olinib, o`zi xizmatkor qilingan Boysariga madad berish va uni Boysunga olib kelish uchun boradi. Har ikki holda ham Qalmoq shoh lashkari unga hujum qilgani sababli dushmanga qarshi jangga otlanadi. Demak, adolat uchun, haqiqat uchun kurashadi.

Ikkinchi jihatdan bu kurashda Alpomish shu erdagi ilg`or kuchlarga tayanadi. Bular-Qalmoq yurtining malikasi Tovka va oddiy cho`pon Qayqubotdir. Ular Alpomish zindonda yotganda va undan qutulib chiqishida katta yordam ko`rsatadilar. Bunda odamga do`st bo`lib, yaxshilik qilishi, sadoqat va muruvvat ko`rsatishi kerakligi targ`ib etiladi. Bu ulug` insoniy fazilat. Alpomish Toychaxonni mag`lubiyatga uchratgach, Qayqubotni uning o`rniga podshoh qilib tayinlaydi va taxtni egallashini qonunlashtirish uchun Toychaxon qizi Tovkani Qayqubotga xotinlikka olib boradi.

Alpomishdagi chinakam insoniy fazilatlar, uning zulm va razolatga qarshi kurashi, jasur va jismoniy baquvvatligi qalmoq pahlavonlaridan biri Qorajon bilan do`stlashishiga sabab bo`ladi. Masalan, Qorajon Alpomish bilan do`stlashib o`z uyida mehmon qilib turganda onasi Suxayidning mehmonni yoqtirmay aytgan gaplariga javoban shunday deydi:

*To o`lguncha yaratganga rost bo`ldim,  
O`z fe`limdan cho`pu xastdan past bo`ldim.*

*Xudoni o`rtaga solib do`st bo`ldim,  
Kelgan mehmon sening o`g`ling bo`ladi.  
Unday desang, ena, ko`nglim qoladi...  
Do`sting mehri juda issiq keladi...  
Mazgiliga o`g`ling aytib keladi...  
Do`st otini bunda tutib turadi,  
Unday dema, onajon, ayb bo`ladi.  
Qo`ng`irotning shunqori kelib qo`nadi.  
Eshitsa ko`ngliga og`ir oladi...*

(Alpomish, 97-98-sahifalar).

Bu so`zlarning o`ziyoq Qorajonning Alpomishga samimiy va sodiq do`stligidan, unga hech qachon hiyonat qilmasligidan dalolatdir. Haqiqatdan ham dostonda tasvirlangan voqealar shahodatiga ko`ra, Alpomish bilan Qorajon do`stligi adolat va haqiqat, ozodlik va tenglik, inson huquqi va nomusi uchun kurashda borgan sari mustahkamlanib, Barchin shartlarini bajarishga, qalmoqlarning to`qson alpini engishga, Barchin yorini olib, o`z yurtiga keltirishga madad beradi.

Masalan, Barchi qo`ygan shartlarning ikkitasini Alpomish nomidan Qorajon bajaradi: qirq besh kunlik poygada qatnashib, qalmoq alplarining jabr-zulmiga qaramay, birinchi bo`lib etib keladi: bir kam to`qson alp bilan kurash tushib, barini engadi.

Dostonda ana shu kurash lavhalari g`oyat jonli va jozibali tasvirlangan. Chunonchi, Qorajon bilan alplar kurashidan bir lavhani ko`zdan kechiraylik:

*...Achchiqlanib tag`i qalmoq keladi,  
Qorajonning ishin bari ko`radi...  
Shunday qalmoq kelib kirdi maydonga,  
Jafolar solgandir tandagi jonga.  
Xazon bo`lsa zog`lar qo`nar gulshanga,  
Duchor bo`ldi Qorajonday polvonga,  
Ushlagandan buni otdi osmonga.*

*Tagi ham bir qalmoq keldi maydonga:  
Oltmish qarich olachdan qalpog`i,  
To`qson qo`yning terisidan telpagi.  
Shunday qalmoq kelib kirdi maydonga.  
Qorajonbek juda g`ayrat qiladi,  
Qaysarday bo`p bul olishib turadi.  
Keyinga qayirib erga uradi,  
Kelgan qayirib erga uradi,  
Kelgan qalpoq armon bilan o`ladi...  
Do`sti uchun juda xizmat qiladi,  
Qorajondan bekning ko`ngli to`ladi...*

Dostonda Qorajon obrazi orqali turli elatlar o`rtasidagi insoniy fazilatlar-sadoqat, samimiyat, mehru vafo, jonbozlik, qat`iylik ulug`langanini ko`ramiz.

Alpomishning qahramonlik ishlariga yori Barchin va singlisi Qaldirg`och kabi etakchi ayollar obrazi ham madadkorlik qiladi. O`z elati va yurtiga muhabbat, o`z oilasi, yori va jon-jigarlariga sadoqat, mustaqillik va jasorat bu obrazlarning ichki mohiyatini tashkil etadi. Ular yuksak insoniy fazilatlari, aql-farosati, o`rinli va keskin xatti harakati, jasur va qo`rqmasligi, tadbirkorligi bilan Alpomish va Qorajonni qahramonlikka undaydi. Chunonchi, Barchin g`oyat yoshlik chog`idayoq erkin fikr yuritadigan, ota-onasini xatti-harakatiga norozilik bildirishga o`zida jur`at topadigan obraz sifatida namoyon bo`ladi. O`n ming uyli Qo`ng`irot urug`ini Kashal yurtiga ko`chishini ko`pchilik ma`qullab turgan bir paytda, Barchin bunga qarshi chiqadi. Bu harakati bilan u Alpomish g`oyasini qo`llab-quvvatlaydi. Chunki Boysari boshliq o`n mingli Qo`ng`irot urug`i Boybo`riga zakot to`lashdan bosh tovlab, Kashal yurtiga ketayotgan edi, ular zakotga qarshi edi. Barchin esa elni ko`chmaslikka targ`ib qilar ekan, u Boysariga zakot to`latib, shu erda yashash tarafdori. U qalmoq yurtiga ko`chish yomon oqibatlariga olib kelishini oldindan sezib, bu ishda onasini ayblaydi va undan madad so`raydi:

*O`yilmay qo`ymasin kulbai jonam,*

*Oh urib yig`laydi mendayin sanam,  
Qalmoqda qolarda guldayin tanam,  
Xuja kelsa chiqar murid vaziri,  
Xotin bo`lmasmikan erning vaziri?!  
Er deganning aqlin olmas bo`lurmu,  
Aldab-so`ldab yo`lga solmas bo`lurmi?!  
Boy otamman biy boboma na bo`ldi?  
Mung`ayib yig`laydi menday gajakdor,  
Ko`p jafoni solar bizga qalmoqlar,  
Boy otamman biy boboma na bo`ldi?  
Nasihat qilmabsan, ena mushtipar!*

(Alpomish, 23-24-sahifalar).

Bu lavhada qadim-qadimdan o`zbek oilasida ayol erning o`ng qo`li, maslahatgo`yi, “yarim pir”, “jufti halol” degan milliy an’ana, xotinga ishonch va sadoqat udumi ifodalangan.

Barchi mardlik va dovyuraklikda, o`z kuch – qudratini namoyon qila bilishda Toychaxon alplariga teng keladigan botir, jismoniy jihatdan etuk, alp va go`zal qiz sifatida tasvirlanadi. Chunonchi, to`qson qalmoq alpidan biri Ko`kaman Barchin o`toviga kelib, ota-onangni o`ldirib, “men seni zo`rlikman olarim bordir” deb do`q po`pisa qilganida, Barchin unga shunday dadil javob beradi:

*Haq so`zimni ola berding qiyoma,  
Qo`lingdan kelganin qilgin, ayama.  
Meni olmoqqa haddin bormi, qalmoqlar,  
O`z yo`lingga bora bergin, badbaxtlar...  
Xabar bersa bek Alpomish kelmasmi,  
Xonim kelsa senday qalmoq o`lmasmi,  
Xoling bilib, to`g`ri yursang bo`lmasmi?!  
Kelsa kelar Qo`ng`irot elidan Alpomish,  
Kelmasa, men taqdirimdan ko`rarmen,  
Erkak libosini o`zim kiyarman,*

***Bor kuchimni bilagimga kiyarman,  
Qirq mingingni bir deb sanab qirarman.  
Meni olmoqqa hadding bormi, badbaxtlar!***

(Alpomish, 50-51-sahifalar).

Doston syujetidagi bundan keyingi voqealar tasviri Barchin aytgan soʻzlar quruq doʻq boʻlmay, haqiqat ekanini tasdiqlaydi. Zotan, dostonda tasvirlangan Barchin Qaldirgʻoch va boshqa obrazlar afsonaviy boʻlmasdan, oʻtmish hayotining tarixiy negizi asosida yaratilgan ideal obrazlardir. Shu maʼnoda Barchinning oʻz taqdirini oʻzi hal qilishi uchun boʻlgan intilishlari qabilachilik davridagi matriarxat hayotining davomidir. Barchinning voyaga etishi bilan oilada unga beriladigan huquq, turmush yoʻldoshi tanlash erki, jamoat, xalq hayotida faol qatnashish, ota-onasiga oʻz fikr-mulohazasini aytish voqealari uning koʻchmanchi xalqlar qizi ekanidan darak beradi. Maslan, Boysari qalmoqlar yurtiga koʻchib kelganidan keyin, qalmoq shohining toʻqson alpi Barchinga sovchi boʻlib kelganda, avval qarindoshlaridan maslahat soʻraydi. Ular, bu erga oʻzing boshlab kelding, endi “tortinmay bera ber qizingdi” deb maslahat berishadi. Boysari nima qilarini bilmay turganda, qizi Barchinoy unga murojaat etadi:

***Juda ham gangidi, boy ota, boshing,  
Maslahat berdi-ku qavm qaridoshing...  
Eshitmagin qarindoshlar soʻzini,  
Kuyov qilsin toʻqson alpning oʻzini,  
Qarindoshlar bera bersin qizini!  
Sen yigʻlading, ota, koʻnglim buzildi,  
Diyda giryon boʻlib bagʻrim ezildi,  
Xafa qilma, ota, menday qizingdi,  
Qoʻya ber alplarga mening oʻzimdi.  
Qalmoqlarga javob bermogʻim darkor,  
Xafa boʻlsang, mening koʻnglim buzilar,  
Ul alplarga men boʻlarman, barobar...***

(Alpomish, 55-sahifa).

Bu gap Boysariga ma'qul bo'lib, "O'ng ming uyli Qo'ng'irotdan chiqarib, Barchinni o'tovini ko'tarib, ovloq tepaning boshiga chiqarib qo'ydi. Bul o'tovda qirquin kanizlari bilan Barchin o'tirdi". Shunda sovchi bo'lib kelgan to'qson alpni Barchin ixtiyoriga yo'llab, Boysari shunday dedi: "Biz maslahat qilib, yil ag'darib ko'rdik, qizimizning yili chichqon ekan, yoshi o'n to'rtga chiqqan ekan, bizning o'zbekning rasmi shunday bo'ladi, qiz o'n to'rtga chiqqan so'ng ixtiyori o'zida qoladi, bizning aytganimizga ko'nmay, tepaning boshiga o'tovini tikib o'tiribdi, o'ziga boringizlar, o'zidan so'rangizlar, biringizga tegarmi, baringizga tegarmi, o'zidan so'rab bilingizlar..."

(Alpomish, 57-sahifa).

Shoir Barchinni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida kuylab, uni jismoniy baquvvat, uzun bo'yli, barvasta qiz kabi tasvirlaydi. Shuning uchun ham Barchin o'z huquqini yaxshi biladi, o'z elida qolgan suyukli yori – Alpomishga e'tiqod bilan umid bog'laydi va sovchi bo'lib kelgan alplarga dadil javob qaytaradi:

*Eshitgin, qalmoqlar, aytgan tilimdan,  
Meni olar kelmas sening qo'lingdan...  
Mening to'ram bilsang, Boysin sultoni,  
Oti Xakimbekdir, elda davroni.  
Ko'p aylanma bunda, qalmoq, bema'ni.  
Xabar etsa alp Alpomish kelmasmi,  
Qalmoqlarga qiyomat kun bo'lmasmi,  
Armon bilan senday alplar o'lmasmi,  
Holing bilib, to'g'ri yursang bo'lmasmi?!*

Bu so'zni eshitib, Ko'kaldosh alp turib aytdi: . O'zbekning qizining dami baland ekan. Ko'kaman! Tushib sudrab chiq bu yoqqa! Ko'kaman alp otdan tushib, otni uyning beldoviga ildirib, bogona qimiz so'rab alamzada bo'lgan, uyning ichkarisiga kirgan. Barchinning kanizlari qo'rqib, uyning to'rida to'planib turgan. Barchin ibo qilib teskari qarab turib edi, Ko'kaman ali Barchinning burumidan ushlab, poygaga qarab torta boshladi. Barchin o'zini o'ngarib, qo'lini uzatdi, bir

qo`li Ko`kamanning yoqasiga etdi, bir qo`li bilan belbog`idan tutdi. “Yo pirim”, deb ko`tarib, chalqarmon qilib erga qo`ydi. Chap tizzisini ko`kragiga qo`yib turdi. Og`zi burnidan dirak-dirak qon keta berdi.

(Alpomish, 58-59-sahifalar).

Bu lavhada Barchin obrazi afsonaviy qahramon sifatida ideallashtirilib, zo`rlik ko`rsatishga uringan dushmanga qarshi unda g`ayri-tabiiy bir kuch paydo bo`lganligi tasvirlangan. Bu kuch faqat jismoniy kuch bo`lib qolmasdan, ma`naviy kuch hamdir. Inson qatorida yashash huquqiga ega bo`lgan Barchinga shu ma`naviy erkinlik katta jismoniy kuch bag`ishlaydi. Shu bilan birga, Barchin hayotiy obraz: u oddiy inson bolasi, adolatli, insofli, diyonatli ayol. U Ko`kaman alp uchun o`ch olishga hozirlanib, otdan tap-tap tushayotgan alplarni ko`rib, aql-farosat bilan ish tutadi, alplarning zo`ri Ko`kaldosh ekanini bilib, undan olti oyga muhlat so`raydi va bu bilan alplarning hujumini qaytaradi.

Doston voqealari davomida Barchin obrazi yanada takomillashib, uning insoniy fazilatlarini, adolatparvar va haqiqatgo`yiligi ochila boradi. Masalan, qalmoq alplaridan so`ragan olti oylik muhlat to`lganda Qo`ng`irot elidan yori Alpomish keladi. Biroq Barchin Alpomish keldi deb, uning etagidan ushlab, ergashib ketavermaydi, balki hamma alplarga, ham Alpomishga to`rt shart qo`yadi, shu shartlarimni bajarganga tegaman, deb va`da beradi. Bu bilan unga ishongan va olti oy davomida zo`rlik qilmay kutgan alplar ishonchiga sazovor bo`ladi. Va`da ijrosi bilan chiroyli degan qoidaga amal qiladi. Shu bilan o`z yoridan ham mardlik, jasorat, dovyuraklik ko`rsatishni, dushmanlarni qoyil qoldirishni, tan berdirishni istaydi. Buni biz Barchinni Alpomishga do`st tutinib, uning nomidan sovchi bo`lib kelgan Qorajonga aytgan so`zlaridan aniq anglab olami:

“Barchin aytdi: - Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb men Alpomishning etagidan ushlab, ketaberayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi, otini o`zdirgan odam oladi. Har kimning o`z ko`ngli o`zida qoladi. Mening to`rt shartim bor, shu to`rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi qalmoqlarning biri qilib olsin”.

Dostonda Alpomish, Barchin va Qorajon obrazlarida ifodalangan yorga muhabbat va sadoqat, do'stlik va samimiyat, qahramonlik va jasurlik, o'z eliga mehr va vatanparvarlik g'oyalari Qaldirg'och, Qultoy, Yodgor va boshqa obrazlar timsolida yanada takomillashtiriladi. Chunonchi, Qaldirg'och obrazi aka va singil o'rtasidagi jon-jigarlik munosabatlari nechog'lik iliq, samimiy, halol, to'g'ri, mehribon, talabchan, kuyinchak, da'vatkor bo'lishi lozim ekanligini ko'rsatuvchi yorqin bir hayotiy namunadir. Axir chechasi (ya'ni yangasi) Barchinning qalmoqlar yurtida toy-talashda qolganligidan xabar topgan Qaldirg'och akasini darhol yo'lga o'tlanishga undaydi, sustkashlik qilgani uchun narmoda deb unga tanbeh beradi, "mard yigitning yori talash bo'larmi" deb akasini uyaltiradi, yo'lga soladi. Bu sevgi yo'lida barcha sinovlarga bardosh berishga, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan fidoyi bo'lishga, kerak bo'lib qolsa, mardlik, jasurlik va qahramonlik ko'rsatishga chorlaydi.

Qaldirg'och obrazida ifodalangan yuksak insoniy fazilatlar doston syujetidagi butun voqealar davomida yanada sayqallanib boradi. Chunonchi, akasi Alpomish ikkinchi marta qalmoq yurtiga Boysari amakisini qutqarish uchun borganida Surxayl maston tuzog'iga ilinib, zindonga tushib qoladi. Bu xabarni eshitgan Qaldirg'ochoyim akasining o'rniga podsho bo'lgan Ultontozning zug'umidan qo'rqmasdan, Olatoqqa surgun qilingan Qorajonga xabar berib, Alpomishni zindondan qutqarish uchun jo'natadi. Akasining o'lganligi haqidagi xabarga ishonmaydi, qiyinchiliklarga chidab, Bobir qo'lida tuyalarni boqib yuradi. Akasidan yodgor bo'lib qolgan yakka farzandi Yodgorni parvarish qilib, uning tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Bunda Qaldirg'och obrazi orqali xalqning bardosh, sabr-toqat, umid, kelajakka ishonch, mehnatsevarlik, bolaparvarlik kabi yuksak insoniy xislatlari ulug'lanadi. Bunday fazilatlar mardlikka qanot, harakat dasturi, kulfatdan, g'am-alamdan qutqaruvchi vosita bo'ladi.

Dostonda kishilardagi baxillik, badnafslilik, ikkiyuzlamachilik, boshqalarni kamsitish shuhratparastlik, nomardlik, vijdotsizlik kabi eng yaramas illatlar ham tanqid qilinadi. Boybo'rining Bodom cho'ridan bo'lgan Ultontoz degan o'g'li

Alpomish Kashalga ketib, ko`p yillar daraksiz yo`qolgach, Ultontoz shoshqaloqlik bilan Qo`ng`irot elida o`zini podsho qilib ko`rsatib, darxol qullik xizmatini unutadi. O`zining otasi Boybo`rini xizmatkorga, uning xotinini cho`ri qilib qo`yadi. Qaldirg`ochoyimni Bobur qo`lida tuya boquvchi qilib qo`yadi. Alpomishning do`sti Qorajonni esa, Oltoqqa surgun qilib, o`sha erdan qimirlamaslikka majbur qiladi. Alpomishdan sag`ir qolgan Yodgorni xo`rlyadi va undan qutulish choralarini izlaydi. Chechasi Barchinoyga zo`rlik bilan sovchi yuborib, unga uylanmoqchi bo`ladi. Alpomish davridagi el boshliqlarining hammasini kamsitib, qullar xizmatiga yo`llaydi, shuhratparastlikka beriladi, hech kim bilan hisoblashmaydi.

“Alpomish” dostoni turkiy xalqlar o`rtasida keng tarqalgan va sevib kuylanadigan asarlaridan biri bo`lib qoldi. Bu doston qahramonlik va go`zallik, do`stlik va birodarlik, vafodorlik va sodiqlik haqidagi xalq ideallarini ifodalagan asar sifatida qimmatlidir. Shu bois keyinchalik uni mustaqil ishlash natijasida uning mazmunini, uslubi va yo`nalishiga yaqin dostonlar yaratildi. Jumladan, Ergash Jumanbulbul baxshi og`zidan yozib olingan “Yakka Ahmad” dostoni ham ana shunday bevosita “Alpomish” dostoni ta`sirida yaratilgan asar bo`lib, unda ham qahramonlik yo`nalishi ustun turadi. Bu doston mazmuni ham Do`rmon elining hokimlari, aka-uka Qoraxon va Sarixonlarning farzandsizlik dog`ida kuyganligini va aka-ukalarning: “agar bizlardan farzand bo`lsa... birovi qiz bo`lsa, birovi o`g`il bo`lsa, quda bo`laylik” – deb ahdlashganligini tasvir etishdan boshlanadi. So`ngra ularning farzandli bo`lishi, Qoraxonning o`g`liga Ahmadbek, Sarixonning qiziga Oqbilak deb ism qo`yilishi, qurg`oqchilik yili aka-ukalarning suv talashib, Sarixonning o`ziga tobe o`n ming uyli Do`rmon urug`i bilan Eronga ko`chib ketishi, Sarixonning Oqbilakka uylanmoqchi bo`lgan Eron shohi Kubodshoh bilan kelishmay qolishi, Aqbilakni shohdan bir yilga muhlat so`rab, Ahmadbekka xat yo`llashi, Ahmadbekning o`z yorini qutqarish uchun Eronga otlanishi va yo`ldagi mashaqqatli, g`aroyib sarguzashtlari hikoya qilinadi.

“Yakka Ahmad” dostonida yuksak muhabbat, insonparvalik, or-nomus va sadoqatlilik fazilatleri, xalqning insoniylik haqidagi orzulari bosh qahramon

Ahmadbek timsolida yaqqol ifodalangan: Ahmadbek oddiy, hokisor, pok, halol, oriyatli inson. U o`z yoriga sadoqatli, jonkuyar va vafodor oshiq. U Oqbilak-yorining xatini olib, uning hayoti xavf ostida qolganini bilgach, hech ikkilanmay, darrov Eronga safarga otlanadi. Otasining uning safarga chiqishiga qarshilik qilib, Do`rmon qizlari orasidan “olib beray Oqbilakdan yaxshisini”, - degan so`ziga shunday javob qiladi:

*...Mard yigitga davron ikki kelmasmi,*

*Mard o`lsa, xaqini dushman emasmi.*

*Yori ketsa dushmanlarning qo`liga,*

*O`ylagil, otajon, o`lim emasmi?!*

*Omin deng, otajon, yorga boraman.*

*Yor emasdur, nomus-orga boraman.*

“Yakka Ahmad” dostonida do`stlikning ulug`vorligi, uning beg`araz maslahatgo`yligi, qiynalganda rahnamo ekanligi g`oyat jozibali tasvirlangan. Buni biz dostonida Ahmadbek bilan Balx shaxzodasi Ernazar va qirq ayyorning biri Alimuhammad do`stligida ko`ramiz.

Ernazar qirq yigit bilan ovga chiqqanda, zangilar tutib olib, baland rabot ichida katta yakka mixga bog`lab tashlaydilar, yigitlarini g`orga qamab qo`yadilar. Ahmadbek ularni qutqarish uchun jasorat va mardlik ko`rsatadi. Ernazarning unga mening kasofatimga qolib o`lib ketish, bu ajalxona, jallodlar makoni, deb iltijo qilishiga qaramay, Ahmadbek, “mard o`g`lon hamrohini tashlab ketarmi?”-deb qo`liga isfaxon qilichini oladi va zangilarni o`ldirib, Ernazar hamda uning yigitlarini ozod qiladi.

Yordamga muhtoj hamrohi Ernazarga bo`lgan xayrihohligi, sadoqati unga zo`r kuch baxsh etadi, jasoratga, fidoiylik ko`rsatishga undaydi. Bu esa uni g`alabaga erishtiradi. Ana shundan keyin Ernazar bilan Ahmadbek do`st bo`lib qolib, Ernazar o`zining qirq yigiti bilan doim Ahmadbek xizmatida bo`lishga, uning g`anim dushmanlariga qarshi kurashishga qattiq ahd qiladi.

Ahdga vafo qilish, do`stlik burchini ado etish azal-azaldan xalq orasida e`zozlanib kelinayotgan an`anadir. Chunki inson va`dasiga vafo qilib, ahdini,

burchini bajarar ekan, shu xatti-harakatidan, avvalo o`zi faxrlanadi, el nazarida, do`stlari orasida e`tibori, izzat obro`yi oshadi. Ana shu hayotiy haqiqat dostonida ko`p ijobiy obrazlar orqalig`oyat jozibali tasvirlangan. Chunonchi, Ernazar o`z xaloskori Ahmadbek oldidagi burchini, sodiqlik ahdini bajarishga zo`r fidoiylilik, mardlik, xokisorlik, muruvvat ko`rsatadi. Avvalo Baxil pari unga Xonchorboqda Ahmadning olamdan o`tganligini, otasi Qoraxon, enasi va singlisi Qaldirg`ochoyim o`g`li dog`ida shu cho`llarda bo`zlab xoldan toyib yurganligini bildirgandan keyin, darhol o`zining qirq yigiti bilan otlanib, ularni izlab ketadi, hushidan ketib erda ag`anab yotgan Qoraxonga, uning xotini va qiziga madad beradi.

Ernazar Ahmadbekka qarshi jang e`lon qilgan Qubodshohning sonsiz lashkariga qarshi jangga otlanib, birinchi kuniyoq katta polvonlaridan etmishtasini o`ldirib, lashkarga hujum qiladi: "...Anda Ernazarxon saflarni buzib,, shovqin berib, yakka-tanho ot qo`ydi. (Dushmanning) bo`yni qaltirab, Ernazar mardga qarab: "Hov, bir odam shuytami, bu nima degan gap bo`ldi?"- deb qo`rqishib, bir xili aytadi: "Albatta, o`ziga ishonch bo`lmasa, shuncha qo`shinga bir o`zi ot qo`yami?" Anda Ernazarxon kechgacha yakka-tanho uch mingcha odamni o`ldirib, maydondan omon-eson chiqib, Ahmadbekka ta`zim qilib turdi..."

(Yakka Ahmad, 285-sahifa).

"Yakka Ahmad" dostonida ayollarga xos insoniy fazilatlar mehr bilan tasvirlangan. Ahmadbekning onasi onalik muhabbati bilan to`lib toshib, yolg`iz Ahmadbek o`g`lining o`lganligini eshitib, "oh tortib, suyaklarini qaqshatib, bandi buginini bo`shatib, ko`ngli buzilib, yoshi tizilib, o`g`lini izlab tog`u toshlar kezadi, singlisi Qaldirg`ochoyim akasining nobud bo`lganini bilib, piyodalab yuradi, ko`zdan yoshi bulutday tinmay yog`ib" bag`rin dog`lab safarda elib-yuguradi. Oqbilak o`z sevgilisiga vafodor, sadoqatli bo`lib, sevgi yo`lida oqillik, iroda, qat`iyat, tadbirkorlik bilan ish ko`radi. Oqbilak maktabda o`qigan chog`laridayoq o`z to`rasi Ahmadbekni sevgan, unga mehr qo`ygan.

Oqbilakning Ahmadbekka bo`lgan munosabati, ichki his-xayajon va qalb nidosi Boboayyorning yigirma yigiti bilan Sarixonni masxara qilib, ziyofatini eyish

uchun Ahmadbekdan “Sovchi” bo`lib kelganda yaqqol namoyon bo`ladi. Sarixon “quda”larni ochiq ko`ngil bilan qabul qilib, ziyofatga hozirlik ko`rayotgan bo`lsa ham, Oqbilak farosati va ziyrakligi bilan ularni turqi ssovuqligini, so`zlari hiyla ekanini va “dushman kishilar” ekanini darrov payqaydi. Ayniqsa Boboayyorning belidagi ro`molcha o`z to`rasiga o`zi tikib bergan sovg`asi ekanini tanigach, bu “quda” bo`lib kelgan kishilarning dushmanligiga, to`rasi armon bilan o`lib, ro`mol o`lja bo`lganini fahmlab etadi. Bu dushmanlarga to`rasining Bo`ztarlon oti o`lja bo`lganini ko`rgach, zor-zor yig`lab, otasini dushmanlardan o`ch olishga da`vat etadi. Oqbilakning o`z to`rasiga bo`lgan otashin muhabbati, mehri, sadoqati, qalb qo`ri uning alam-iztirob bilan aytgan ichki his-hayajoni yuqorida ravshan ifodalangan:

*Men ham endi sensiz turmam dunyoda,  
Kun-kunda alamim bo`lar ziyoda.  
Sen bo`lmasang shirin jonni netarman,  
Yoring ham ortingdan borar, shahzoda,  
Polvon to`ram, xaridorim sen eding,  
Qiziq savdoli bozorim sen eding,  
Bog`imda olma, anorim sen eding,  
Sog`insam, ko`rsam-xumorim sen eding...  
Ochilgan toza bahorim sen eding,  
Suyligim ham suyar yorim sen eding,  
Endi sensiz men turmasman dunyoda,  
Dunyoga mening turarim sen eding.*

(Yakka Ahmad, 262-263-sahifalar).

Demak, Oqbilak obrazida ifodalangan muhabbat tuyg`usi hozirgi yoshlarimiz uchun ham katta tarbiyaviy saboq bo`la oladi. Rus yozuvchisi Turgenev ta`kidlaganidek, “Sevgi o`limdan va o`lish dahshatlaridan kuchli, faqat sevgi bilan, faqat u tufayligina hayot bor va davom etadi”.

“Alpomish” va “Yakka Ahmad” dostonlarida ifodalangan to`y marosimlari bilan bog`liq urf-odat va udumlarni xuddi shu nuqtai nazardan ko`zdan kechirish maqsadga muvofiqdir.

Bu dostonlarda bir qancha to`y tantanalari tasvirlangan. Chunonchi, Boybo`ri va Boysari hamda Qoraxon va Sarixonlarning farzand ko`rishlari, Alpomishning etti yillik bandilikdan qaytib, davru davronga sazovor bo`lishi munosabati bilan o`tkazilgan va boshqa to`ylar aks ettirilgan. Misol uchun Alpomish va Barchinoyning nikoh to`yini ko`zdan kechiraylik.

Alpomish va Barchinoyning nikoh to`yi juda katta badiiy mahorat bilan tasvirlangan, o`zbeklarning nikoh to`ylariga oid qadimiy urf-odatlar, udumlar, diniy tushuncha bilan bog`liq rasm-rusumlar g`oyat mukammal ta`riflangan.

Inson hamma vaqt, har qanday sharoitda umid bilan yashaydi, ezgu, xayrli kunlarni orzu qiladi. O`tmishda ajdodlarimiz qiyinchiliklarga yo`liqqanda, boshiga musibat tushganda, g`am-anduhga botganda ham umidsizlikka tushmagan. “Noumid-shayton” deb qaragan, ollohning marhamati kengligiga umid bog`lab, xudoga iltijo qilgan, pirlarga,, eshonlarga, din peshvolariga sig`inib, xudodan madad so`rab berishni iltimos qilgan. “Alpomish” dostonida Shohimardon piriga ziyoratga borish ham ana shu udumning yaqqol ifodasidir.

Xalq orasida farzandlarning chaqaloqlik chog`laridayoq unashtirib, voyaga etganda bir-biri bilan turmush qurish orzusi beshkirti udumi amalga oshirilgan. Yaqin do`stlar, og`aynilar, urug`lar, kelajakda qudachilik, qarindoshchilik iplarini bog`lash orzusida shu udumga amal qilganlar.

Chaqaloqlik yillaridayoq shu udumlar bilan bog`lanagn Hakimbek, pir duosiga ko`ra, hech kim teng kelolmaydigan pahlavon alp, o`tda kuymas, suvda cho`kmas, o`q o`tmas, qilich chopmas mardonavor qahramon bo`lib etiladi. Alpomishning orzu-armoni ushalib, Barchin yoriga uylanadi.

“Alpomish” dostonida tasvirlanishicha, Alpomish bilan Barchinoyning nikoh to`yi oqsoqol va qarindoshlarni yig`ib maslahat oshi berishdan boshlanadi. Mehmonlar uchun oq o`tovlar yoptiriladi. So`ng qo`yu so`qimlar so`yiladi, o`choqlar kovlanib doshqozonlarda osh damlanib, “kunda hamma qolmay oshga

to`yadi`. Bir tomonda beshta-o`nta uloq tashlab, musobaqa boshlanadi, ikkinchi tomonda ko`pkari chopiladi, polvonlar kurash tushadi, merganlar yoyandozlik qiladi. Bu musobaqalarda g`olib kelganlar sovrin, sovg`a tanga-tilla oladi, chavandozlar katta unum qiladi.

To`yga kelgan mehmonlar sovg`a-salomlarini olib, uylariga jo`nab ketganidan keyin kuyv bilan kelinni nikohlash marosimlari boshlanadi. Avvalo kuyovjo`ralar “kuyovnavkar”lar bir o`tovda kuyovni o`rtaga olib, suhbat qurib o`tirganlarida, ayollar “to`qqiz tovoq qiladi”, ya`ni laganlarda to`qqiz xil taomlar tortib, ularni mehmon qiladi. Odatga ko`ra, kuyovjo`ralardan bo`shagan laganlarga, “tanga tilla solib” chiqariladi. Shundan keyin:

*O`rtaga o`t yoqib qizlar turadi,  
Salom berib bekni boshlab boradi,  
Shu zamonda uyga yaqin boradi,  
Uy ichinda katta odamlar turadi.  
Sanam qizlar bari yig`ilib qoladi,  
Barchinoyni bul o`rtaga oladi,  
Qadimgi rasm shunday bo`ladi,  
Barchinoyni qiz opqochdi qiladi.  
Ne kelinlar yurib qizni so`radi.  
Bir erdan bularni topib oladi...*

(“Alpomish”, 145-sahifa).

Bu o`rinda kelin bilan kuyovga nikoh marosimiga tayyorgarlik tasvirlanayapti. Mullaning ikki vakili qizning ixtiyori, ya`ni roziligini so`rab kelganda, u uyalib javob bermaydi. Shunda atrofdagi guvohlar “qiz so`ylatar” rasmiga ko`ra, uning ixtiyorini berishga da`vat etadilar va bu xizmati evaziga “ancha pul” oladilar. Shundan keyin Hakimbek guvohlari bilan kirib, mullaning bir qancha shartlarini qabul qilib, o`z roziligini beradi, mulla xutba o`qib, nikoh qiladi.

Shubhasiz, yuqorida tasvirlangan to`yga oid urf-odatlarining ancha qismi xozir unutilib ketgan. Chunki barcha urf-odatlar muayyan davrning, siyosiy va

iqtisodiy tuzumning samarasi bo`lib, ular ana shu davr va tuzumga moslashadi, uning talablariga javob beradi. O`sha davr kishilarining ma`naviy va madaniy kamolotiga xizmat qiladi. Davr va tuzum o`zgarishi bilan, odatda, o`z shakli va mazmuniga ko`ra, urf-odatlar ham o`zgaradi.

Chunonchi, dostonida ta`riflangan to`y ma`rakalari bilan hozir o`tkaziladigan to`y marosimlarini shu nuqtai nazardan taqqoslab ko`rsak, ajdodlarimizning ma`rakalar o`tkazishdagi boy va ibratli tajribalari unutilib borayotganiga guvoh bo`lamiz.

Shuni ham ta`kidlash lozimki, hozirgi to`ylarimizda, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitidagi qimmatchilik sharoitida aroq, konyak, pivo kabi kayf oshiradigan ichimliklar ichish odati ma`raka o`tkazuvchining butun jamg`armasini ketkazib, tinka-madorini quritadi. Chunonchi, O`zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol o`zbek millatining taqdiri haqida qayg`urib, uning jahon millatlari qatoridan munosib o`rin olishini orzu qilgan ekan, buning uchun to`ylarimizdagi ichkilikbozlik illatidan qutulish lozimligini, chunki bu illat oqibatida mayib-majruh go`daklar dunyoga kelishini kuyinib so`zlaydi: “Mastlik – bu ixtiyoriy jinnilik...Jinnidan sog` bola tug`ilganini ko`rganmisiz? Mana sizga oqibat”.

“Alpomish” va “Yakka Ahmad” dostonlarida to`y va ma`rakalar bilan bog`liq udumlardan tashqari, ajdodlarimizning bir-biriga bog`liqligi va umumiy an`analarini ifodalab kelgan yana ko`plab urf-odatlar ta`rif-tavsifini ko`rish mumkin. Chunonchi, “Alpomish” dostonida o`g`il uylantirish uchun xonadonlarga qiz izlab borish, uyda opa yoki aka bo`lsa, singlisini opasidan oldin turmushga bermaslik, ukani akadan oldin uylantirmaslik, sovchilikka borish, sovchilar istagi qanoatlantirilsa, ularga sarpo berish, oq ro`mol o`ratish kabi rasm-rusumlar va udumlar xalq turmushi, bir-biriga an`anaviy aloqasi, axloq-odob normalari bilan bog`lab tasvirlangan. Albatta, davrlar o`tishi bilan bu udumlarimizning ba`zilari unutilgan bo`lsa-da, ko`plari hamon yashab kelmoqda va an`anaviy aloqalarda ijtimoiy – iqtisodiy vazifalarni bajarib kelmoqda.

“Yakka Ahmad” dostonida eng chiroyli va go`zal tasvirlangan insoniy qadriyatlarimizdan yana biri ota-onaning farzandiga mehr-muhabbati, jon – jigarlik burchidir.

Umuman, biz ko`zdan kechirgan “Alpomish”, “Yakka Ahmad”, “Rustamxon”, “Murodxon”, “Shirin bilan Shakar” dostonlarida zo`r mahorat bilan tasvirlangan ijobiy obrazlar mardlik, jasurlik, qahramonlik, uddaburonlik, samimiylik, sodiqlik va vafodorlik timsoli ekanini ko`ramiz. Chunki, bu dostonlar, bir tomondan, haqsizlik, adolatsizlik, zulm, vahshat, xiyonatga qarshi kurashda, mehr-muhabbatni, ota-onalar bilan farzandlar o`rtasidagi shafqat-muruvvatni, xaq va haqiqatni ulug`lashda, adolat va haqiqatni engib chiqishiga ishonchni mustahkamlashda, yaxshi insoniy fazilatlarni egallash uchun intilishda katta ahamiyat kasb etib kelayotgan bo`lsa, ikkinchidan, ajdodlarimiz hayoti va qoniga singib ketgan urf-odatlarini o`zida qamrab kelgan boy va mukammal bir manba, muhim tarbiya vositasi hisoblanadi.

Dostonlarning tarbiyaviy va ma`rifiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, ularda pedagogikadagi tarbiya manbalari hamda vositalarning o`zaro ta`siri va aloqasi yaqqol namoyondir. Shu bois ularni to`plab, umumlashtirib, e`zozlab, targ`ib etib borish xozirgi yoshlarimiz- kelajak avlodimizning dunyoqarashini kengaytiradi, hayotni to`g`ri tushunishga o`rgatadi, uni o`z davriga munosib barkamol va olijanob insonga aylantiradi, ma`naviy sog`lom, madaniyatli, vijdonan va e`tiqodan pok, halol, sadoqatli, vafodor, insonparvar, vatanparvar, adolatparvar, dushmanga shafqatsiz, bilimdon, zukko, tadbirkor, aqlli, sahovatli odam qilib tarbiyalashga yordam beradi.

## **1.2. Kichik yoshdagi maktab o`quvchlarini manaviy-axloqiy tarbiyalashda xalq qo`shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati.**

O`zbek xalq og`zaki ijodida bolalar tarbiyasida qo`shiqlar salmoqli o`rin egallaydi. “Qo`shiq” atamasi turkiy “qo`shmoq” fe`lining o`zagidan yasalgan bo`lib, misraga misrani qo`shib kuylash, aytish ma`nolarni anglatadi va bu atama ikki ma`noda qo`llanib, keng manoda, (ya`ni) u og`zaki lirikani anglatadi va bu ma`no, ya`ni she`riyat, qasida atamasi, qo`shiq ma`nolari Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`atit turk” asarida ham qayd etilgan tor ma`noda qo`shiq atamasi og`zaki lirik turga mansub mustaqil janrni anglatadi.

Qo`shiqning mustaqil janr atamasi esa asarda ifodalangan mazmunga qo`shiqning ijro o`rni, tarzi va funksiyasiga qarab turli sifatlovchilar bilan birgalikda nomlanadi. Masalan, qo`shiq mehnat jarayonida ijro etilgan bo`lib mazmunan mehnat jarayoni bilan bog`liq bo`lsa bunday qo`shiqlar mehnat qo`shiqlari deb yuritiladi. Yoki qo`shiqda ishq-muhabbat kuylansa bunday qo`shiq lirik qo`shiqlar deyiladi va hakoza.

Xalq qo`shiqlarida voqelik yakka shaxsning kechinmalari orqali aks etadi. Biroq bu kechinmalar jamoaning his-tuyg`ulari bilan uyg`unlashgan bo`ladi. Chunki xalq og`zaki ijodida yakka shaxsning kechinmalarini jamoa kechinmalarini ifodashning bir vositasi bo`lgan. Shuning uchun xam xalq qo`shiqlarida mehnatkash xalqning ruxiy kechinmalari, dunyo qarashi to`laqonli aks etgan.

Qo`shiqlar xalq ma`naviyatining qudratini, mehnatkash omma irodasining bukulmasligini ifodalab, kishilarni ruhan tetiklikka jasoratga, mexnatsevarlikka va elparvarlikka, do`slikka, sevgida sadoqatga chorlaydi.

Xalq qo`shiqlari, asosan, barmoq vaznida yaratiladi. Masalan, Alisher Navoiy o`zining “Mezonul avzon” asarida qo`shiq janrlariga ham alohida to`xtalib o`tgan.

Uning ko`rsatib o`tishicha, qo`shiq kuylanish va o`yin vositasida ijro etilishi ham mo`ljanlangan xalq qo`shiqlarining aruz vazniga mos keluvchi turlari haqida to`xtalib, u ikki vaznni qayd etadi. Birinchisi, xalq qo`shiqlarida tabiiy tovushlar uyg`unlashishi tufayli vujudga kelgan vazn bo`lib, u arab xalq she`riyatdagi modidi muammoni solim (faylatun. Falotun faylatun, folun) ga to`g`ri keladi, ikkinchisi esa H.Bayqaro tomonidan isloh qilinib, u ko`pgina qo`shiqchilar orasida

keng tarqalgan bo`lib, u ramanli muammoni makruf (faylatun, folotun faylatun folun) vaznida iborat.

O`zbek xalq qo`shiqlari janri mansubiyati, yaratilishi davri, ijro o`zini turi kabilari jihatidan xilma-xillik kasb etadi. Bu jihatdan xalq qo`shiqlari marosimi va marosimga aloqasiz qo`shiqlarga bo`linadi. To`y va boshqa marosimlarda ijro etiladigan yoki motam yig`inlari marosim qo`shiqlarini tashkil etadi.

Marosimga aloqasiz qo`shiqlarga esa mehnat hamda lirik qo`shiqlarga mansub, yana beshik qo`shiqlari ham bor.

Bola tug`ilishidan tili so`zga o`rganib yurib ketguncha qadar kattalar ularga alla aytib beradilar, onalar-tarbiyachlar bola bilan turil xil mashg`ulotlar o`tkazadilar, turmushda bola uchun zarur bo`lgan dastlabki hayotiy qoidalarni o`rgatadilar. Bolalar uchun ana shu xil aytilib yurgan, bir ikki emas, barcha onalar og`zida tarqalgan fol`klorning bu janrini beshik qo`shiqlari deganlar. O`zbek xalqining uzoq davrlaridan buyon yaratgan bola tarbiyasi haqidagi pedagogik tajribasi jismoniy tarbiyasida beqiyosi buyukdir.

Garchi beshik qo`shiqlari qadimdan bor bo`lsalar ham, ularni xalq og`zaki ijodining janri sifatida to`plash va ilmiy jihatdan o`rganish bizda asrimizning yigirmanchi yillaridagina boshlanadi.

Beshik qo`shiqlari davri bolalar fol`klarini yuqorida aytganimizdek, birmuncha kengroq doirada: allalar, ovunchoqlar, ibrat-o`git so`zlari misolida ko`rib chiqish mumkin.

Onalarning farzandiga, beshik yonida aytgan lirik kuylari o`zbeklarda ko`pincha, “alla” nomi bilan yuritilgan. Allaning qadim vaqtlarda “balu-balu” deyishi ham ma`lum. A.Navoiy esa “alla” aytishni “navoro`” deb atadi.

Ko`zining nozi eldan eshitib uyqu,

Anga uyqu keturmakka navog`o`

A.A.Ibn Sino “alla”larning bola tarbiyasidagi rolini aytib, bu masalada faqat jismoniygina emas ruhiy xolati ham diqqatimizni tortadi: “Bolaning mijozini kuchaytirimoq uchun, unga ikki narsani qo`llamoq kerak. Biri – bolani sekin-asta

tarbiyalash, ikkinchisi – uni uxlatish uchun odat bo`lib qolgan musiqa va allalashdir.

Allalar poetik jihatdan go`zal onalarning ichki tuyg`ularining bayoni sifatida ham xalq ijodining bo`lak turlaridan ajralib turadi.

Xalq orasida beshik qo`shiqlari o`zining son jihatidan ko`pligi bilan ko`zga tashlanadi. Ko`pgina kitoblarda allaning namunalari keltirilgan:

Alla bolam, alla  
Jonim bolam, alla  
Ikki ko`zim, alla  
Shirin so`zim, alla  
Alla qilsin, bolamo  
Uyquda orom olsin-o  
Alla, alla deganda  
Jimgina uxlab qolsin  
Alla bolam, alla  
Ikki ko`zim, alla

Ko`p bolalik onalarning hurmatda bo`lishi qadim zamonlardan to bizning kunlarimizgacha sharaflı an`ana bo`lib keladi. Serfarzandlik o`zbeklarning qadimiy udum hisoblanadi. Xalq ijodining deyarli barcha turlarida qo`shiqlar, ertaklar, xatto dostonlarning mavzulari shunga bag`ishlangandir.

Farzandlik uyiga yog`ar rahmat alla,  
Farzansizlik chekar zahmat alla  
Farzandlikning uyin ko`rsang gulison, alla  
Befarzandning uyin ko`rsang cho`lison, alla...

O`tmishda yaratilib og`izdan-og`izga o`tib kelgan qo`shiqlarda onalarning qayg`u alam yoshlari bilan qo`shilib yo`g`rilib ketgan edi.

Davr o`tishi, zamonlarning o`zgarishi, jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy o`zgarishlar xalq og`zaki ijodiga ta`sir etmay qolmaydi. Eng hozir javob janr-xalq qo`shiqlari turmushdagi bu o`zgarishlarni tezda aks ettiradi. Xususan, yangi davrda

har tomonlama g`amho`rlik bilan o`rab olingan onalarning allalari mazmunan juda o`zgarib ketdi.

“Beshik qo`shiqlari boy ma'lumotlar beradi. Bu qo`shiqlar xilma-xil va nozik ko`ngil hislarini, kishilar-axvolining ta'sirini ko`z oldimizda gavdalantirib, ularni ijod etgan kishilarning milliy hususiyatlarini, o`ziga xos belgilarini saqlab qoladilar”.

Xalq qo`shiqlaridan yana biri mehnat qo`shiqlaridir. Qadimgi ajdodlarimizning mehnat faoliyatida muayyan mehnat qilishga mos keluvchi oddiy qichqiriqlardan tortib bir daraja yuqori musiqaga ega bo`lgan she'riy parchalargacha o`z ichiga oladi. Ana shu oddiy xitob hamda she'riy belgilar mehnat qo`shiqlarining asosini tashkil etadi. Chunki ular ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelib ana shu jarayonda taraqqiy etgan.

Mehnat qo`shiqlari rang-barang janrlardan tashkil topgan bo`lib, ularni bir turkum doirasida ushlab turuvchi bir necha xususiyatlar mavjud. Ulardan biri barcha janrlarning bevosita u yoki bu mehnat turi bilan bog`liqligi hisoblanadi. Masalan: qo`sh xaydashda aytiladigan qo`shiqlarni g`alla yanchish paytida ijro etib bo`lmaydi. Mehnat qo`shiqlariga xos xususiyatlardan biri ularning engil ritimga, qofiyalanish tarziga va poetik uslubiga egaligida ko`zga tashlanadi. Shuning uchun ularda murakkab poetik ramzlar, majoziy obraz va ko`chimlar uchramaydi.

Xullas, yuqorida ko`rsatilgan xususiyatlar mehnat qo`shiqlariga ijro o`rni va tarzi, musiqiy tabiati va poetik xususiyatlariga qarab musaqil janrlar sisemasidan tarkib topgan xalq poeziyasining qadimiy turkumi sifatida qarash xuquqini beradi.

O`zbek mehnat qo`shiqlarini quyidagicha guruxlarga ajratib o`rganish lozim.  
Bular:

Dehqonchilik bilan bog`liq qo`shiqlar.

Chorvachilik bilan aloqador qo`shiqlar.

Xunarmandchilik bilan bog`liq qo`shiqlar.

O`zbek xalq og`zaki ijodida ovchilik, savdo-sotiq kabi mehnat turlari bilan bog`liq qo`shiqlar xozir saqlanib qolmagan. Shuning uchun ham aytilgan mehnat turi bilan bog`liq qo`shiqlarga tasnifdan o`rin berilmaydi.

O`rta Osiyo xalqlari qadim-qadimdan dexqonchilik bilan shug`ullanib keladi. Binobarin, mehnatning bu turi bilan bog`liq qo`shiqlar rang-barang bo`lib, ulardan bizga qadar “Qo`sh qo`shiqlar”, “O`rim qo`shiqlar”, “Xirmon qo`shiqlari kabi janrlargina etib kelgan. Bevosita dexqonning mehnat jarayoni bilan bog`liq bo`lmasa ham, biroq uning mehnat samarasi bo`lgan narsalar bilan aloqador qo`shiqlar ham mehnat qo`shiqlari doirasida olib qaraladi. Masalan, g`allani yorg`ichoq yordamida un qilish jarayonida ijro etiluvchi qo`shiqlar “yorg`ichoq qo`shiqlari” atamasi bilan daxqonchilik qo`shiqlari doirasida olib qaraldi.

Qo`sh qo`shiqlar. Dexqon mehnati erta bahorda er haydashdan boshlanadi. Er haydash esa og`ir jismoniy mehnat bo`lib, bunda tinkani quritadigan mehnat payitida dexqon qo`shiq kuylab, o`zini ovutadigan va shu orqali mehnatning og`ir azobini unutgan.

Qo`sh qo`shiqlarida ish hayvonlariga murakkab, qo`sh tortayotgan hayvonlar tilidan og`ir mehnatdan qilingan shikoyat etakchilik qilgan. Chunki og`ir mehnatdan tengsizlikdan shikoyatning hayvonlar tilidan dard-alamlarni yorqinroq ifodalashning qulay usuli edi:

Shoxlarim bor gaz-gaz quloch,

Ustida o`ynar qaldirg`och

Xayday desam qornim och.

Men qo`shga qanday yarayin.

Xo`kiz tilidan aytilgan bu shikoyat hosil etishtirib, o`zi yarim och, yarim to`q hayot kechiruvchi dexqon hayotining real tasavvur qilishga xizmat qiladi. Demak, qo`shiqdagi hayvonning ochlik va og`ir mehnatdan qilgan shikoyati dexqonning og`ir, mashaqqatli hayotini bayon qilishning bir vositasidir.

O`roq o`rmoq olmoq-solmoq

Qo`sh haydamoq bormoq-kelmoq

Hammasidan qiyin ekan

Ey ho`kizim, ro`zg`or qurmoq.

Darxaqiqat, qo`sh haydash, o`roq o`rish qay darajada og`ir bo`lmasin, agar ro`zg`or but, qorin to`q bo`lsa, inson ularning barchasiga chiday oladi. Aks holda hech narsa tatimaydi.

Hozirgi kunda texnika rivojlanib, dexqon og`ir qo`l mehnatidan ozod bo`ldi. Dexqon mehnatidan qo`shning chiqib ketishi bevosita qo`sh qo`shiqlarning yaratilishi va jonli yashashini pasaytirdi. Hozir esa qo`sh qo`shiqlari deyarli unutilib borilmoqda.

O`rim qo`shiqlari. Ilgari payitda aytilgan g`alla qo`lda o`rib olingan. Bunday og`ir va ayni paytda maroqli mehnat paytda o`roqchilar o`zlarini ovutish uchun maxsus qo`shiqlar to`qib kuylaganlar. Ana shunday qo`shiqlar shartli ravishda o`rim qo`shiqlari deb yuritiladi.

O`rim qo`shiqlari yakka shaxs yoki ko`pchilik tomonidan ijro etilgan. Ulardan bahorning injiq, yozning shavfqatsiz issiq kezlarida qilingan mehnatning samara berganligidan quvongan dexqonning ko`tarinki ruhi, etilgan hosilni tezroq yig`ib olishga bo`lgan kuchli ishtiyoqi tarannum etiladi:

O`rog`im olmos,

O`rishdan tolmas.

Sira ham tolmas ,

O`rmasam bo`lmas.

Hozirgi payitda g`alla kombayinlar vositasida o`rilganligi sababli o`rim qo`shiqlarini ijro etishga, ularning yaratilishi va jonli ijrosiga hojat qolmadi. Natijada, ular asta-sekin unutilib borilmoqda.

Yorg`ichoq qo`shiqlari. Yorg`ichoq aylantirish og`ir va unumsiz qo`l mehnati bo`lib, u o`zining tarixiy ildizlari bilan suv yoki shamol tegirmonlari kashf etilmagan davrlarda vujudga kelgan. Keyinchalik u tog`lik joylarda yashovchi

chorvadorlar, shuningdek, cho'l va dasht zonalarida kun kechiruvchi dexqonlar turmushda keng qo'llanila boshlangan.

Yorg'ichoq tortmas edim,  
Och qolganimdan tortarman.  
Sabzavon aytmas edim,  
Kuyganlarimdan aytaman.

Sog'im qo'shiqlar. Sigir, qo'y, echki, biya, tuyalarni sog'ishda erkalash oxangida aytiladigan qo'shiqlarni sog'im qo'shiqlari deyiladi.

Sigir sog'ish bilan bog'liq qo'shiqlar- "ho'sh-ho'sh" yoki "xo'shim" deyiladi. Bunday qo'shiqlar tovishi sigirga murojat shaklida to'qilgan bo'lib, sutli sigir mehnat ahli ro'zg'orini to'kin qiladigan xazina deb ardoqlanadi, sog'ish paytida silab-siypab aytilgan qo'shiq govmishni iyydiradi:

Saralar eding otingni, ho'sh-ho'sh,  
Iyib bergin sutingni, ho'sh-ho'sh,  
Olmazor buloq o'ting bor, ho'sh-ho'sh,  
Oqar buloq suting bor, ho'sh-ho'sh,  
Turaqolgin jonvor,  
Iya qolgin jonvor...

Hunarmandchilik qo'shiqlari. O'zbek xalq qo'shiqlari orasida hunarmanchilik qo'shiqlari salmoqli o'rin egallaydi. Bunday qo'shiqlarda hunarmand yoki kosibning uzoq tarixiy sharoitlaridagi moddiy-ma'naviy hayoti, ichki ruhi kayfiyati, ibtidoiy ish qurollari tufayli tug'ilgan mehnat mashaqati bilan qo'shilib tasvirlanadi:

Bo'z to'qiyimiz qirog'in o'xshatib  
Moki otaman dasinamni qaqshatib,  
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib,  
Nafisdan o'xshagan bo'zim yaxshidir.

Bo'zchi aytgan qo'shiqlarida jafoli, unumsiz mehnat bo'zchilik hunarining g'oyat og'irligi, buning usiga to'qigan bo'zi sotilmay, bozori kasod bo'lib,

oilasidagi muxtojlik arimaganligi singari asoslar ravshan ko`rinib turadi. Xalqda “bo`zchi belboqqa yolchimas” degan maqol behuda bo`lmagan.

Mehnat jarayonini aks ettiradigan an’anaviy qo`shiqlarning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, bajariladigan mehnat qo`shiq oxangi bilan ichki bog`liqlikka ega, mehnat ritmi qo`shiq ohangini belgilaydi. Bu kabi qo`shiqlarda xalq ommasining halol mehnat qilib yashashi, tiriklik uchun kurashi, mehnatga buyuk muhabbati uning azaliy odati ekanligi chuqur hayotiy dalillarda ko`rsatiladi.

Insonning yashash va hayot kechirish tarsi, yilning to`rt fasli, mehnat oylari, bayramlar, urf-odatlar, marosimlar, mavsumiy ish-harakatlar bilan bog`liq ravishda juda ko`p qo`shiqlar yaratilgan.

Yo, ramazon. Turli urf-odatlar, marosim va irimlar bilan bog`liq bir qancha qo`shiqlar yaratilganki, bunga “Yo, ramazon”, “Barot keldi”, “Safar qochdi”, “Sus xotin”, “Boychechak” kabilarni ko`rsatish mumkin. Shulardan “Yo, ramazon” ramazon oyida bolalarning hovlima-hovli yurib aytadigan qo`shiqlari edi. Sirtan qaraganda “Yo, ramazon” diniy mazmundagi qo`shiqlarga o`xshasda, ularda xonadon egasiga farzand ko`rish haqida istaklar, ularning saxiy bo`lishi yoki baxilligi kabi ko`rinishlar ustunlik qiladilar.

Sust xotin. Qurg`oqchilik munosabati bilan yomg`ir chaqirish marosimda aytiladigan “Sus xotin”, “Yomg`ir talab” qo`shiqlari turli irimlar, qadimdan qolgan animistik tushunchalar bilan bog`langan. Qurg`oqchilik, suv tanqis bo`lgan davrlarda dala-dashtlarda yashagan dexqonlar tabiatga iltijo qilib, mo`l xosil bo`lishini orzu qilgan. Bu narsa qo`shiqda o`z ifodasini topgan:

Sus xotin- sulton xotin

Ko`lankasi maydon xotin

Suv xotin-suvsiz xotin

Ko`ylaklari bo`z xotin.

Hosil mol bo`sin, suv xotin,

Dexqonning uyi to`lsin, suv xotin.

Kazzobning uyi kuysin, suv xotin,

Suv xotin- suvsiz xotin.  
Havoni yog`dirgin, suv xotin,  
Bug`doyni bo`ldirgin suv xotin.  
Elni to`ydirgin, suv xotin.  
Suv xotin-sulton xotin.

To`y qo`shiqlari. To`y- juda qadim zamonlardan beri kishilar hayotida muhim voqea bo`lib kelgan. Xalqning ma`naviy boyligi to`y-tomoshalarda namoyon bo`ladi. To`y –marosimlari uylanish to`yi, xatna to`yi, yosh to`yi singari xilma-xil bo`lganidek, uning qo`shiqlari ham turli-tumandir.

“Yor-yorlar”. Qiz uzatar kechasida aytiladigan qo`shiqlardan biri “yor-yor” lardir. Qo`shiqda katta umidlar bilan o`z qizini voyaga etkazgan, lekin shafqatsiz feodalizm davri qonunlari tufayli erki, xuquqi poymol bo`lgan orzulari ushalmagan bechora, mushtipar onaning g`amgin, mungli nolalari, etishmovchilik, kamchiliklar bilan ne xasratda uzatgan qizining ertangi taqdiri istirobga soladi.

Tokchadagi qaychini  
Zangi bosibdi, yor-yor.  
Kelin oyim onasini  
G`am bosibdi yor-yor.

## I Bob bo'yicha xulosa

O'zbek xalqining va boshqa xalqlarning uzoq yillar bola tarbiyasida o'rttirgan tajribasi kuchli qudratga egaligi va xalqchilligini bilgan o'tmish mutafakkirlar, shoir va olimlar o'z faoliyatlarida unga amal qildilar. Ular xalq urf-odatini va an'analarini o'rganib, o'tmish avlodlar donishmandligi kelgusi avlodlar uchun ko'zgudir degan xulosaga keldilar va ularni tashviq etdilar.

Xalq pedagogikasining og'zaki ravishda avloddan – avlodga o'tib kelayotgan yodgorliklarida (maqol, ertak, topishmoq, rivoyat, afsona va dostonlarida) moddiy dunyoning moddiyligi, hayotda voqea va xodislarning sodir bo'lishi ularning sabab va oqibatlari, tabiat va jamiyat hodisalarining bir- biriga bog'liqligi, shakl va mazmun birligi, bola tarbiyasi havqidagi tasavvuri ifodalangan.

Xalq pedagogikasi ana shu xususiyatlari bilan ilmiy pedagogikaning muxim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning ilmiy pedagogikadan farqi shundaki, u tarixiy, mantiqiy va qurilish jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega.

Hamma xalqlarda o'tmishda oilada turli mavzudagi ertak, doston, latifa, hikmatlardan bolalar tarbiyasida keng foydalanilgan. Ota-onalarning tunda uyqu oldidan aytib bergan ertaklaridan bolalari ruhiy oziq olgan, hayotdagi va odamlardagi yaxshi fazilat va yomon xislatlarni bilib olishgan, hurmat va muruvvat, adolat kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishgan. Natijada butun hayotlari davomida ertaklar ularning doimiy hamroxi bo'lgan, ular uchun hayot darsligi bo'lib xizmat qilgan va hozir xam xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, har bir xalq pedagogikasi boshqa xalqlar pedagogikasi bilan bog'liq holda yaratilgan. Shu sababli ham ularning ijtimoiy – siyosiy, madaniy hayotlari, tarixiy taqdirlari ifodalangan urf- odatlari, an'analarida o'xshashlik mavjuddir. Bu o'xshashlik ularning mehnat, nafosat, aqliy va axloqiy tarbiya sohasida qilgan ishlarida yorqin ko'rinadi.

## **II BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy – axloqiy tarbiya berishda xalq pedagogikasi manbaalaridan foydalanishning shakl va usullari.**

### **2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy – axloqiy tarbiya berishda xalq ertaklaridan foydalanish.**

Insoniyat taraqqiyotida avloddan-avlodga ko'chib, tarix sinovlaridan o'tib kelayotgan umuminsoniy va madaniy-ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar, axloqiy omillar va urf-odatlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki ular xalqning jamoa ijodkorligining mahsuli bo'lib, insonlarning talab-ehtiyojlari zahirida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, dunyoqarashi, tafakkuri, orzu-armonlari, e'tiqodi va axloq-odob qoidalarini o'zida mujassam etgan, jamiyatning ma'naviy-madaniy rivojiga katta hissa qo'shuvchi moddiy va ma'naviy boyligi bo'lgan.

Xalqning bu boyligi, birinchi navbatda asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari – qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql va dostonlarda o'z aksini topgan. Chunki ularda xalqning pedagogik g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy-axloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda aniq, ibratli va qiziqarli tasvirlangan, hikoya qilingan voqea-hodisalarda o'rnak bo'ladigan o'gitlar berilgan, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an'analari, urf-odatlari va falsafasi bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodi asarlari badiiy jihatdan yuksak takomilga ega ekanligi, tinglovchilarning, ayniqsa, yosh bolalarning oson tushunishiga, idrok etishiga qulayligi tufayli xalq pedagogikasining eng muhim, ko'p qamrovli va tarbiyaviy ta'siri g'oyat kuchli tarmog'i hisoblanadi. Chunonchi, maqollar xalqning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida vujudga kelgan fikrlarni lo'nda, aniq va obrazli ifodalovchi bir vosita bo'lsa, naqlar hayotiy tajribalari, nasihatomuz fikrlari, donishmandligi, axloq qoidalariva falsafasini sodda syujet, ibratli mazmunda ifodalovchi hikoyalardir. Ertaklar esa falsafa, axloq, din, badiiy to'qima va hayolotga asoslangan xalq donishmandligining mahsulidir. Shu bois ertakdagi to'qima voqea-hodisalar silsilasida xalqning ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlari, axloq-odobning o'ziga xos milliy xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Rivoyatlar ham asosan ijtimoiy-maishiy voqealarni, tarixiy shaxs va hodisalarni uydirmalar vositasida bayon etuvchi kichik xajmli hikoyalar bo`lib, ularda lutf va nazokat, aql va idrok, ishq va vafo, adolat va sahovat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik madh etiladi, zulm va zo`rlilik, xaqizlik va bosqinchilik qoralanadi.

Ayniqsa, xalq og`zaki ijodining yirik namunasi hisoblangan ertaklarda umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo`lib, ularda xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlar, marosimlari, an`analari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo`lidagi mardonavor kurashlari, vatanparvarligi, sevgi-muhabbatga sadoqati, yaqqol ifodalangan.

O`zbek xalqining va boshqa xalqlarning uzoq yillar bola tarbiyasida orttirgan tajribasi kuchli qudratga egaligi va xalqchilligini bilgan o`tmish mutafakkirlar, shoir va olimlar o`z faoliyatlarida unga amal qildilar. Ular xalq urf-odati va an`analarini o`rganib, o`tmish avlodlar donishmandligi kelgusi avlodlar uchun ko`zgudir degan xulosaga keldilar va ularni tashviq etdilar.

Xalq pedagogikasining og`zaki ravishda avloddan – avlodga o`tib kelayotgan yodgorliklarida (maqol, ertak, topishmoq, rivoyat, afsona va dostonlarida) moddiy dunyoning moddiyligi, hayotda voqea va xodislarning sodir bo`lishi ularning sabab va oqibatlari, tabiat va jamiyat hodisalarining bir- biriga bog`liqligi, shakl va mazmun birligi, bola tarbiyasi havqidagi tasavvuri ifodalangan.

Xalq pedagogikasi ana shu xususiyatlari bilan ilmiy pedagogikaning muxim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning ilmiy pedagogikadan farqi shundaki, u tarixiy, mantiqiy va qurilish jihatidan o`ziga xos xususiyatga ega.

Hamma xalqlarda o`tmishda oilada turli mavzudagi ertak, doston, latifa, hikmatlardan bolalar tarbiyasida keng foydalanilgan. Ota- onalarning tunda uyqu oldidan aytib bergan ertaklaridan bolalari ruhiy oziq olgan, hayotdagi va odamlardagi yaxshi fazilat va yomon xislatlarni bilib olishgan, hurmat va muruvvat, adolat kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo`lishgan. Natijada butun hayotlari davomida ertaklar ularning doimiy hamroxi bo`lgan, ular uchun hayot darsligi bo`lib xizmat qilgan va hozir xam xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, har bir xalq pedagogikasi boshqa xalqlar pedagogikasi bilan bog'liq holda yaratilgan. Shu sababli ham ularning ijtimoiy – siyosiy, madaniy hayotlari, tarixiy taqdirlari ifodalangan urf- odatlari, an'analarida o'xshashlik mavjuddir. Bu o'xshashlik ularning mehnat, nafosat, aqliy va axloqiy tarbiya sohasida qilgan ishlarida yorqin ko'rinadi.

Xalq ertaklarida axloqiy tarbiyaning uzviyligi to'g'risida fikr yuritilar ekan shu o'rinda axloqiy tarbiyaga ta'rif berib o'tish joizdir.

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri xisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish – turishi, tartib qoidalarining yig'indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatida axloq namoyon bo'ladi. Inson hatti- harakatidagi, xulqidagi yo'nalishlar, eng muxim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq qoidasining asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'rta Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida boy an'anaga ega. Axloqqa oid fikrlari "Avesto" diniy axloqiy kitobida, qadimgi turk bitiklarida va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogi kasida, diniy-falsafiy risolalarda, allomalar meroslarida axloqqa keng o'rin berilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida "Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixolik bilan munosabatda bo'lish, o'zgarar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori xisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr- muxabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat- ehtirom – O'zbekiston axolisiga xos fazilatdir, - deb ma'naviyatning asosi xisoblangan axloqqa alohida e'tibor beradi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiy – etnografik jihatdan yaqin aloqada bo'lganlar. Etnografik pedagogikada ilmiy pedagogikaning uzviy qismi sifatida bir xalqning ma'naviy madaniyati, urf- odatlari, an'analariga xos xususiyatlarining majmuidir. U o'z vazifasiga ko'ra har bir xalqning bola tarbiyasi haqidagi fikri va tajribalarini

o`rganadi. Shu boisdan ham axloq har bir millatning, har bir elning mutaffakirlarining diqqat- e`tiborida bo`lgan va ular o`zlari yaratgan ertak, doston, maqol, matal, rivoyat, afsonalarida axloqiy tarbiyaga aloxida yondashganligini ko`ramiz.

Ozarbayjon ma`rifatparvari Mirza Fatali Oxundov axloq tarbiyasi to`g`risida quyidagi fikrlarni bayon etadi, - axloq shaxs ma`naviyatini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Insonning umri uning farzandarida davom etadi. Mehr – oqibat, sadoqat, samimiylik, izzat- hurmat, andishalik, vafo- muhabbat, halollik, odamiylik singari yaxshi fazilatlarni farzandlar davom ettiradilar. Bu xislatlar tarbiya orqali kamol topadi. Shuning uchun ham bu xislatlarni oilada shakllantirish muhim ahamiyatga ega”.Ozarbayjon ma`rifatparvari Mirza Fatali Oxundov odob- axloq tarbiyasi to`g`risida fikr yuritib quyidagi xalq ertagini keltirib o`tadi.

Qadimda bir podsho darvish kiyimini kiyib, yaxshi odob egasi bo`lgan insonlarni qidirib birovning eshigiga boribdi. U eshikni chaqirib bir burda non so`rabdi. Eshikdan bir qizcha chiqib:

- Non yo`q, - debdi.

- O`tinmi yoki boshqa biror yoqishga arzigulik narsa topiladimi?

- Yo`q.

- Ozgina tuz- chi?

- Yo`q.

- Bir ko`zachada suv olib chiq, bo`lmasa.

- Suv ham yo`q.

- Onang qaerda?

- Qarindoshimiznikiga ta`ziya bildirgani ketgan.

- Ahvollaring shu bo`lsa, qarindoshlaring sizlarnikiga ta`ziya bildirgani kelsa arzirdi, - deb yo`lida davom etibdi darvish podsho.

O`zbek xalqi singari ozarbayjon xalqlarida ham kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish azaliy odatlardan xisoblangan. Ozarbayjonlarda ham huddi o`zbeklarniki singari eshikni chaqirib kelgan mexmonmi, begona kishimi, undan qat`iy nazar odamgarchilik nuqtai nazardan shirin muomala qilingan. Kelgan

mehmonni chorpoyaga o`tkazib, oldiga xonadon axli birinchi bo`lib bir kosada qatiq qo`ygan. Qatiq qo`yishidan maqsad xonadon axlining mehmonga xurmati yuksak ekanligini belgisi xisoblangan.

Mehmon kelsa to`riga degan maqol ozarbayjon xalqlari singari o`zbeklarda ham alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan.

Xalq pedagogikasida axloq tarbiya alohida o`rinni egallaydi. Har bir xalq, elat, jumladan, o`zbek xalqi o`ziga xos axloq qonun- qoidalarini yaratdi, insoniylik ideali axloq qonuniyatining asosi hisoblanadi, insonga bo`lgan munosabati “Olim bo`lish oson, odam bo`lish qiyin” maqolida yorqin ifodalanadi. Xalq tasavvurida olim bo`lishga nisbatan, haqiqiy odam bo`lish mushkuldir. Shu sababli ham, qadimdan insoniylik yosh avlodni go`zal axloqli qilib tarbiyalashga asosiy mezon, tarbiyaning asosi sifatida hozir ham davom ettirilmoqda.

“Insoniy”lik o`z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya`ni odamlar o`rtasida o`zaro yaxshi munosabatda bo`lishni, o`zaro do`stlikni (“Kuchli bo`lay desang, do`stlar orttir”), ota- onaga sadoqatlilikni (“Ota oldidan o`tma, odob oldidan ketma”), Vatanga va elga sodiqlikni:

Vatan uchun o`lmoq ham sharaf. Vatani borning, baxti bor.

El senga cho`rsa qo`l, Unga doim sodiq bo`l. Elga xizmat, oliy himmat. . .

Mehnatsevrlikni (“Mehnat - baxt keltirar,”Mehnat boylik”, “Mehnating ziynating”), diyonatlilikni (“Dili pokning ishi pok”, “Halol ishla, halol tishla”, “Asl odam hech o`lmas”), odoblilikni (“Odobli bola elga manzur”, “Odobning boshi til”, “Salom ham farz, alik ham – farz”) va boshqa ijobiy fazilatlarni qamrab oladi. Xalqimiz bolalarning yoshlikdan shu go`zal fazilatlarni egallab olishlariga ahamiyat berib keldi, xalq o`zi yartagan maqollarida o`zining vatanga, o`zi tug`ilib o`sgan joyga bo`lgan cheksiz muhabbatini va yosh avlod egallashi zarur bo`lgan faziltalarni ifodaladi. O`zbek xalqi singari boshqa xalqlar ham o`z vatanida yashashni haqiqiy baxt deb bildi, Vatanni ona timsolida tasavvur etdi.

Ona yurtning omon bo`lsa,

Rangi – ro`ying somon bo`lmas .

Ona yurtning - oltin beshiging.

Ona erning tuprog`i – ona sutidek aziz.

Turli xalqlarning pedagogikasiga nazar tashlar ekanmiz ularning har birida yosh avlodni kelajakda yaxshi insonlar bo`lib etishishga da`vat etilganligining guvohi bo`lamiz. O`tmishda ota- bobolarimiz tarbiyada nasihat, tushuntirish, rag`batlantirish, maqtash, namuna ko`rsatitsh, tanbeh berish, taqiqlash, majbur qilish, po`pisa qilish, qo`rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Jamoa a`zolari bu usullarni qo`llashda axloq qoidalariga suyangan holda, qilgan ishi, hatti-harakatining to`g`ri yoki noto`g`riligi haqida bolada ishonch xosil qilishga harakat qilganlar. Unga axloqlilik va axloqsizlik, odillik va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning ma`nosini tushuntirganlar. Bu tartib tarbiyada asosiy qoida hisoblangan.

Ota- onalar bolalariga axloq qoidalarini tushuntirishda “Kamtarlik ham bir xislat”, “ Odob kishining zebu- ziynati”, “Eshik ochiq bo`lsa ham so`rab kir” maqollaridan va “Maqtanchoq quyon”, “Maqtanchoq tulki”, “Uch og`a ini botirlar”, “Zumrad bilan Qimmat”, “Ur to`qmoq”, “Echki bolalari va bo`ri”. “Egri bilan To`g`ri”, “Iskandar podshoning shohi bor”, “Ovchi bobo”, “Maqtanchoq vazir”, “Odobli sichqoncha” kabi bir qator ertaklardan keng foydalanganligini ko`rishimiz mumkin.

Yoshi o`tgan, katta hayotiy tajribaga ega bo`lgan kishilar hamisha rostgo`ylik bilan ish ko`rishga harakat qiladilar. Abdulla Avloniy boboning «Behi novdasi» ertagida rostgo`y, keyinni o`ylab ish ko`radigan muallim haqida gap ketadi. U o`z shogirdini kelajakda o`qimishli, halol, pok, saxiy, rostgo`y bo`lib kamol topishini o`ylab ba`zan kaltaklab turar ekan. Ertakda rostgo`y muallim donolik va tadbirkorlik bilan o`z shogirdini yana bir bor mag`lub qiladi.

- Samoniylar sulolasining podsholaridan biri bo`lgan Amir Nasr Ahmadni Somoniylarning muallimi yoshligidan ta`lim berayotib, juda ko`p marta adab cho`p bilan urgan ekan. Amir Nasr: «Biror kun sulton bo`lsam jazosini berarman», deb ko`ngliga tugib qo`ygan ekan.

Bir kecha yoshlik chog`larini eslab yotganida muallimi yodiga tushibdi va unga qanday jazo berish kerakligini tun bo`yi o`ylab chiqibdi. Ertalab g`ulomlaridan birigi chorbog`dan behi daraxtining xipchinidan n dona kesib kelishni, ikkinchisiga muallimni topib kelishni buyuribdi. G`ulom muallimning huzuriga boribdi. Muallim:

- Sulton qay vaziyatda meni eslab qoldi? – deb so`ragan ekan, g`ulom shunday debdi:

- Bir g`ulomga chorbog`dagi behi daraxtidan o`nta xipchin kesib kelishni, menga esa sizni topib olib borishni buyurdi.

Amir Nasr o`ch olish payiga tushganini muallim anglabdi va yo`lda mevafurushning do`koniga kirib bir dinorga yaxshi behilardan olib engiga yashiribdi. Muallim Nasirning huzuriga kirganda amir xipchinni ko`rsatib:

- Bunga nima deysan, - deb so`rabdi.

- O`ozir, - debdi muallim va qo`lini engiga tiqib haligi behini olibdi-yu podshohga qarab, - umringiz uzoq bo`lsin, bir og`iz so`zim bor, - debdi.

- Ayt, - debdi amir.

- Mana shu bejirim va hushbo`y meva shu xipchindan hosil bo`lgan.

Hayotda har xil voqea yuz beradi. Bunga hamisha rostgo`ylik bilan javob berishingizga to`g`ri keladi. Shunday odamlar ham borki, ularning so`zi bilan tutgan ishlari bir-biriga zid bo`ladi. Tilida yaxshi gapirib, quyuq va`dalar bersa-da, zum o`tmay orqasidan boshqacha ish tutadilar. Mana bu hikoyatni siz-u bizga ibrat bo`lsin, deb qirg`iz xalqining mutafakkirlaridan biri bo`lgan Muiniddin Juvayniy yozib qoldirgan.

Bir to`da ovchilar tulkining orqasidan quvib kelardilar. Qochib kelayotgan tulki yo`lda duch kelib qolgan dehqondan iltimos qilib: «Meni yashirsang ajoyib olijanoblik qilgan bo`larding» - dedi. Dehqon uyga ishora qildi va tulki darrov uyga kirib g`oyib bo`ldi. Chopib kelayotgan ovchilar tulkining qayoqqa ketganini dehqondan so`rashdi. Dehqon bilmasligini aytdi. Ammo ikkinchi tomondan qo`li bilan ishora qilib, tulkining uyda ekanligini bildirdi. Biroq ovchilar uning qo`l ishorasini tushunmay chopib ketdilar. Bu holni kuzatib turgan tulki dehqon

ishorasini sezib qoldi. Shuning uchun dehqonga lom-mim demay yo`lga tushdi. «Ey noshukur tulki, - qichqirdi dehqon, - yaxshiligimga rahmat aytmay qayoqqa ketyapsan?!» Tulki unga o`g`irilib: «Agar qo`l harakating sadoqatda til bilan hamdam bo`lganda shukr adosini bajarmay turib ketmagan bo`lardim!» - dedi-da yo`lga ravona bo`ldi.

To`g`rilik, rostgo`llik azaldan odamlarni yaxshi xislatlarini elga namoyish qilib kelgan. To`g`rilik, rostgo`ylik hamisha odamlarni insof va diyonatli bo`lishga o`rgatib kelgan.

Nushirvoni Odil zamonida bir odam qo`shnisining hovlisini sotib oldi. Kunlardan bir kuni er chopayotib daraxt yonidan bir ko`zada xazina topib olibdi. O`ovli sotgan odamning huzuriga borib ko`zani uning oldiga qo`ydi va dedi:

- Daraxt yonidan mana shu xazinani topib oldim. Uni men ko`mmaganman. Uni sen ko`mgan bo`lishing kerak. Shuning uchun u senika, olaqol!

- Yo`q, - dedi hovli sotgan odam, - hovlini eri va daraxtlari, umuman bor-yo`g`i bilan qo`shib senga sotganman. Xazina ham endi seniki.

Uzoq tortishib, oxiri Nushirvoni Odilning huzuriga bordilar. U voqeani surishtirib bo`lgach, arz-hol bilan kelgan ikki odamga murojaat qiladi:

- Sizlarning farzandlaringiz bordir?

- Bor, - dedilar ular. – Birining o`g`li, ikkinchisining qizi bor ekan.

- Unda, - dedi Nushirvoni Odil, -topilgan xazinaning hammasini ana shu farzandlaringizni kelajagi uchun sarf qilinglar, - debdi.

Buzurjmehrdan «Podsholikning kuch-qudrati nimada?» - deb so`radilar.

- Podsholikning kuch-qudrati besh narsada, - dedi u so`rovchiga – Birinchisi – insofli bo`lish; ikkinchisi – dushmandan hamma vaqt voqif bo`lib turish; uchinchisi – olimlar va fazl egalarining hurmat-e`tiborini o`rniga qo`yish; to`rtinchisi – el-yurtni obod tutish; beshinchisi – raiyatning hol-ahvolidan xabar olib turish.

Bolalarim! O`tmishda bobokalonlarimiz o`zlarigina to`g`ri so`z, rostgo`y bo`libgina qolmay, balki ularning qiladigan yumushlari, yaratadigan narsalari, hatto, ekadigan ko`chat-nov-nihollari ham to`g`ri bo`lishini istashgan va shunga

amal qilib hayot kechirishgan. Xalqimiz tomonidan xuddi shu haqda ko`plab ertaklar yozilgan.

E`tibor bering, bir xotinning hech kimi yo`q, u befarzand, kambag`al-qashshoq umr kechiradi. Ammo uning bir tup daraxti bor. Kampir har nafasda uni to`g`ri o`shini, chiroyli, ko`rkam bo`lib voyaga etishini istab, uni mehr bilan parvarish qiladi. Va shu daraxt tufayli baxtiyor bo`ladi. Mana eshiting:

- Sulton Sanjar Marv shahrida oliy bir bino qurishga kirishdi. Lekin ustunga munosib yog`och topolmadilar. Qidirib-qidirib bir xotinning hovlisida ustunbop daraxt borligini aniqladilar. Sultonning odamlari borib: «Yog`ochingni sotgin», deb yalinib-yolvordilar, lekin ayol ko`nmadi. Sultonning amri bilan xazinadan bir tovoq oltin va kumush tanga hamda zar chopon olib bordilar. Xotin shundan keyin daraxtni kesishga ijozat berdi.

Qit`a:

Sultonki adl birla qilur xalq aro maosh,  
O`ar nekim istasa anga hosil bo`lur ravon.  
Gar naqdi jon tilasa tariqi yaxshilik ila,  
Filhol sarf etarlar, anga xalq naqdi jon.

O`ar kimki bu sifat bila bo`lsa jahonaro,  
Shaksiz oning nisori erur jon ila jahon.

Yog`ochni kesib olib kelib ustun yasadilar. Ustun imoratga ko`p yarashdi. Sulton mamnun bo`lib: «Ustunga oltin suvi beringlar, ayvonni ham zarnigor qilinglar», deb buyurdi. Imorat tamom bitgandan keyin shaharning barcha xalqi uni tomosha qilgani keldilar. Ular orasida zar chopon kiygan o`sha daraxt sohibasi ham bor edi. U asta-sekin ustun yoniga borib dedi:

- Ey, yog`och! To`g`riliging tufayli o`zing ham tillapo`sh bo`lding, meni ham zar choponlik qilding.

Bolalari uchun aytib berilgan har bir hikoyat hayotda ular uchun ibrat maktabi bo`lsin. Yosh avlod to`g`ri so`z, rostgo`y bo`lib kamol topsin.

- Odob – ulug`lik va yuksaklik qasrining narvoni, bu narvon orqali barcha maqsad manziliga etish mumkin. Sharm gulzoridan esa barcha muddao gulini dastalash mumkin. Latif sirlarning haqiqatini anglovchilar va har qanday ramz ma'nosini tadqiq qiluvchilar aytadilarki, odamiylik risolasining darslarini o`qishga azm qilib, baxtiyorlik ko`chasiga qadam qo`yuvchi har bir insonga, avvalo, sharmu odob qoidasini yod olmoq shartdir. Toki baxt muallimining yo`llanmasi bilan hayot qonunining ilmini idrok qilishda bilimli va usta bo`la olsinki, haqiqatan ham, insoniyat uchun odob ajoyib toj va odamiylik bezagi uchun qimmatbaho gavhardir.

O`ikmat araboblarining aytishlaricha, kishining vujud guli odob rangi va hididan xoliy bo`lsa u kishi odamlar nazarida tikondek xoru bemiqdor bo`ladi, xalq ko`ngli u bilan suhbatlashishdan qoladi hamda begona-yu oshinolar undan yuz o`giradilar. Uning ahvoli sahifasiga nafrat qalami bilan uzoqlik va begonalik belgisini qo`yadilar. Shuning uchun besharm va odobsiz kishilar davronning dakkisi va tanbihidan o`zlarining ozodlik qanotlarini singan holda ko`radilar va ularning mehru muhabbati hech kimning diliga hech qachon o`tirmaydi.

Bir kuni Anushervon majlis uyushtirdi. So`ng u o`z mulozimlaridan: «Eng yumshoq narsa nima?» - deb so`radi. Birov «Shohi», - deb javob berdi. Birov esa «Tovus patlari», - dedi. Yana birovi esa: «Shohidan ham yumshoqroq nima narsa bo`lishi mumkin», - dedi. Shu payt bir yigit saroy tepasida turgan edi. U mulozimlarning javobidan Anushervonning ko`ngli to`lmaganini ko`rib, so`zlashga ijozat so`radi. Ijozat bo`lgach, dedi: «Eng yumshoq narsa tinchlikdir!». Anushervon unga ofarin aytdi va yana so`radi: «Eng yaxshi ovqat qanday ovqat?». Yigit: «Shahvoniy quvvatni oshirmaydigan va tanda illat qo`zg`atmaydigan ovqat eng yaxshi ovqatdir», - dedi. Yana so`radi: «Eng yaxshi sharob qaysi sharob?». Yigit: «Aqlni zoe qilmaydigan va kasallik keltirmaydigan», - deb javob berdi. Yana so`radi: «Gullarning ichida eng shirin hidlisi qaysi?». Yigit: «Ota-ona tirikligida ularni xursand qiladigan o`lgandan keyin esa ularning nomini boqiylashtiradigan hayot guli bo`lmish farzand!» - deb javob berdi.

Anushervon yigitni taqdirladi va o`z hakimlari orasiga oldi. Bayt:

Dono nochorlikda qolsa ham bir kun,

Umidi hosildan ko`rsatar nishon.

Xalqimizning mana bu jajji hikoyati bolalarimizni axloqli –odobli bolalar bo`lib kamol topishlarida katta ahamiyatga egadir.

- Odil shohning Elmurod degan yolg`iz o`g`li bor ekan. Elmurod 7 yosh bo`lsa ham etmish yoshlilarni lol qoldiradigan darajada yolg`onchi ekan. Unga yollangan enagalarni shoh ko`p jazolabdi, ammo foydasi bo`lmabdi. Yana yangi enaga olibdi va unga «Senga etti kun muhlat, shu vaqt ichida Elmurod yolg`onchiligini tark etsin, aks holda sen boshing bilan javob berasan» debdi. Kunlar o`ta boshlabdi. Elmurod bironta ham yolg`on so`z ishlatmas emish. Ettinchi kun yaqinlashganda shoh enagani chaqirib, buning sirini so`rabdi. Shunda enaga: - avvalgi enagalar farzandingizga ustozing aytganini qil, qilganini qilma deb o`rgatishgan. Men esa buning aksini qilyapman, ya`ni o`zim qilganni qildiriyapman, - debdi.

O`a, ustoz qilganni qilib, hamisha undan ibrat olib yashagan bolalar chinakam tarbiya topadilar. Rostlik samimiyat shunday shakllanadi.

Sharq mutaffakirlaridan biri bo`lgan Juvayniy bobomizning Suqrotning o`z shogirdlariga nasihati haqida yaratgan mana bu hikoyati hamma zamonlarda ham ibrat maktabi bo`lib kelgan. Kimki kattalarning, hayotiy tajribasi ko`p insonlarning pand-o`gitlariga amal qilib o`ssa hech qachon turmushda pand emasligi tarixdan ma`lum. Katta yoshlilar har doim kichiklarga nasihat beradilar. Bu bilan ular kenja avlod-merosxo`rlarning o`zlaridan keyin yaxshi insonlar bo`lib qolishlari uchun ezgu istakdir, xolos. Bolajonlar, hayotda ustoz-shogird degan gap bor. O`qish, hunar o`rganishda ustoz-shogirdlarning ahamiyati buyuk bo`ladi. Kimki bunga e`tibor bersa, o`sha inson yutadi.

Suqrot hakim vafoti oldidan o`z shogirdlariga shunday nasihat qildi:

- Farog`at, shodlik kech kelib tez ketadi, qayg`u-alam tez kelib, ancha uzoqqa cho`ziladi. O`ar odamning iffat va parxezkorligi bo`lmasa, har ziyrak va dono ko`rinsa ham, uning aqli kamolga etishgan deb hisoblanmaydi. Shunga ko`ra oqil va komil odam, iffatli, tavfiqi bo`lish kerak. Qilgan yomonliklari fisqu-

fujurlarini har erda maqtab, gerdayib so`zlab yurgan odamdan uzoqlashing. Komil, aqlli odam buzuq xayollarni ko`ngilga keltirmaydi. Aql xush quvvati bilan ularni rad qiladi.

Yana aytdi:

- Ko`nglingizga yaxshi bir ish qilish havasi uyg`onsa, u ishni bajarishga darhol oshiqing, bir badgumonlik yaxshi ishdan sizlarni qaytarib qo`ymasin. Bir yomon ish qilish ko`nglingizga kelsa, uni ifro qilishga oshiqmang, o`ylab ko`ring.

Yana aytdi:

- Odamzotga munosib ish - o`z nafsini qo`lga olib, qaysi ish o`ziga loyiq ekanini anglab, unga amal qilishdir, shunday qilsa uning ishi saramjon bo`ladi. O`hamma go`zal xislatlarning yaxshirog`i halol kasb bilan mol-dunyo hosil aylashdir. Agar sizlarga qahru-g`azab qilsa, yomon so`zlar so`zlashdan tilingizni, boshqalarga ozor berishdan o`zingizni saqlang.

Yana aytdi:

- Aziz shogirdlarim, sizlarga yana bir necha pand-nasihatlarimni aytib o`taman.

Sizlar hoyu-havasni tark etib qanoatni ixtiyor aylang:

- ne`mat va davlatingiz bor vaqtda shukur bajo keltirib, boshingizga qiyinchilik tushgan vaqtda sabrni o`zingizga yo`ldosh qiling, sabr har bir engillikning ochqichi bo`lib, ne`matga shukur qilish davlat va osoyishtalikning ko`payishiga sabab bo`ladi;

- hayotingizda biror hodisa zuhur etsa, ko`nglingizni quvvatli qilib, hayajonga, iztirob chekishga yo`l qo`ymang;

- qaysi ish bo`lmasin, uni mensimay, arzimagan kichkina ish deb sanamay, har ishning ulg`ayish qobiliyatini o`ylang;

- ixlosmand do`stlarning izzat va hurmatini bajo keltiring;

- bir odam bilan bir masala ustida so`zlashar ekansiz, so`zingizni janjalga bosh bo`ladigan darajasiga olib bormang, tilingizni tiying.

Fahriddin Ali Koshifiy ham ustoz-shogirdlik haqida ko`pgina asarlar yaratgan. Uning manabu hikoyatida noshukur, maqtanchoq shogirdning

odobsizligi, engiltakligi uchun qattiq kuladi. Bolalar, noshud shogird kuni boshingizga hech qachon kelmasin. Buning uchun odob saqlab, kamtarinlik bilan yashashingizga to`g`ri keladi.

- Emishki bir yigit ustozimning kurash usullarini o`rganib bo`ldim, endi o`zimni ustoz deb e`lon qilsam bo`ladi degan ekan. Kurash tushish bo`yicha uning oldiga tushadigani topilmay qolibdi-da! Biroq bu xabarni eshitgan ustoz u bilan kurash tushish uchun eng shimarib kelsa, shogird hayron bo`libdi. So`ng ustozimni ham engsam katta shuhrat qozonaman degan o`yda maydonga tushibdi. Vo ajabo! Ustoz uni bir oddiy usul bilan chirpirak qilib yuboribdi. Shunda ustoziga tan bergan shogirdi so`rabdi: «Ustoz, siz menga 40 ta usulning hammasini o`rgatgan edingiz-ku! Nega bu usulni o`rgatmadingiz?», - desa, ustoz: «Men bu qirq birinchi usulni senga o`xshagan noshukurlarga olib qo`ygandim» degan ekan.

Kichkintoy odobi yana shu bilan bog`liq bo`ladiki, u hech qachon manman, takabbur va pastkash bo`lmasligi kerak. Pastkashlik odobsizlikning oliy namunasi hisoblanadi. Yaxshi odob egasi bo`lib kamol topaman degan har bir bola bobokalonimiz O`uvaydoning «Pashsha va asalari»sidagi xuddi asalariga o`xshab harakat qilsa har doim omadi kelishi, baxtiyor bo`lishi tabiiy.

- Bir kuni pashsha asalariga jahl qilib bunday debdi:

- Sen shunday bir ahmoqsanki, asal yig`aman deb qirlarni, vodiylarni kezib ovqat to`playsan. Shuncha mashaqqating evaziga yiqqan bolingni yarmini o`zing eganingda ham mayli edi. Mana men hamma katta ziyofatlarda, hatto podshoh saroyida bo`laman. Shirin ovqatlar eyman, ajoyib sharbatlar ichaman, mazza qilib yashayman, o`zimga qarayman.

Asalari unga shunday javob berdi:

- Ana xolos. Aslida ahmoq sensan. Ammo idrok qilib tushuna olmaysan. Borgan joylaringda odamlar sendan irganib, qo`llariga nima tushsa o`sha narsa bilan uradilar, haydaydilar, sendan nafratlanadilar. Sening fahming etmaydi. O`zingga o`xshash pashshalarning minglarchasi o`ldirilayotganini ko`rib turasanu, meni ham bir kun shunday o`ldirishlari mumkin, degan fikr xayolingga kelmaydi. Men qirlar, vodiylarni kezib, yiqqan asalimni o`zim eyman va mening asalimni

eganlardan mehr-muhabbat, e'zoz, hurmat ko`raman. Bundan faxrlanaman,  
quvonaman.

Bayt:

Maqtanchoqlik jonsiz bir mato,

Yuvsa toza bo`lmas, qilmagil xato.

## **2.2. Dars va darsdan tashqari vaqtlarda bolalar fikrlash jarayonini shakllantirishda xalq topishmoqlaridan foydalanish**

O`quv jarayonida ertaklar bilan bir qatorda topishmoq, tez aytishlardan keng foydalaniladi. Boshlang`ich sinf darsliklarida bir necha mavzularga oid, predmetlarga oid maqollar, topishmoq va tez aytishlar berilgan. Bular, albatta, o`quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Mantiqiy tafakkurni o`stirishda topishmoqlarga javob topish matematik masala, misol yechish bilan teng kuchga ega. Ba`zi o`quvchilar topishmoqlarga javob topishni ermak deb biladilar. Afsus, bunday o`ylashlari noto`g`ri. Chunki har bir topishmoq aytilganda o`quvchi aqlni ishga soladi, o`ylaydi, fikrlaydi.

Topishmoqlarni o`quvchilar solishtirish va qiyoslash yo`li bilan javobini topishga intiladilar. Topishmoq matnini o`qish orqali o`quvchilar avvalo, topishmoq janriga xos xususiyatlari o`rganadilar, to`g`ri o`qish malakasini egallab beradilar.

Topishmoq javobini topishda yashirin berilgan belgi, predmet, voqea-xodisalarga asosiy e`tiborini qaratadi. o`qituvchi, topishmoqni o`qiyotganda uni doskaga yozib qo`yadi yoki topishmoq yozilgan kartonni doskaga ilib qo`yadi. Topishmoqni mazmunini tushuntirib bo`lingach, uni o`quvchilar daftariga ko`chirib oladilar. o`quvchilar topishmoqning javobini topgach, uning to`g`rimi yoki noto`g`rimiekanligini topishmoq mazmunidan va qo`shma ma`lumotlardan bilib oladilar. Topishmoqqa javob topish o`quvchini tetiklashtiradi, dam beradi. Ba`zi bir o`qish darslarini kuzatganimizda, juda ham zerikarli, o`quvchilar darsda zo`raki o`tirib o`qituvchi tushuntirayotganda mavzuni tinglayotganliklarining guvohi bo`laman.

Shunday paytda, ya`ni o`quvchilarda zerikish, toliqishni sezganda "Topishmoq topish" o`yini o`tkazilsa, o`quvchilar tetiklashib, darsga qiziqishlari ortadi, hamda ular madaniy hordiq ham oladilar. Topishmoqlar 1-4 sinflarning savod o`rgatish, imlo va nutq o`stirishga doir darslarida o`rganiladi. Asosan,

o`quvchilar 1-4 sinflarning o`qish va nutq o`stirish darslarida topishmoqlarni og`zaki aytish bilan o`z nutqlarini boyitadilar.

**Masalan:** “Alifbe” kitobidagi

Rangi oppoq, qora emas,

Yumshoqqina par emas.

Topishmoqning mazmuni tushuntirilgan, javobni o`quvchilarga topshiriladi. “Paxta” javobini topishmoq matniga asosan to`g`riligini aniqlanadi. Topishmoq matni yordamida, javobni tekshirib bo`lingach, ifodali o`qish mashqi o`tkaziladi. Topishmoqni ifodali o`qishda uning mazmuniga e`tibor beriladi. Masalan, 2-sinf “o`qish kitobi”da mavzular bo`yicha berilgan topishmoqlarni ko`rib o`taylik. Bu topishmoqlarni o`qituvchi ifodali o`qib beradi, o`quvchilar bunda topishmoq mazmunini tushunib olishlari kerak. har bir topishmoq o`qilgach qisqacha chuhat o`tkaziladi.

- Topishmoqda nimalar deyilgan?
- Qani, topishmoqni kim esda saqlab qoladi? kabi

Topishmoqda berilgan belgilariga qarab topishmoqning javobi topilgach, uning javobi tekshirib ko`riladi.

Oyog`i yo`q qochadi,

Qanoti yo`q uchadi.

Bu topishmoqning javobini yozib qo`yiladi. Topishmoq javobi matn mazmuniga qarab tekshiriladi va o`quvchilar havroning xususiyatlari haqida ma`lumotga ega bo`ladilar.

Topishmoq matnida ayrim o`qilishida xatoga yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan holda ma`nosi tushunarsiz bo`lgan so`zlar ham uchrab turadi. Mana shunday so`zlar ustida ishlanadi.

**Masalan:** Kichkina dekcha,

Ichi to`la mixcha.

Bu topishmoqda “dekcha” so`zining ma`nosiga o`quvchilar tushunmasligi mumkin, bundan dekcha – quticha degan ma`noda berilgan deb tushuntiriladi.

Topishmoqlarni qayta o`qish orqali asosiy ma`noni bildirgan so`zlarni aniqlash juda ham muhim.

**Masalan:** Pak-pakana bo`yi bor,

Etti qavat to`ni bor.

Bu topishmoqda yashirin predmetning asosiy ma`nosini bildirgan so`zlar “pak-pakana”, “etti qavat to`ni “ deb ko`rsatiladi. o`quvchilar topishmoqlarning yaratilishi tarixi haqida ham bilimga ega bo`lishi kerak. Xalqimiz o`z qilgan mehnatlari davomida, yashash tarzidan kelib chiqqan holda, tabiat hodisalarning kuzatib ulardan xulosa chiqarib, mana shunday topishmoqlar yaratganliklarini, hozirda esa fan texnikaning rivojlanishiga asosan ko`plab yangi topishmoqlar yaratilayotganini ma`lumot beradi. Topishmoq matnini o`qish davomida o`quvchilar she`riy va nasriy asarlarni o`qish metodikasi bilan ham tanishtirib boriladi. Ba`zi topishmoqlar she`riy uslubda yozilgan bo`ladi.

Masalan, 3-sinfda berilgan she`riy uslubdagi topishmoqlar shular jumlasidandir.

1. Agar men sizga aytsam,

To`ni yashil beqasam.

To`ni ustida oq yo`l,

Hosil sersuv, mo`l-ko`l.

Yulduzchadek guli bor,

Urug`i ichra qotor.

Chanqoqni bosar biling,

- Aytaylik, bu.....

2. Aytay bitta topishmoq:

Koptok kabi yumaloq

Atirguldek ochilgan,

Yaprog`i keng, yozilgan.

Qavat-qavat to`ni bor

O`sib yotar bir qator.

Bu nima ayt Muharram

— Bu-chi, men sevgan....

Bunday topishmoqlarni o`quvchilargsha ifodali qilib o`qish va yodlash mumkin. Topishmoqlarning javobini topish o`quvchilar uchun diqqatni bir joyga to`plab, o`ynashni talab qiladi. Bunda topishmoqlarda yashirin berilgan predmetni eslatish juda muhim. o`quvchilar uchun ba`zan topishmoqlarning javobini topish qiyinchilik tug`diradi. Bunday vaqtda o`sha predmetni ko`rsatish mumkin yoki bo`lmasa yashirin predmeni boshqa predmetlar bilan birgalikda ko`rsatilib, topishmoq matni o`qiladi.

O`quvchilar topishmoqda ifodalangan predmet xususiyatini berilgan predmetlar orasidan qidiradilar va mos kelganini topib topishmoqning javobi ekanligini tekshirib, ko`radilar.

**Masalan:** To`rtta uning tuyog`i,

Temir mixli tuyog`i.

Manzilga yetishtirar,

Toshday qattiq tuyog`i.

Bu topishmoqning javobini uy hayvonlarining rasmini ko`rsatish orqali toptirish mumkin. Javob topilgach, ot va uning ko`rinishi, xalq xo`jaligida ahamiyati eslatiladi.

Topishmoqning javobini topishda eslatish yo`lini aytib o`tgan edik. Biror bir topishmoqning javobini topishdan oldin, o`qilgan matndan yoki she`rdan predmetni izlash tavsiya etiladi. 3-sinfda berilgan topishmoqlar.

1. Qorday oppoq,

Yungday yumshoq.

2. Yurar tekis egatdan,

Barmoqlari po`latdan.

Elkasida qopi bor,

Katta temir savatdan.

Bu topishmoqlarning javoblarini topishdan oldin, o`tilgan “Paxta boyligimiz” mavzusi eslatiladi. Paxta haqida suhbat o`tkazilib, uni qanday yig`ib-terib olinadi, uning mehnati juda og`irligi haqida qisqacha gapirib o`tiladi. Bunda

o`quvchilar to`g`ri va aniq fikr yuritishga o`rganadilar, asosiy fikr noma haqida ekanligini tushunib oladilar, topishmovni darslikdagi mavzuga bog`lab o`rganish imkonini beradi.

Topishmoqlarning javobini topishda o`quvchilar mustaqil fikrlaydilar, tez va to`g`ri javobni topish talab etiladi. o`qish darslarida topishmoq o`qib beriladi yoki yoddan aytiladi, o`quvchilar o`ylab, javob topadilar. Bunday topishmoqlarga matni murakkab bo`lmagan topishmoqlar kiradi. 3-sinf darsligidagi topishmoqlar shular jumlasiga kiradi.

1. Qo`l bilan sochar,  
Og`iz bilan o`rar.
2. Qo`lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
3. Kichkina dekcha,  
Ichi to`la mixcha.
4. Pak-pakana bo`yi bor,  
Etti qavat to`ni bor.

Topishmoqlarni kartochkalarga yozib ham tarqatish mumkin, bunda o`quvchilarga topishmoqning javobini topishni aytiladi. o`quvchilar topishmoq javobini topishga kirishadilar va topgach, shu o`quvchi topishmoqni sinfga baland ovozda o`qib beradi, so`ng uning javobini aytiladi. Bu usul juda foydali bo`lib, sinfdagi hamma o`quvchilar e`tibor bilan topishmoqni eshitadilar, darsda osoyishtalik vujudga keladi, o`zlashtirmovchi o`quvchilarning fikralshga, darsda ishtirok etishlariga zamin yaratiladi.

Topishmoqning javobini topishni uyga vazifa qilib berish mumkin. Bunday holda o`quvchi qiynalsa, ota-onasi yoki aka-opalaridan yordam so`raydi. Kelgusi darsda bu topshiriqni o`qituvchi, albatta, tekshirishi lozim. o`tilgan mavzuni so`rash davomida topishmoq javoblari ham so`raladi. To`g`ri yoki noto`g`ri topilganligi o`quvchilar yordamida solishtirib tekshiriladi. o`quvchini baholash jarayonida topishmoqqa berilgan javoblar hisobga olinadi.

Sabzavot va poliz ekinlari haqidagi topishmoqlarni o`rganish jarayonida sabzavotlarning sinfga olib kelish kerak. Agar buning ilojisi bo`lmasa, ularning rangli rasmlaridan foydalaniladi. o`qituvchi quyidagi savollarga javob oladi:

1. Qanday poliz ekinlarini bilasiz?
2. Qaysi o`simliklarning yerdan pastki qismi yeyiladi?
3. Sabzavotlardan qaysilarini bilasiz?

Shundan so`ng topishmoqlarning tahliliga o`tiladi:

Er ostida oltin qoziq.

O`quvchi: - Bu sabzi. Sabzining rangi sariq yoki qizil bo`ladi. Yer ostida hosil beradi. Shuning uchun “er ostida oltin qoziq” deyilgan.

O`qituvchi: - To`g`ri. Endi sabzining yeyiladigan qismi nimaga o`xshaydi?

O`quvchi: - qoziqqa o`xshatilgan?

O`qituvchi: - Sabzini qanday holda iste`mol qilasiz?

O`quvchi: - Sabzini xomligicha, tozalab yeyish mumkin, hamda ovqatlarga ham ishlatish mumkin.

O`qituvchi: - o`zbek Milliy taomlaridan qaysilariga sabzi ko`proq ishlatiladi?

O`quvchi: - Palovga, qaynatma sho`rvaga...

Jiyda haqidagi topishmoq.

Bir qop un, ichida ustun.

Topishmoqning tahlilini ko`rib o`taylitk. Topishmoqni o`qituvchi ifodali o`qib bergach, tahminan quyidagicha savol-javob o`tkaziladi.

O`quvchi: - Bu topishmoqning javobi jiyda. Jiydaning ichida uzun o`zagi bo`ladi.

O`qituvchi: - Nega u qopga o`xshatilgan?

O`quvchi: - Jiydaning tashqi ko`rinishi qopga o`xshaydi. Uning yeyiladigan qismi esa unga o`xshaydi.

Shunday suhbatdan keyin o`qituvchi jiydaning kishi sog`ligi uchun foydali ekanligini eslatib o`tadi.

Topishmoqlar matni tahlil qilingandan so`ng, ularning kishilar hayotidagi o`rni, qaerlarda ishlatiladi, shular haqida aniqlab olinadi.

O`qish darslarida topishmoqlarni ichida va ovoz bilan o`qish ham mumkin. Bunda logik urg`uga e`tibor berish kerak, tanish belgilariga rioya qilib o`qish o`rgatib boriladi. Topishmoq she`riy asar bo`lganligi uchun ham uning har bir misradagi mazmun, ohang logik urg`u orqali aniqlanadi.

Yog`i yo`q, yorug`i bor,

Ichi yo`q, issig`i bor.

Bu topishmoqda logik urg`u “yorug`i”, “issig`i” so`zlariga beriladi. Bu so`zlarni alohida ohang bilan o`qish kerakligi tushuntiriladi. Agar o`quvchilar matnni ifodali o`qishga qiynalsalar, o`qituvchi takroran matnni logik urg`uga e`tibor berib o`qib beradi.

O`quvchilar darsda o`qituvchining savollariga javob berishdan, matnlarni o`qish jarayonida toliqib qoladilar. Natijada o`quvchilarning o`zlashtirishi pasayib boradi. Bunday vaqtda o`qituvchining “hozir topishmoq topamiz” degan gapini eshitish bilan o`quvchilar o`zlarini yengil xis qiladilar, yuzlarida xursandlik alomatlari paydo bo`ladi. o`quvchilar tezda topishmoq matnini bilib olishga, uning javobini birinchi bilib topishga kirishib ketadilar, zerikish, charchoqni unutadilar. Topishmoqlar een avvalo, o`quvchilarning nutq malakalarini rivojlantiradi. Shunday ekan faqat o`qish darsida emas, boshqa ko`pgina dars jarayonida “topishmoq”dan foydalanish kerak. Topishmoq javobini topishda o`quvchidlar uning matnini bir necha bor fikoan takrorlaydilar va uni yodlab olishga xarakat qiladilar.

O`quvchilar o`rtoqlari bilan topishmoq aytishuvini yaxshi ko`radilar va o`zlari yod bilgan topishmoqlarni o`rtoqlariga aytib, javobini topishni talayu

qiladilar. Ayrim hollarda o`quvchilar topishmoq matnini o`zgartirib, o`z so`zlari binoan bayon etadilar.

Darsliklarda ko`pgina topishmoqlarning javobi rasmjda ifodalangan. Bu ta`limning ko`rsatmaslik printsipiga asoslangan bo`lib, og`zaki bayon etishni qulaylashtiradi. o`quvchi diqqati, fikrini bilib, bir joyga to`plab mana shu topishmoq yonidagi rasmni ko`radi va matnda berilgan fikrni osongina idrof etadi. Berilgan predmetning xususiyati uzoq vaqt esda qoladi.

2-sinfda. Kun-tun yuradi,

Doim bir joyda turadi.

Topishmog`i berilgan. Topishmoq yonida uning javobi soatning rasmi berilgan. o`quvchi rasmga qarab tezda topishmoq javobini topadi va uning xususiyatlarini bilib oladi.

Boshlang`ich sinfda topishmoqlarni o`rganish jarayonida o`quvchilarga "Topishmoq" daftari tutqazilsa yaxshi bo`ladi. o`quvchilar o`zlari o`rgangan, bobo-buvilarimizdan eshitgan topishmoqlarni to`plab boradi va yil oxirida butun bir topishmoqlar to`plamiga ega bo`ladilar.

Bu esa topishmoqlarning bolalar tomonidan qiziqib o`rganilishiga sabab bo`ladi, ularning aqlini peshlashga katta yordam beradi. o`quvchilarning mustaqil o`qish ko`nikmalarini shakllantirib boradi.

## 2 Bob bo'yicha xulosa

Boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchining ijodiy ishlashida xalq rivoyatlaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, har xil ijodiy ishlar uchun kerak bo'ladigan tasavvurni o'sishiga xalq ertaklarining boy fantastikasi yordam beradi. Shuni hisobga olgan o'qituvchilar undagi voqea va hodisalarni hayotga bog'laydi. Fantaziyaning sirini bolalarga tushuntiradi. Ya'ni o'quv yili davomida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib boradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan ekskursiya darslarini o'tkazadi.

Ilg'or tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar rivoyatlarni o'tishda quyidagilarga amal qiladilar. Ular rivoyatni bolaga shunday badiiy so'zlaydilarki, go'yo rivoyat qahramonlarining o'zlari so'zlayotgandek bo'lib tuyuladi O'qituvchining obrazga kirib so'zlashi o'quvchilarni rivoyatga maftun etadi. Bu esa o'quvchilarni rivoyat qahramonlarining ichki kechinmalarini anglashga, ulardagi axloqiy fazilatlarni egallab olishiga imkon beradi. Axloqiy tarbiyaga, xumladan, bolalarni ma'naviy – axloqiy ruhda tarbiyalashga oid xalq pedagogikasi namunalaridan ta'lim jarayonida o'rganish yuzasidan quyidagilarni tavsiya qilamiz.

1. Xalq pedagogikasi namunalaridan o'rganishda axloqiy tarbiyaga; jumladan, bolalarda ma'naviy – axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qiluvchi rivoyatlarni saralab olish.

2. Xalq pedagogikasi namunalaridan hikoya qilib berilgandan so'ng, mustaqil o'qitiladi, o'qish jarayonida ayrim, tushunilishi qiyin so'zlarga izoh berish.

3. Xalq pedagogikasi namunalarini g'oyasi savol- javob bilan ochish.

4. Xalq pedagogikasi namunalari syujeti asosida rasm chizdirish.

5. Xalq pedagogikasi namunalaridagi qahramonlarining sifatlari hayotdagi ayrim kishilar xarakterlariga, sifatlariga solishtirib o'z xulosalarini mustaqil aytishlari o'quvchilardan talab etish.

6. Xalq pedagogikasi namunalari mazmuni asosida o'quvchi aqliy faoliyatining rivojlantirilishiga doir mustaqil ish o'tkazish.

### **III Bob. Bolalarni ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish texnologiyasi va uning samaradorlik darajasi**

#### **3.1. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini manaviy axloqiy kamol topshirishda oila, mahalla va maktab hamkorligi**

Yurtimiz O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin tarixiy haqiqat va sadoqatni tiklash uchun umumxalq yurishi boshlandi. Ming yillar davomida yaratilgan, xalqimiz qoni va joniga aylangan ma'naviy durdonalarga yangicha qarala boshlandi. Milliy an'analarning qadri ko'tarilishi kerakligi e'tirof etildi, bir so'z bilan aytganda, zo'rlik va ongsizlik oqibatida berkitilgan ezgulik buloqlari ko'zini tozalashga kirishildi.

Ilgarilar milliy an'analar va udumlarga ham hadiksirab qaraldi, uning tarbiyaviy xazinalaridan ham qandaydir "illat" qidirildi. Hayotbaxsh xalq an'analari kamsitildi. Ba'zi urf-odat va udumlarga diniy tus berilib, hayot sahnasidan tamom supirib tashlandi.

Ota-bobolarimizning qimmatli pand nasihatlari eskilikka yo'yildi, qadri toptaldi. Qariyalar hikmatomuz ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati e'tibordan qola boshladi.

Ayollar rohatbaxsh allalarni unutayozdilar.

Ovro'pada turmush tarzining vir yarim ming yillik musulmon shariati qonuni-qoidalari asosida turmush kechirib kelgan xalqimiz hayotida ma'no mantiq orqali tadbiiq etilishi xalqimiz hayotiga tayzik orqali tadbiiq etilishi hayotimiz ongiga va turmushiga to'qnashuvlar va ziddiyatlar keltirib chiqaradi. Xalq ikki o't orasida kuyib yondi: bir tomonda ota-bobolarimizning ming yillardan beri amal qilib kelayotgan an'analari, urf-odatlari, to'ylar, bayramlar, marosimlar, ikkinchi tomondan "ma'muriy buyruqbozlik", "siyosiy ziyraklik" asosida zo'r lab tekshirtirilgan. "Yangi urf-odatlar" nikohni nishonlash, qadah ko'tarib ko'pchilik oldida o'pishish, kelin-kuyovlarning raqsga tushishi, ota-ona, qavmu-qarindosh va

hokazo. Ovro`pada madaniy hayotga tezroq ko`niktirish uchun bir yarim tarix, ma`naviy me`ros bitilgan alifbo ham shasha-pisha o`zgartirildi. Kaltabinlik shu darajaga etib bordiki odob alifbosida bitilgan kitoblarni hammasi diniy deb yo`qotildi. Xullas qalb ehtiyori singari urf-odatlar va an`analari ham ma`naviy xazina durdonalari, ga`mxo`r fikrli xalq farzandlari ham yo`qotildi. Bugun asossiz ravishda unitilib yuborilgan asriy qadriyatlarimizni tiklashga intilyapmiz. Xalq an`analari, madaniyatimizning bir qismi sifatida jamiyat uchun chinakam xizmat qilishini istayapmiz. Nega? Bunga to`liq javob berish uchun an`analarning o`zi nima? Degan savolga javob izlab ko`raylik.

An`ana nima? “An`ana” asli arabcha so`z bo`lib, uzoq zamonlardan beri avloddan avlodga, otalardan bolalarga o`tib, davom etib kelayotgan urf-odatlar, ahloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir.

An`ana ijtimoiy va madaniy merosdir. U iqtisodiy, milliy, kasbiy, jangovor, ilmiy, ommaviy an`analari sifatida jamiyatda ijtimoiy guruh va sinflar orasida keng yoyilgan, shuning uchun ijtimoiy hayot va an`analarni o`rganish, ularning mazmunini bilash, odamlarning xulqi va hatti-harakatlariga ta`sir etilishi tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir.

Ta`lim-tarbiya ishlariga xalqimizning eng ilg`or, hayotda o`zini oqlagan, an`analarni, oila, maktab va mehnat jamoalarida qo`llash, ulardan foydalanish kabi vazifalar hamisha dolzarb bo`lib kelgan. Shu kungacha ayniqsa vatanparvarlik, millatlararo do`stlik, ekologik tarbiyaga doir an`analarni, oilaviy tarbiya jarayoniga tadbiiq etish, hozirgi avlod kishilarini xalq pedagogikasining xalqchil ko`rsatmalari asosida tarbiyalashni keng qo`llash nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda necha millat, necha xalq bo`lsa, hammasining o`ziga xos turmush tarzi, o`tmish hayoti va kelajagi bilan chambarchas bog`liq an`analari mavjuddir. O`zbek xalqining ham o`z urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta`lim-tarbiya, madaniyat an`analari tarixi moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi.

Barg ildizdan quvvat oladi deganlaridek, hozirgi va kelajak avlod kishilarining, ularni chuqur bilimlari ma`naviyatining mag`zi to`qligi omilidir. Bu

hamisha hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan haqiqatdir. Kaykovusning "Qobusnoma"sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abunabr al Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf os Hojibning "Qutadg`u-biliq", Ahmad Yugnakiyning "Xibatul-Haqoyiq" kabi jahonga mashhur asarlarida, navoiyning o`lmas sheriyatida, Munis Xorazmiyning "Savdi ta'lim", Qori Niyoziyning "Hayot maktabi", Abdulla avloniyning "Guliston yoki axloq" asarlarida sharq xalqlari, xususan o`zbek xalqiga xos bo`lgan ibratli tomonlari ochib berilganki, ular qalam orqali, xalqimizga xos xalqimizga xos bo`lgan ota-onaning hurmati, insoniylik. Oqibat, mehr-shavqat, mehmondo`stlik, ma'rifatga chanqoqlik, onani ulug`lay olish, farzandga mehrlilik va fidoiy bo`lishlik kabi fazilatlar dunyoga tanilgan bo`lsa, ajab emas.

Xususan inqilobdan keyingi dastlabki yillardanoq ta'lim-tarbiya, ma'rifat va madaniyat borasidagi asl xalq tarbiyashunosligining ibratli tomonlari yuksak baholangan edi. Umuminsoniy, oilaviy urf-odatlar va an'analarni chuqur o`rganish, ularni tahlil qilish, turkumlashtirish, ularning paydo bo`lish yo`llari, evolyutsion taraqqiyotni bilish, aniqlash, ilmiy asoslangan g`oyalarni ilgari surish va shular asosida an'analardan foydalanish yo`llarini tafsiya etishni hayot talab etmoqda. Bularning hammasi kelajak kishisini tarbiyalashda Amaliy yordam beradi.

Qadim zamonlardan, hatto o`zbek xalqining yozuvi bo`lmagan paytlardan yosh avlodni tarbiyalash asosan oilada amalga oshirilgan. Bunda tabiiy va ijtimoiy omillar hal qiluvchi o`rin tutganligi shubhasiz. Xalq pedagogikasi hamisha yaxshi samara bergan. Shuning uchun ham xalqning tarbiyaga oid bilimlarini chuqur o`rganish, tarbiya natijalariga asoslanib, ularning asliy manbalariga, tarbiya sirlariga nazar tashlash bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Har bir xalq o`zining milliy an'alariga asoslangan tarixiy madaniyati va turmush tarziga egadir.

An'alar xalkimizning asrlar osha to`plagan milliy boyligi bilan, shuningdek uning yangi sharoitda yangi mazmun bilan boyitilgan, yangidan-yangi an'analarning vujudga kelishi bilan qimmatli va hayotbaxshdir.

Masalaga shunday yondoshilgandagina an'analar insonlarning turmushi va madaniyati asosi sifatida hozirgi zamon kishilari axloqiga ta'sir etishi mumkin.

An'analarning vujudga kelishi va shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayondir. Unda xalqning dono fikrlari, axloq mezonlari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham yosh avlod-ajdodlarimiz tomonidan tarixiy sharoitda vujudga kelgan ilg'or an'analarni o'zlashtirish, unga rioya etish, boyitish nihoyatda zarurdir.

Nihoyatda mazmuniga ko'ra ilg'or umuminsoniy, shakliga ko'ra milliy an'analar qaror topmoqda. Eski va yangi an'analar qarama-qarshiliklar jarayonida yaratildi va sayqal topdi.

Ayrim an'analar qanday bo'lsa, o'sha xolida ko'rinishida uzoq vaqt saqlanib qoladi, boshqalari o'z ko'rinishini o'zgartiradi, uchinchilari esa yangilariga uyg'unlashadi, taqsimlashadi.

Oilaviy an'analarga bolalarning tug'ilishlari bilan bog'liq bo'lgan marosimlar, urf-odatlar, bolalar tarbiyasiga taaluqli bo'lgan va umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan amaliy maslahatlar, qoidalar, metodik usullar va boshqalar kiradi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra oilaviy an'analar nisbatan yashovchandir. Ayniqsa umumxalq ko'rinishidagi oilaviy an'analarning umri boqiydir. Urf-odatlar qancha hayotiy, xalqchil, qancha keng tarqalgan bo'lsa, u xalqqa shuncha tez singadi va shuncha uzoq yashaydi. Masalan hozirgi kunda mavjud bo'lgan an'analarning ko'pi uzoq tarixga ega. Biroq ular o'z davrida qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha qolgan deb bo'lmaydi. Hayot ularga o'zining yangi-yangi xislatlarini, davr silsilasini kiritgani aniq. Har davrning vujudga keltiradigan yangi an'anasida yangi avlodvakillarining milliy xususiyatlari, shuningdek ularning o'tmishi haqidagi yorqin xotiralari, mehnatkashlar ommasining kelajak uchun intilishi o'z aksini topib boradi. Oilaviy an'analar ham bundan mustasno emas.

Boshqa xalq an'analari kabi oilaviy an'analar ham shu xalqning tarixi, uning turmush sharoiti va hayot tarzi bilan bog'lik o'tmish va kelajak aks etadi.

Shu ma'noda o'zbek xalqining oilaviy an'analari qimmatli va azizdir. Ular faqat mazmuniga ko'ra qiziqarli bo'lib qolmasdan, balki bolalar bilan yoshlarni

mehnatga jalb qilishdagi tarbiya usullari va shakllari bilan ham hayotbaxshdir. Yangi davr, yangi sharoitda ular yangicha mazmun bilan boyib bordi. O`rta Osiyoning boshqa xalqlarida bo`lgani kabi o`zbek xalqining inqilobdan oldingi xayoti haqida so`z ketganda bironta oliy o`quv yurtining bo`lmagani haqida ko`p gapiriladi. Bu faktni inkor etganimiz holda boshqa sharq xalqlari kabi o`zbek xalqida ham avlodlar tarbiyasiga ta`sir etuvchi, kishilarni odamiylik, ezgulikka etaklovchi “Xalk dorilfununlari” bo`lganligini, ularning xalqqa ta`sir kuchi g`oyat katta bo`lganini e`tirof etmoqchimiz. Biz azal-azaldan xalqimizga ko`pchilik ishtiroki bilan o`tadigan xasharlar, bolalarning turli o`yinlari, bolalar ijodi, choyxona suhbatlari, uchrashuvlar, gap-gashtaklar, to`y va marakalar, mavsumiy bayramlar, gul va lola sayillari, “boychechak” aytish, qovun sayillari, “yangi mehmon tug`ilishi”ni nishonlash, qizlar majlisi, kelinlarning qaynota va qaynona oldidagi “yuz ochdi”lari, “kelin salom”lar, “sumalak”, echki o`yini, uloq o`yini, kurash, mehmonda bo`lish, mehmon kutish kabi ko`plab marosimlarni nazarda tutib, ularning hammasi hamxalq tarbiyashunosligining durdonalari sifatida avlodlarni o`zbek xalqiga xos bo`lgan “o`zbekona”, “sharqona” tarbiyalashda muhim rol o`ynagan.

Xalq pedogogikasining umrboqiyliigi, o`lmasligiga sabablardan yana biri uning avloddan avlodga etkazish shaklining antiqaligidadir. Hatto xalqimiz hozirgidagidek ommaviy axborot vositalariga ega bo`lmagan qadim zamonlarda ham xalq pedagogikasi xalq og`zaki ijodiyoti yo`li bilan qanot qoqqan. Uning tarbiyaviy ta`siri bolalarga ona allasi bilan singib ketgan.

O`zbek xalqining asrlar mobaynida to`plagan xalq og`zaki ijodi xazinasini g`oyat boydir. U xalqimiz manaviy madaniyatining oltin xazinasini hisoblanadi. Keksa avlod vakillari xaet tajribalari asosida to`plangan, shakllangan dono fikrlarni quyi avlodlarga og`zaki hikoya, ertak, afsona, rivoyat, topishmoq, matallar shaklida singdirishga, hikmatlar bilan xalq qalbiga kirib borishga intilgan. Xalq ertaklari, topishmoq va matallar orqali bolalarni, ota-onalarning, kattalarning maslahatlariga diqqat-e`tibor bilan quloq solishni o`rgatgan, ertak qahramonlaridan namuna olishga intilgan.

Ertaklar faqat bolalargagina ta'sir ko'rsatib qolmasdan, balki ota-onalarning o'ziga ham, ularning hayot tarziga, va ishonchlariga, ahloqiy qiyofaga ham ta'sir etadi.

Xalq xotirasida saqlanayotgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan eng yaxshi ertak va dostonlar, maqol va matallar, ashula va topishmoqlar bolalarni tarbiyalaydi, yaxshilikka, mehnat qilishga va haqgo'ylikka undaydi. Xalq og'zaki ijodida inson xayotining hamma qirralari aks etgan. Ularda ota-onalarning, bolalarning tarbiyasi, parvarish qilish borasidagi yo'l-yo'riq va usullari ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun hozirgi paytda tarbiyaga ta'sir ko'rsatuvchi xalq og'zaki ijodiga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.

Xalq og'zaki ijodida bolalarni sofdillikka, oddiylikka undash bilan birga, ulardan ichi qoralik, chaqimchilik va boshqa salbiy sifatlar qoralangan.

“Manmanlik qilma netarsan, obro'ingdan ketarsan”, “Sen o'zingni maqtama, sani birovlar maqtasin”, “Egilgan boshni qilich kesmas”, “Mevali daraxtning mevasi qanchalik ko'p bo'lsa, uning boshi shunchalik pastga egiladi”, “Baxlning bog'i ko'karmas”, “Virovga chox qazisang, o'zing yiqilasan”, “Egri o'ltirib, to'g'ri gapir”, “Ko'rpangga qarab oyoq uzat” singari xalq maqollarida pand-nasixat ifoda etilgan.

Ko'plab maqol va matallarda bilimli bo'lish ulug'lanadi, bilimsizlik qoralanadi. “Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni”, “Ilmi yo'qning ko'zi yumiq”, “Ilmsiz bir yashar, ilmi ming yashar”, “Ko'p o'qigan, ko'p bilar”, “Olim bo'lsang, olam seniki”, “O'qigan o'g'il - otadan ulug'” va hokozo .

Vatanparvarlik, vatanni sevish mavzusi ham maqol va matallarda aks etgan. Vatanparvarlik sifatlarni shakllantirish muhim o'rin tutgan. Oilaviy tarbiyada xalq pedogogikasi an'analar, ertak, maqol, topishmoq va matallar shaklida o'z ifodasini topgan, va u tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositasi sanalib, tarbiyaning barcha qirralarini qamrab olgan. Ayniqsa inson va uning tarbiyasi o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash bolalikning yosh davrlari, ularning dangasalik va injiqliklari, o'yinlari, qizlar tarbiyasi haqida ajoyib matal, maqollar yaratilgan bo'lib, ular xalq pedogogikasining saboqligining yorqin namunasi.

Xalq donishmandligida ota-onalar haqida ularning bolalar bilan munosabatlari. Onaning madaniyati, tarbiyaviy ta'siri, donoligi atrofida yoritilgan.

Masalan, oilada hamma kishi, bir kishiga - otaga itoat etgan. Otaning yoki onaning gapi ikki qilinmagan. Otaning izmidan chiqish, u kishining buyrug`ini bajarmaslik, otaga gap qaytarish, unga tik boqish gunoh hisoblangan. Ota farzandining nojo`ya ishi, qilig`i, gapi uchun urishishi mumkin bo`lgan. Lekin farzand otaga tik boqmagan, otaga yoki onaga qo`l ko`tarmagan. Shu sababli bunday tartibli oilalarda, bebosh o`g`il, nopok qiz bo`lmagan. Xadisda yozilganidek "otaga itoat qilish, tangriga itoat qilishdir". Uning oldida gunoh qilish tangri oldida gunohdir.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, xalq donishmandligi, an'analar avlodlardan-avlodlarga o`tishi jarayonida shakl jihatdan o`zgarishlarga uchraydi. Lekin o`z mazmuni, tarbiyaviy ta'sirini yo`qotmasdan hozirgi va keyingi avlodlarga xizmat qiladi.

### **3.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari**

Ta'lim–tarbiya jarayoni har bir o'qituvchi va pedagogdan katta aql – zakovat, sabr – matonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr – muhabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib boruvchan bo'lishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda so'z, ish yoxud amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

O'qituvchi shaxsi – bu uni inson sifatida xarakterlovchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarining barqaror tizimidir. O'qituvchi shaxsi o'z kasbiga ixlos qo'yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ular bilan hamdardligida namoyon bo'luvchi shunday fazilatlar majmuasidirki, ular o'qituvchi faoliyati va muloqoti bilan uyg'unlashganda o'qituvchi mehnatining bir butunligiga erishiladi.

Biz magistrlik ilmiy- tadqiqot ishimizni yozish jarayonida Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan Mirobod tumanidagi 213 – maktab, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 43- maktab, Sobir Raximov tumanidagi 15- maktablarda tajriba – sinov ishlarini olib bordik. Tajriba sinov natijasida maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy – axloqiy tarbiya berishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish ahvoli yetarlicha emas degan xulosaga keldik. Buning bir qator sabablari mavjud bo'lib, ular xozirgi kunda yaratilayotgan adabiyotlarning deyarli hammasida siyqasi chiqib ketgan xalq og'zaki ijodi janrlarining o'rin olishidir.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Xalq tomonidan “Zumrad bilan Qimmat”, “Oltin tarvuz”.” Ur to'qmoq”, “Echki bolalari va bo'ri” ertaklaridan tashqari bir qator boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga, ularni ma'naviy – axloqiy jihatdan shakllanishlariga imkon yaratib beruvchi bir qator xalq ertaklari,

rivoyatlari, afsonalari yaratilgan- ku. Nima uchun ularni bugungi boshlang`ich sinf darsliklariga kiritish mumkin emas?

Yuqorida keltirilgan bir qator sabablarning kelib chiqish holatlarini aniqlash maqsadida maktablarning pedagogik jamoalari va boshlang`ich sinf o`quvchilari o`rtasida anketa so`rovnomalarini o`tkazdik.

Anketa so`rovnoma savollari quyidagicha.

1.O`qituvchidagi pedagogik –psixologik bilim deganda qanday bilimlar nazarda tutiladi?

2.Kichik yoshdagi maktab o`quvchilarining ma`naviy- axloqiy tarbiyasiga ta`sir etuvchi, darsliklardan o`rin olmagan yana qanday xalq ertaklarini bilasiz?

3.O`zingiz ham ertak, rivoyat, maqol ijod qilib ko`rganmisiz?

4.Xalq og`zaki ijodi janrlarini bolalarga ta`sir etish darajasini o`z pedagogik faoliyatingizda sinovdan o`tkazganmisiz?

5.Bolalarning ma`naviy – axloqiy tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan va bolalarga ta`sir etuvchi xalq og`zaki ijodi janrlariga oid adabiyotlarni yig`ib borasizmi?

6.O`zingiz bolalaringizda eshitgan ertaklaringizni eslay olasizmi?

7.Sizning nazaringizda hozirgi kun ertaklari qanday bo`lishi kerak?

8.O`zingiz bolalaringizga qanday ertaklarni aytib berasiz?

9.Hozirgi kundagi bolalar ko`proq qanday ertaklarni sevib eshitadi?

10.Xalq qo`shiqlaridan qanday qo`shiqlarni bilasiz?

Berilgan savollarga javoblarni tahlil qilib chiqqanimizdan so`ng aniqlovchi va shakllantiruvchi tajribalar asosida maktablarda dars berib kelayotgan o`qituvchilar bilan o`zimiz tanlagan ““Boshlang`ich sinf o`quvchilarni ma`naviy –axloqiy tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi janrlaridan foydalanish” mavzusida tajriba ishlarini olib bordik. Tajriba boshida bo`lajak o`qituvchilarni ikki guruhga ajratib oldik.

Birinchi guruh – nazorat guruhi.

Ikkinchi guruh – tajriba guruhi.

Ikkala guruh o`qituvchilariga ham bir xil matndagi savolnomalar tarqatildi. Tajriba –sinov ishlarini olib borish jarayonida tajriba guruhidagi o`qituvchilar bilan biz alohida ishlar, tushuntirish, suhbat, seminarlar, konferentsiyalar tashkil qildik. Tajriba –sinov yakunida nazorat va tajriba guruhi o`qituvchilarining berilgan savollarga javoblarini tahlil qilib chiqdik.

№	Mezonlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		O`qituvchilar soni	yuqori	o`rta	past	O`qituvchilar soni	yuqori	o`rta	past
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	O`qituvchilarning xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganishga ehtiyojlarini borligi.	50	30	15	5	50	10	25	15
2.	O`qituvchilarning xalq og`zaki ijodi janrlari bo`yicha qisqacha ma`lumotlarga egaliklari	50	35	10	5	50	15	10	25
3.	O`qituvchilarda xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganish borasida ko`nikma, malakalarning shakllanganligi	50	40	7	3	50	15	20	15
4.	O`qituvchilarda xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganish bo`yicha ijodiy yondashuvning mavjudligi	50	35	10	5	50	10	15	25

Olib borilgan matematik –statistik tahlil shuni ko`rsatadiki, tajriba –sinov o`tkazilgan tajriba guruhi ko`rsatkichlari nazorat guruhlarini ko`rsatkichidan ancha yuqori.

Buning asosiy sabablarini quyidagilarda deb bildik:

1. Boshlang`ich sinf darsliklariga bolalarning ma`naviy – axloqiy tarbiyasiga ta`sir ko`rsatuvchi xalq og`zaki ijodi janrlarini kiritilmaganligi;

2.Darsliklarga kiritilgan xaloq og`zaki ijodi janrlarining takror- takror berilishi, ya'ni yangi manbalar bilan boyitilmaganligi;

3. Maktab o`qituvchilarini bu boradagi bilimlarini orqada qolayotganligi;

- amaliyot jarayonida bo`lajak o`qituvchi shaxsi egallashi zarur bo`lgan pedagogik –psixologik bilimlarga yetarli e'tibor berilmaganligi;

### **3- bob bo'yicha xulosa.**

Ma'lumki, o'zbek xalq pedagogikasi yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, milliy urf- odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar mujassamdir. Xalq pedagogikasida ifodalangan g'oyalar, tajribalar xalq yaratgan afsonalarda, og'zaki ijod namunalarida, og'zaki, yozma yodgorliklarda o'z ifodasini topgan: ulug' mutafakkir olimlarning ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan asaralarida bayon etilgan. Buni biz xalq tomonidan yaratilgan doston, ertak, rivoyat, afsona, maqol, topishmoq, tez aytish, masallarda Ahmad Yassaviy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yugnakiy, Rabg'uziy, Yusuf Xos Xojib, Munis Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zamahshariy, Gulxaniy, Furqat kabi mutafakkirlar hamda O'rta Osiyoda yetishib chiqqan musulmon olamiga mashhur bo'lgan Imom Ismoil al – Buxoriy, Muhammad ibn Iso Termiziy asarlarida ko'ramiz. Bu ulug' allomalar o'zlaridan oldin o'tgan avlodlar donishmandligini kelgusi avlodlarga taqdim etdilar.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositada, tadbir shakllari, urf- odat va an'analar, ta'lim- tarbiyadagi g'oyalar – hayotiy tajribalar o'zbek xalq pedagogikasida mujassamlashgandir.

Xali maktab bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrlardayoq, qabila a'zolarining bolalar tarbiyasi sohasida orttirgan tajribalari hayotiy tajriba mevasi sifatida bizning davrga qadar yetib keldi va xalq pedagogikasi shaklida tarkib topdi. Xar bir jamiyatda yashagan xalq ruhi, do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g'oyalari ota- onalarning o'zaro ahilligi, ular bilan farzandning o'zaro mehr – muhabbati, qadr- qimmat, insoniy eng yaxshi fazilatlari u ijod etgan ertak, doston, maqol, topishmoq, latifa, askiya, rivoyat va masallarda tarannum etildi. Bu yodgorliklar o'z muxtasarligi, qiziqarliligi, ravonligi, ohangdorligi, pandnomaliligi, g'oyaviyligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

## Umumiy xulosa

Magistrlik ishini oxiriga yetgazgach, uning mazmunini fikran ko`z oldimga keltirib, umumshtirib, yana o`zimga o`zim savol beraman: “Shu mavzuga mutolaat qilish zarur edimi, bu mavzuning muammolari haqida gapirish zarurati bormi?”

Ishonchim komilki, bunga zarurat bor.

Xalqning ma’naviy ruhini musaxkamlash va rivojlantirish O`zbekisonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Xalq og`zaki ijodi shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyotning ulkan oilasida o`z musaqilligini tushunib etisg va ozodlik sevish tuyg`usini bilan birgalikda etilgan. Xalqimiz yaratgan qo`shiqlari insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o`giti bilan birga singadi.

Tarixga murojaat qilar ekanmiz bu zalq zotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz kishi bo`lmaganidek, o`z tarixini bilmagan xalqning kelajagi xam bo`lmaydi.

Ona zaminimizda yashayotgan har bir inson ushbu ishni o`qib chiqib, tariximizga, Vatanimiz, O`zbekisonimiz ega bo`lgan kuch qudratga, boyliklarga va xalqimiz yaratgan ijodlariga fikran nazar tashlab, shubxasiz, iftixor hissini boshidan kechiradi.

Ayni chog`da men, ana shu hissiyot nilan birga, har bir xalqimizga, o`z mehnati bilan jonini fido qilib, mamlakatning moddiy va ma’naviy boyliklarini, kuch-qudratini yaratgan va yaratayotgan kishilarga samimiy minadorchlik tug`ularni his etishimizni juda-juda isar edim.

Men xalqimiz yaratgan qo`shiqlar orqali bolalarga ta’lim-tarbiya berish qay darajada ahamiyatli ekanini va ulardan foydalanib bola kamoloti shakilantirish lozim. Chunki qo`shiqlar orqali xalqimizning og`ir mehnati, yashash tarzi, axloq-odob normalari ko`rsatib berilgan.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalardagi ahvol, amalga oshirilyotgan islohatlarimizning samaradorligi avvalo

xalq ma'naviyatining tiklanish, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning saqlanish, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir.

Magistrlik ilmiy tadqiqot ishimizning yakunida bo'lajak o'qituvchilarga quyidagilarni tavsiya qilamiz.

1.Maktablarning boshlang'ich sinflarida xalq og'zaki ijodi janrlari vositasida ma'naviy- axloqiy tarbiya berish yuzasidan o'qituvchilar zaruriy bilim va ko'nikmalarni hosil qilishda darslarni zamonaviy va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga erishish.

2.Boshlang'ich sinflarning dasturlariga aynan bolalar ma'naviy- axloqiy tarbiyasiga kuchli ta'sir etuachi xalq og'zaki ijodi janrlaridan hamda ulardan ta'lim- tarbiya jarayonida foydalanishga doir tegishli mavzular kiritish zarur.

Tajriba – sinov ishlarini taxlil etishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy t – si shakllantirishda xalq og'zaki ijod janridan foydalanishni tajriba boshida va tajriba oxiridagi natijalarga asoslangan holda matematik-statistik metodi qo'llanildi. Tajriba sinovga ko'ra tajriba guruhida 90 nafar va nazorat guruhida 92 nafar o'quvchilar jalb etildi.

Tajriba-sinov ishimiz quyidagi mezonlar asosida olib borildi.

## Tajribadan oldingi mezonlar ko'rsatkichi

1-jadval

№	Mezonlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		O`quvchilar soni	yuqori	o`rta	past	O`quvchilar soni	yuqori	o`rta	past
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	O`quvchilarning xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganishga ehtiyojlarini borligi.	90	15	37	38	92	17	34	41
2.	O`quvchilarning xalq og`zaki ijodi janrlari bo`yicha qisqacha ma'lumotlarga egaliklari	90	20	38	32	92	30	30	32
3.	O`quvchilarda xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganish borasida ko`nikma, malakalarning shakllanganligi	90	40	30	20	92	30	31	31
4.	O`quvchilarda xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganish bo`yicha ijodiy yondashuvning mavjudligi	90	60	20	10	92	21	40	31

## Tajribadan keyingi mezonlar ko'rsatkichi

№	Mezonlar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
---	----------	----------------	----------------

		O`quvchilar soni	yuqori	o`rta	past	O`quvchilar soni	yuqori	o`rta	past
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	O`quvchilarning xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganishga ehtiyojlarini borligi.	90	70	15	5	92	33	38	21
2.	O`quvchilarning xalq og`zaki ijodi janrlari bo`yicha qisqacha ma`lumotlarga egaliklari	90	75	10	5	92	35	37	20
3.	O`quvchilarda xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganish borasida ko`nikma, malakalarning shakllanganligi	90	76	11	3	92	33	38	21
4.	O`quvchilarda xalq og`zaki ijodi janrlarini o`rganish bo`yicha ijodiy yondashuvning mavjudligi	90	78	7	5	92	38	33	21

Olingan natijalarning tajriba boshi va yakunidagi ko`rsatkichlari qo`lidagi jadvalda aks etgan.

2-jadval.

	Sinflar	O`quvchilar soni	Javoblar soni		
			Yuqori	O`rta	Past
<b>Tajribadan oldin</b>	Tajriba	90	15	37	38
	Nazorat	92	17	34	41
<b>Tajribadan keyin</b>	Tajriba	90	70	15	5
	Nazorat	92	33	38	21

Bu ko`rsatkichlarni foizlarda hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz.

Har bir o`quvchining o`zlashtirish koeffitsienti foizlarda

$$K = \frac{J}{Q} 100\% \quad \text{formula orqali topiladi.}$$


Bu erda: J - o`tkazilgan tajribada savollarga berilgan to`g`ri javoblar soni; Q - o`quvchilarning umumiy soni

4 - жадвал


## Математик-статистик таҳлил натижалари

(коэффициент бо'йича)


№	Sinflar	Tajribadan oldin	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	Tajribadan keyin
		Tajriba	Nazorat	Tajriba	Nazorat
1.	Yuqori	$K_1 = \frac{15}{90} \cdot 100\% = 16,7\%$	$K_1 = \frac{17}{92} \cdot 100\% = 18,5\%$	$K_1 = \frac{10}{90} \cdot 100\% = 77,7\%$	$K_1 = \frac{33}{92} \cdot 100\% = 35,4\%$
2.	O'rta	$K_1 = \frac{37}{90} \cdot 100\% = 41,1\%$	$K_1 = \frac{34}{92} \cdot 100\% = 37\%$	$K_1 = \frac{15}{90} \cdot 100\% = 14,4\%$	$K_1 = \frac{38}{92} \cdot 100\% = 41,3\%$
3.	Past	$K_1 = \frac{38}{90} \cdot 100\% = 42,2\%$	$K_1 = \frac{41}{92} \cdot 100\% = 44,5\%$	$K_1 = \frac{5}{90} \cdot 100\% = 5,5\%$	$K_1 = \frac{21}{92} \cdot 100\% = 22,8\%$




### Tajribadan oldin nazorat ko'rsatkichlari




### Тажрибадан кейинги назорат ко'рсаткичлари




### Тажрибадан олдин тажриба гуруҳининг назорат ко'рсаткичлари



### Тажрибадан олдин назорат гуруҳининг назорат ко'рсаткичлари



Тажрибадан кейин тажриба гуруҳининг назорат кўрсаткичлари



Тажрибадан кейин назорат гуруҳининг назорат ко'рсаткичлари

### **Foydalangan adabiyotlar ro`yxati.**

1. I.A. Karimov “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch” Toshkent “Ma`naviyat” 2008 y.
2. I.A.Karimov “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish-ustivor maqsadimiz” O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo`lib o`tgan qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. Adolat gazetasi Toshkent 2010 yil 29 yanvar. N 4 1-3-betlar.
3. I.A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”. T., O`zbekiston. 1997 y.
4. I.A. Karimov “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., “O`zbekiston”. 1997 y.
5. I.A. Karimov “Mamalkatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish- barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir” Toshkent “O`zbekiston” 2007 yil

6. I.A. Karimov. “O`zbekiston kelajagi – buyuk davlat”. T., “O`zbekiston”. 1997 y.
7. I.A. Karimov “Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug` maqsad yo`q” Toshkent “O`zbekiston” 2001 y.
8. I. A. Karimov. “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda”1999 – yil 14-aprel kuni birinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 14-sessiyasida.
9. “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun
10. Ajdodlar o`giti. Toshkent, 1991 y, 154-b.
11. Bobolardan-bolalarga (to`plovchi Barakaev R), Toshkent, «Yulduzcha» nashriyoti, 1989 y. 125-b.
12. Baratov Sh. Kichik yoshdagi o`quvchilar faoliyatini baholash. «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1992 y, 45 b.
13. Baratov N., Aliqulov X. O`rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. «O`zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1974 y, 48-b.
14. Bahodirov O. Yangicha an`ana va urf-odatlar hayotga. «O`zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1985 y, 42-b.
15. «Bir qalpoq oltin». «Cho`lpon» nashriyoti, Toshkent, 1995 y.
16. Bizning arxivimizdagi xalq o`lzaqi ijodi janrlari: «Alla-qo`shiqlar, ertaklar, rivoyatlar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar».
17. Bozorova M. «Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarni do`stlik va o`rtoqlik xislarini tarbiyalashda xalq an`analaridan foydalanish». Kand.diss. Toshkent, 1994 y.
18. Beruniy A.R. «Ruhiyat va ta`lim tarbiya haqida». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1992 yil.
19. «Bo`lchaga-do`mboqchaga». «Cho`lpon» nashriyoti, Toshkent, 1992 y, 210-b.
20. Badiiy terma kitob. Bo`lchalarning katta guruhlari uchun. Toshkent, 1996 y, 322-326-b.
21. Boshlang`ich ta`lim jurnali, 1996 y, 2-6-7-8-sonlar:
22. «Boychechak». Toshkent, 1989 y.
23. Valieva N. «Halollik va sofdillik nima?». Risola. Toshkent, 1968 y.

24. Vohidov M. Bolalar psixologiyasi. «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1976 y.
25. O`zbek xalq poetik ijodi. T., 1967.
26. Abdurahimova D., Dadasheva S. “Xalq og`zaki ijodi-tarbiya vositasi. T., 1995.
27. Safo Ochil “Mustaqillik va tarbiya masalalari”. T.: O`zbekiston, 1996.
28. Xasanboyeva O. “Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. T., 1996.
29. Musurmonov A. “Ta’lim-tarbiyada xalq og`zaki ijodidan foydalanish”. T.: O`qituvchi, 1993.
30. Musurmonova “O`quvchilarning ma’naviy madaniyatining shakllantirish.
31. Murodov M. “Sirli sandiq ochildi”. T.: O`qituvchi. 1996.
32. 1-4 sinf “O`qish darsliklari”.
33. 1-4 sinf “Odobnoma darsliklari.

## **ILOVALAR**

### **I Ilova**

#### **ERTAKLAR MAMLAKATIDA**

Xalq og`zaki ijodi janriga mansub bo`lgan ertaklar xalqimizning asrlar mobaynida orttirgan boy hayotiy tajribasi, kuzatishlari, xulosalari asosida yaratilgan bo`lib, insonni ma’naviy barkamollik, axloqiy poklik, hushyorlik, ziyraklik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi,

Insondagi fazilat va kamchiliklar ba’zi ertaklarda hayotdagi real qahramonlar orqali ko`rsatilsa, ayrim ertaklarda hayvonlar, parranda-yi darrajalar misolida yoritiladi.

Ertaklardagi sirli, sehrli voqealar tasviri o`quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo`lib, asarning mazmun-mohiyatini o`zlashtirishlariga imkon yaratadi.

### **II Ilova**

## ITTIFOQLIK – BADA VLATLIK ASOSI

**O'quv materiali.** «Davlat» ertagi.

**Darsning maqsadi.**

1. O'quvchilarga ertak, uning kelib chiqishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Ertakni ifodali, rollarga bo'lib o'qish ko'nikmasini o'stirish. O'quvchilar lug'atini *sharofat, tanob, beqiyos, huzur, ijozat, musibat, xushnudlik* so'zlari bilan boyitish. Ertak matnini qismlarga bo'lish reja tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

2. «Davlat» ertagi orqali o'quvchilarda hamjihatlik, inoqlik, do'stlikni qadrlash tuyg'ularini o'stirish. Halol mehnat qilishga undash.

3. Ertakni o'qib qissadan hissa chiqarishga, uni do'stlari bilan mushohada etishga o'rgatish.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

**Darsning metodi.** Deduktiv, suhbat metodi.

**Darsning jihozi.** Ertak kotoblari, tarqatma materiallar, ertakka ishlangan rasmlar.

**Darsning borishi.**

**I. Uyga berilgan «Ho'p hayda», «Chori chambar» xalq qo'shiqlarini so'rash va baholash.**

**Xalq qo'shiqlari yuzasidan suhbat.** ♦ Xalq qo'shiqlarini qanday turlarini o'rgandingiz? (Bolalar: Bolalar qo'shiqlari va mehnat qo'shiqlarini o'rgandik). Qanday: bolalar qo'shiqlarini bilasiz? («Boychechak», «Tuyalar», «Oftob chiqdi olamga», «Yomg'ir yog'aloq», «Chori chambar» qo'shiqlarini bilamiz.) Qo'shiqlarda qanday badiiy vositalar qo'llanar ekan? Misollar bilan tushuntiring («Ko'chama-ko'cha aylandi» misrasida jonlantirish; «Pring keltir, ko'rayin, Oltin sohib yuvayin» misralarida o'xshatish qo'llangan). «Ho'p payda» qo'shig'I qaysi mehnat turi jarayonida kuylangan? («Xo'p hayda» donni po'stidan ajratish paytida

kuylanadigan qo'shiq.) «Qo'shiqlar qanotida» bo'limida olgan qo'shiqlaringizni yod ayting.

## **II. Yangi mavzu bayoni.**

**1. O'quvchilarni ertak o'qisha tayyorlash.** O'quvchilardan qaysi ertaklarni o'qiganliklari, ulardan olgan taassurotlari so'raladi.

*O'qituvchining hikoyasi:* — Ertaklarni o'qish sevimli mashg'ulotingizdir. Ertaklardagi qiziqarli voqealar — uchar gilamda sayohat, ur to'qmoq, ochil dasturxon, qaynaxumchanning sehrli fazilatlarini sizni o'ziga tortadi. «Ertaklar ham xalq qo'shiqlari singari xalq og'zaki ijodi mahsulidir. Ertaklarda xalqning orzu-umidlari, o'y-fikrlari, xonish-istaklari o'z aksini topgan.»

### **2. Ertaklar qanday gaplar bilan boshlanib, qanday tugaydi?**

(Ertaklar quyidagicha boshlanib: «Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Och ekanda, to'q ekan. Bo'ri bakovul ekan, tulki yasavul ekan, chumchuq chaqimchi ekan. Qirg'ovul qizil ekan, quyrug'u uzun ekan...»). «Hammalari murod-maqсадlariga yetibdilar», deb tugallanadi).

### **3. Lug'at ishi.**

tanob - qadimgi yer o'lchovi;

beqiyos - o'xshashi yo'q;

huzur - halovat, rohat;

**4. Guruhlarga bo'linib ertak matni ustida ishlash.** Jami o'quvchilar 4 ekspert gurugiga bo'linadi.

O'qituvchi ularni **ekspertlar** deb nomlaydi. Har bir ekspert guruh o'ziga tegishli matn qismini o'qib o'rganadi. So'ng ekspertlar boshqa guruhlarga tarqalishadi. Yangi tashkil qilingan guruhlarda har bir ekspert guruhdan bittadan vakil bo'lishi shart. Matnning boshlang'ich qismi qaysi ekspertga tegishli bo'lsa o'qib, mazmunini so'zlab beradi. Shu tariqa barcha guruh a'zolari o'ziga tegishli qism bilan boshqa o'quvchilarni tanishtiradi. Guruh a'zolari eng yaxshi tushuntirgan ekspertni tanlaydi. Qaysi ekspert guruh ko'p ovoz to'plasa g'olib chiqadi.

**5. Savol tuzish mashqi.** Guruhlar qaytadan ekspert guruhlariga birlashib, o'ziga tegishli qism asosida savollar tuzishadi. Bunda o'qituvchi ularga yordam berib turadi. Quyidagicha savollar tuziladi. Kimning sharofati bilan dehqon boyib ketadi.? Davlat nima deb dehqondan ruxsat so'rabdi? Dehqon Davlatga nima uchun ruxsat bermabdi? Dehqonga kichkina kelin nima deb javob beribdi? Oila a'zo kelinning gapiga ko'nishibdimi? Nima uchun Davlat dehqonning uyida umrbor qolishga jazm qilibdi? Davlat qanday oilada bo'lar ekan?

**6. Har bir guruh o'z qismining rejasini aytadi.**

**Reja.**

1. Davlat dehqonning hovlisida yashgan ekan.
2. Dehqon Davlatdan sabr qilishni so'rabdi.
3. Kelin birgalikda mehnat qilishlarini aytibdi.
4. Davlat inoq oiladan ketmabdi.

**7. Rollarga bo'lib ertakni o'qish mashqi.** O'qituvchi har bir ekspert guruhdan bittadan ishtirokchi tanlashini buyuradi. Har bir ishtirokchiga rol taqsimlab beriladi. Rollarga bo'linib o'qishda tinish belgilariga rioya qilish uqtiriladi. Eng yaxshi o'qiydigan o'quvchi g'olib sanaladi.

**8. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash:** ♦ Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan? (Dehqonnikidan Davlat bir necha yil yashar ekan. Shuning uchun xonadoni rohat-farog'atda, boy-badavlat yashar edi: Dehqonning mollari, yerlari, oltinlari behisob ekan). ♦ Nima uchun Davlat dehqonning uyidan ketishni xohlamadi? (Kelinning gapi bilan hammalari ahil bo'lib mahnat qilishga kirishishadi. Bunday inoqlikni ko'rib, Davlat dehqonning uyidan ketmabdi).

**9. Mavzuga oid maqollar toppish va rebish tuzish.** Har bir guruhga biror maqol asosida rebus tuzdirish mumkin. O'qituvchi rebus tuzishda yordam berib turadi.

Quyidagicha rebuslar tuzish mumkin:

Ayрилganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer



Do'st so'zini tashlama,  
Tashlab ko'ring qashlama

Darsda o'rganilganlar yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqaring. «Davlat» ertagini o'qish orqali qanday xulosaga keldingiz? Sizning oilangizdagilar bir-birlariga qanday munosabatda bo'ladilar? Ular qanday kasb-hunar bilan mashg'ul?

**11. Uyga vazifa.** «Davlat» ertagini ifodali o'qib, gapirib berishga tayyorlanish. Ertak asosida rasm chizish.

**12. O'quvchilarni rag'batlantirish.**

**III ilova**

## **BILIM OL, HUNAR TANLA**

**O'quv materiali.** «Ilm afzal» ertagi.

**Darsning maqsadi.**

1. O'quvchilarning ertak janri haqidagi bilimlarini boyitish. Ularning ertak matnini ifodali o'qish, qismlarga bo'lib reja tuzish, savollar tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish. Ertakda qo'llangan badiiy sana't turlari haqida ma'lumot berish.

2. O'quvchilarni ilm olishga qiziqtirish. Ertak matni, Ilmga oid maqol va matallar orqali ilm olishning afzalligini tushuntirish.

3. O'quvchilarni guruhda ishlash, yangi mavzuni guruhda munozara orqali anglab yetish ko'nikmasini shakllantirish.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

**Darsning metodi.** Induktiv, suhbat, yarim izlanishli metod.

**Darsning jihozi.** Asar mazmuniga ishlangan rasm, rebuslar to'plami.

## **Darsning borishi.**

**1. O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat o'tkazish.** ♦ Ertaklarni kim ijod etadi? ♦ «Davlat» ertagi nima haqida? («Davlat» ahil, inoq bo'lib mehnat qilish haqidagi ertak.) ♦ Ertakning bosh qahramonlarini sanab bering. (Davlat, dehqon va uning kenja kelini). ♦ Sizlarga qaysi qahramon yoqadi? Nima uchun? ♦ Ertakdan qanday xulosaga keldingiz? (Ahil, inoq yashash, boylikni halol mehnat qilib, orttirish kerak).

### **2. Ertak janri bo'yicha qo'shimcha ma'lumot berish.**

Qadimda o'zbeklar orasida ertaklar «Cho'pchak» deb yuritilgan.

Ertaklarda xalqning orzulari ifodalangan. Ularda urto'qmiq, ochildasturxon, qaynar xumcha, gilam orzu qilingan. Ulardan ayrimlari so'zlatiladi.

**3. Guruhlarga bo'linib ishlash.** O'quvchilar 5 guruhga bo'linadilar. Guruh ishtirokchilariga roller bo'lib beriladi. Har bir rol egasiga biror vazifa yuklatiladi. Guruh ishtirokchilarining rollari:

*Matndan parchalar topuvchi* – bu o'quvchilarning vazifasi matndan biror talab asosida parcha tanlaydi.

*Tadqiqotchi* – matndan har qanday savolga tegishli ma'lumotni taqdim qiladi.

*Savollar beruvchi* – munozara uchun asar matni asosida savollar tuzadi.

*So'zlar axtaruvchi* – bu o'quvchi lug'at ishi uchun material to'laydi.

*Nazoratchi* – guruhdagi o'quvchilarga yordam beradi, o'quvchilar bir-birining si'zini bo'lmasligini, o'yida qatnashishini ajratilgan vaqtga rioya qilishni nazorat qiladi.

*Qahramonlarning tafsilotchisi* – matn qahramonlariga tavsif beradi va ular qandayligi haqida boshqa o'quvchilar bilan muhokama qiladi.

*Namoyishchi* – matnga doir rasmlar chizadi.

O'qituvchi o'zining yoki o'quvchilarning xohishiga ko'ra yangi roller o'ylashi mumkin. Guruh ishtirokchilari rollarni o'zaro guruh ishida taqsimlaydilar.

O'qituvchi rollarni taqsimlashda guruhga yordam berib turadi.

Ertak matni 5qismga bo'linadi va 5 guruhga bittadan qism ajratiladi. Har bir guruh o'ziga ajratilgan qism bo'yicha rollarga bo'linib ish olib boradi.

Matnni o'qituvchi oldindan o'zi yoki o'quvchilar bilan birgalikda qismlarga bo'ladi:

«Ilm afzal» ertagi taxminan quyidagicha qismlarga bo'linadi

1. Otaning qizidan maslahat lishi yoki aqlli qiz maslahati.
2. Ota va o'g'illar munozarasi.
3. To'ng'ich o'g'ilning javobi.
4. O'rtancha o'g'ilning javobi.
5. Kenja o'g'ilning javobi.

Quyida bir guruh ishtirokchilar bajaradigan ishlar tavsilini keltiramiz.

1. Matndan parchalar topuvchi – guruhga berilgan qismning boshi va oxiri – chegarasini aniqlab guruh ishtirokchilariga o'qib beradi. Ulab bilan qism chegarasii to'g'ri belgilaganligi yuzasidan munozara uyushtiradi: 1 – qismning chegarasi – ertak boshidan «o'g'illar otasining bu gaplarini eshitib, hayron bo'lishibdi...» joyigacha belgilanadi.

2. So'zlar axtaruvchi – o'qib berilgan matndan ma'nosi tushunarsiz so'zlarni yozib boradi. Guruh ishtirokchilari bilan ularning izohini topadi.

*Qariya* – keksa kishi; *omi* – o'qimagan, savodsiz; *badbaxt* – baxtsiz; *moli padar*, *pasi padar* – ota moli o'zi bilan (tojik maqoli).

*Savollar beruvchi* – guruh ishtirokchilarining e'tiborini qism yuzasidan savollar tuzishga qaratadi. Bu savollar ertak parchasi gapirib berishga yordam berishi kerakligi uqtiriladi.

1-qism bo'yicha taxminan quyidagi savollar tuziladi: Qariya qaysi qishloqda yashagan ekan? Boboning nechta farzandi bor ekan? Ota qiz bilan qanday qarorga kelishdi? Cholning o'g'illari savollarga qanday javob berishdi?

*Tadqiqotchi* – matndagi badiiy til vositalarini aniqlash va guruh ishtirokchilarini ularni izohlashga da'vat etishi lozim.

Matnda qo'llangan badiiy vositalari-iboralar: mehnat qilishga bo'yni yor bermadi; bu dunyodan ko'z yumsam – vafot etsam.

*Qahramonlarning tafsilotchisi* – cholning o'g'illariga tavsif berishadi, munozara uyushtiriladi.

«Chol, o'zim omligimcha qoldim, qani endi o'g'illarim o'qib odam bo'lsa, deb orzu qilarkan».

*Namoyishchi rassom* – matndan foydalanib suhbatlashayotgan chol va qizning rasmini chizadi.

*Nazoratchi* – guruh ishiga ajratilgan vaqtni, ishning aniq va to'liq bajarilayotganini, guruh a'zolarining o' vazifasini qanday bajarilayotgaligini nazorat qilib turadi.

**4. Taqdimot.** Guruh a'zolari o'zlari bajargan ishni sinf hukumiga taqdim etadi.

**5. Baholash.** Guruhlar jadval asosida baholanadi. Jadvaldagi barcha baholar yig'indisi 5 a bo'linadi. Baholanayotgan guru o'ziga hambaho qo'yadi.

Darsda agar vaqt qolsa rollarga qarab eng yashi tadqiqotchi, eng yaxshi savollar beruvchi va hokazo rol egasi aniqlanib, taqdirlanishi mumkin.

**6. Uyga vazifa.** «Ilm afzal» ertagini o'qib kelish. «Nima uchun ilm afzal?» savoliga yozma javob yozish. Ilmning fazalligi haqida maqollar topib to'plash.

**Izoh.** «Ilm afzal» ertagining 2- bo'limi ham shu tarzda o'rganilishi mumkin.

- Hunarsiz kishi o'limga mahkum.

## VI Ilova

### KO'KLAM ELCHISI

**O'quv materiali.** Boychechak.

**Darsning maqsadi.**

1. O'quvchilarga xalq og'zaki ijodi, xalq ertaklari, qo'shiqlari haqida ma'lumot berish. Ularning she'ri ifodali o'qish ko'nikmalarini oshirish. O'quvchilar lug'atini ayron, baxmal so'zlari bolan boyitish.

2. O'quvchilarda do'stlikni qadrlash, saxiylik, nochorlarga g'amxo'rlik qilish tuyg'ularini shakllantirish.

3. O'quvchilarni xalqimiz ijodiy merosini o'rganish, ular haqida mushohada yuritish, xalq og'zaki ijodi namunalarini mustaqil o'qish va asrab-avaylashga o'rgatish.

**Dars turi.** Qo'shiq o'rganish darsi.

**Darsning metodi.** Yarim izlanishli muammoli metod. Suhbat metodi.

**Darsning jihozi.** Xalq urf-odatladi aks etgan rasmlar, «O'zbek xalq ertaklari» kitobi, «Alpomish» dostoni

**Darsning borishi.**

### 1. O'quvchilarni alq qo'shiqlarini o'rganishga tayyorlash.

Doskaga kelinsalom, sumalak pishirish, beshik tebratayotgan ona aks ettirilgan rasmlar ilib qo'yiladi. «O'zbek xalq ertaklari» kitoblari ko'gazmaga qo'yiladi. Rasmlar asosida suhbat. ♦ Rasmlarda nimalar aks ettirilgan? (Kelinsalom, sumalak sayli, alla aytayotgan ona). ♦ Kim menga alla qo'shig'ini aytib bera oladi? O'qituvchi:

**Alla**

Yot bolam, uxla qo'zim, Ko'zlaring yumgin, qo'zim

Uylarda o'chdi chiroq. Yot. Quvonchim, kunduzim,

Uxlar asalarilar Alla bolam, allayo

Uxlar baliqlar inchroq. Orom olgin, allayo.

Allani kim yaratadi? ♦ Ko'rgazmaga qo'yilgan kitoblarga e'tibor qiling. Ular nima haqida yozilgan? (Biz eshitgan va o'qigan ertaklar haqida yozilgan.) ♦ Qanday ertaklarni o'qigansiz? («Zumrad va Qimmat», «Uch og'a-ini botirlar», «Bo'g'irsoq».)

Suhbat yakunida o'qituvchi aytilgan she'r, qo'shiq, ertaklarning muallifini so'raydi.

*O'qituvchi hikoyasi:* Allalarni, ertaklarni, dostonlarni kimlar yaratgani, yozgan kishilar noma'lum. Shuning uchun ularni xalq yaratgan deymiz..

Ular xalq og'zaki ijodi deyiladi. Xalq she'r, qo'shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, latifa, lof, doston kabilarni yaratgan. Hozir xalq qo'shiqlaridan «Boychechak»ni o'qiymiz

Kim «Boychechak» qo'shig'ini biladi?

**2.She'rni o'qituvchining ifodali yod aytishi.**

**3.Lug'at ustida ishlash.**

Ayron- qatiqdan tayyorlanadigan ichimlik

Baxma qalin mato, bu yerda yashil o't-o'lan ma'nosida kelgan.

**4.Yangi mavzu yuzasidan dastlabki suhbat.** ♦ She'r nima haqida ekan?(Boychechak haqida ekan). ♦ Boychechak qaysi faslning darkchisi hisoblanadi? (Boychechak bahor darakchisidir). ♦ Bu qo'shiqni qaysi bayramda ijro etadilar? (Qo'shiqni Navro'z bayramida ijro etadilar.)

**5.She'ni o'qitish.** She'r 8-10 o'quvchiga ifodali o'qitiladi.

**6.She'r matni tahlili.**

Sinf bir necha guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga she'r matniga doir savol-topshiriq beriladi.

O'qituvchi guruhlariga savolni bir so'z ko'rinishida doskaga yozadi.

Masalan:

I guruh Ohangdosh so'zlar	II guruh Naqorat	II guruh Bo'g'in
IV Jonlantirish		V She'r misralari

*1-guruh javobi: Ohangdosh so'zlar – misralarning oxirida keladi. Ular qofiya deb yuritiladi. Masalan, «Boychechak» she'rida boylandi, ayroni, vayroni; qatalab, yumalab; tutdilar, osdilar, chopdilar, yopdilar so'zlari qofiyadosh bo'lib kelgan.*

*2-guruh javobi: Naqorat qo'shiqda takrorlanib kelgan misralar. Masalan, qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak, yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak misralari naqorat hisoblanadi.*

- Madhiyadagi naqoratni eslang.

3-guruh javobi: *bo'g'in* – so'zdagi qismlar. So'z *bo'g'in*larga *bo'linadi*. «*Boychechak*» she'rining 1- misrasida 7 *bo'g'in* bor: boy-che-chak-gim boy-lan-di.

Naqorat 12 *bo'g'in*li:

Qat-tiq yer-dan qa-ta-lab chiq-qan boy-che-chak.

4-guruh javobi: *Jonlantirishda jonsiz narsalar jonlanadi*:

Boychechagim boylandi,

Ko'chama-ko'cha aylandi.

5-guruh javobi: *he'r «misra va naqoratda» bor*.

Guruhlarga o'qituvchi va o'quvchilar guruhi ham baho berdi. G'olib guruhga o'qituvchi biror badiiy kitob sovg'a qilishi mumkin.

**7. Tanlab o'qish.** 1- to'rtlikni o'qing. Und anima uchun ayron so'zi ishlatilgan? Odamlar boychechakni nima qiladilar? Shu o'rinni topib o'qing. 3-to'rtlikni o'qing. Bu to'rtlikda qanday fikr ifodalangan?

**8- Ifodali o'qish musobaqasi.**

**9. Yangi mavzuni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.**

◆ Bahor faslida, Navro'z bayramida yana qanday qo'shiqlar kuylanadi? ◆ Qo'shiqlar odamlarning tarbiyasiga ta'sir qiladimi? ◆ «*Boychechak*» qo'shig'ini o'rganish orqali sizda qanday kayfiyat paydo bo'ldi? (*Boychechak* guli ko'z oldimga keldi. Bahor keldi, deb dilim quvonchga to'ldi. Odamlarga yaxshilik qalgim keldi ...)

**10. Uyga vazifa.** She'rni yod olish. *Boychechak* rasmini chizish.

**11. O'quvchilarning reyting ballarini e'lon qilish**

V ilova

## JONIVORLARGA G'AMXO'RLIK

**O'quv material.** «*Ho'p hayda*» she'ri.

**Darsning maqsadi.** 1. O'quvchilarga alq qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, ularning turlari haqida ma'lumot berish. Mehnat qo'shiqlarida voqelikning inson ichki kechinmalari orqali ifodalanishi haqida tushuncha hosil qilish. O'quvchilarni

mehnat qo'shiqlarining mazmuni bilan tanishtirish, matn va lug'at ustida ishlash ko'nikmalarini oshirish.

2. Mehnat qo'shiqlari orqali o'quvchilarni mehnatni sevishtirishga, o'zgaruvchi mehnatini qadrlashga o'rgatish.

3. Dars mavzusiga bog'liq holda o'quvchilarning lug'atini boyitish, fikrlashga, xulosa chiqarishga o'rgatish.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

**Darsning metodi.** Deduktiv, suhbat metodi.

**Dars jihozi.** Qadimgi hunarmandchilik buyumlari, rasmlar.

**Darsning boorish.**

**1. O'tgan darsda o'rganilgan bilimlarni so'rash va mustahkamlash. ♦**

«Tuyalar» qo'shig'I nima haqida ekan? ♦ Nima uchun pirning sochi oltin shoch deyilgan? ♦ «Boychechak» qo'shig'ida qanday badiiy vositalar qo'llangan? ♦ O'tilgan she'rlardan o'xshatishni topib, uni izohlab bering. ♦ «Oftob chiqdi olamga» she'ridagi qofiyadosh so'larni toping. ♦ «Laylak keldi – yoz bo'ldi» she'rini yod ayting.

O'qituvchi «Laylak keldi – yoz bo'ldi» qo'shig'ini, butun sinf bilan kuylaydi.

**2. Guruhlararo bellashuv.** «Bo'lishi mumkin emas» o'yini.

Bu O'yinni o'tkazishda o'qituvchi matnlarni guruhlariga tarqatadi. Guruh ishtirokchilari bo'lishi mumkin bo'lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim. Matn oxirida qo'shimcha savol- topshiriqlar ham berish mumkin. Masalan, matnga sarlavha qo'ying, matnni qismlarga bo'ling, qismalar bo'yicha savollar tuzing.

Hazil-mutoybaga asoslangan bu o'yin o'quvchilardan ziyaklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq bo'lmaslikni talab qiladi. Ularning hikoya tinglash ko'nikmasini takomillashtiradi.

Darsda hunarmandchilikka oid matnlar tanlanadi.

1-guruh matni. Akromning otasi Adham aka – duradgor. U rom, eshik, beshik, ro'zg'orbuyumlardan: xontaxta, o'qlov, sabzixata yasaydi. Uning tikkan ko'ylaklarini el sevib kiyadi. Kelajakda akrom ham mashhur usta duradgor bo'lmoqchi. Shuning uchun hozirdan tikuvchilik sirlarini sidqidildan o'rganmoqda.

2. guruh matni. Halima opa – tikuvchi. Halima opani mahallamiz xotin-qizlari yaxshi bilishadi. Opa ko'ylaklarni bejrim, chiroyli tikadi. Pishiriqlari mazali bo'lgani uchun uning uyidan odan arimaydi. Halima opaning pishiriq pishiradigan shogirdlari ko'p.

3. guruh matni. Farhodning buvisi tog'da turadi. Buvisinikida sigir, qo'y, echki boqishadi. Farhod buvisinikida sigirlarga don berishga yordamlashadi, buvisi sigir sog'ayotganda uloqchasini ushlab turadi. Uloqchaning suti jida mazali va to'yimli bo'ladi.

4-guruh matni. Kashtachilik bilan o'zbek xotin-qizlari qadimdan shug'ullanishadi, Ular do'ppi, shochiq, chopon, qiyiqcha kabi buyumlarga nafis, chiroyli kashtalar tikishadi. Yurtimizda, ayniqsa, zardo'zi payola, choynaklar juda mashhur. Ular yosh kelinchaklarga juda yarashadi.

5-guruh matni. Saharda tog'da havo salqin bo'ladi. Shunga qaramay Shokir ota erta turib qo'y-qo'zilarni o'tlatgani olib chiqadi. chorvachilik unga ota kasb. Har gal qo'ylar qo'zilaganda otaning dili yorishib ketadi. Har bir gulni alohida e'tibor bilan parvarish qiladi.

3. O'quvchilar o'rinsiz ishlatilgan jumlaning topishgach, kasblar yuzasidan suhbat o'tkaziladi: Uyga qadimda kishilar shug'ullangan hunarlar haqida ma'lumot to'plab kelish topshirilgan edi. ♦ Qanday kasb-hunar haqida ma'lumot to'pladingiz? (Etikdo'zlik, dehqonchilik, chorvachilik, kashtanchilik, sholikorlik va hokazo haqida bilib keldik.) ♦ Dehqonchilik bilan shug'ullangan kishilar nimalar yetishtirishadi? (Dehqonlar poliz ekinlari: qovun, tarvuz yetishtirishadi.) ♦ Sizlarga qanday kasblar yoqadi? (Kashtachilik, bog'bonlik, tikuvchilik, zargarlik va hokazo.) ♦ Kasbning ustasi bo'lish uchun nima qilish kerak?.

### **3. Yangi mavzu.**

O'qituvchi hikoyasi.

- Qadimda O'rta Osiyoda «32 xil hunar» egalari yashaydigan joy shahar hisoblangan. Dehqonchilik bilan, asosan, qishloqlarda shug'ullanishgan. Shahar mehnatkashlari bo'zchilik, shoyido'zlik, misgarlik, aravazoslik, gilam to'qish namat bosish, temirchilik, zargarlik, kulolchilik, pickoqchilik bilan shug'ullanar ekan.

Xalq mehnatkashlari ezilib kun ko'rar, topganlarini bazo'r ro'zg'orga yetkazar edilar. Mehnat qilish jarayonida ular o'z ichki kechinmalarini q'shiqlar orqali ifoda etar edilar. Shu tariqa xalq qo'shiqlari paydo bo'lgan. Bu qo'shiqlarda mehnatkashlarning dardamlari, g'am-tashvishlari, quvonchilari, istak-xohishlari kuylangan. Bugun darsda «Ho'p hayda» qo'shig'ini o'rganamiz. Bu qo'shichni bug'doyni po'stidan ajratosh vaqtida kuylashgan.

O'qituvchi she'rni ifodali o'qib beradi.

#### **4. Lug'at ustida ishlash.**

Qalqon - jangchini dushman qurolidan himoya qiluvchi aslaha.

She'rda ho'kizning qulog'I qalqonga o'xshatilgan.

Tuyoq - molning oyog'I;

Xirmon - yig'ishtirilib to'plangan, yig'ib olingan hosil;

Udo - ayriliq.

#### **5. Ifodali o'qish mashqi.**

**6. Ifodali o'qish musobaqasi.** Har bir guruhdan tanlangan ikki o'quvchi she'rni ifodali o'qib berishadi.

**7. She'rdagi badiiy vositalar aniqlatiladi.** Guruhlarga savollar beriladi: 1- guruh uchun: she'r misralari a bandlarini aniqlang (24- misra, 6 band). 2- guruh uchun: qofiyadosh so'zlarni aniqlang: (qulog'im- tuyog'im, hayda-mayda, ...). 3- guruh uchun: o'xshatishlarni aniqlang: otning qulog'I qalqonga, tuyog'I temirga o'xshatilgani.

**8. darlikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.** Xirmon egasi otni qanda so'zlar bilan erkalatadi? (Otni qalqon qulog'im, temir tuyog'im, jonivorim deb erkalatadi.) She'rdagi xirmon egasining ahvoli qanday tasvirlangan?

**10. Mavzu yuzasidan o'rganilganlarni umumlashtirish, tarbiyaviy xulosa chiqarish.** Bugun qaysi mavzudagi qo'shiqni aytdingiz? Bu qo'shiq qanday paytlarda to'qilgan va aytilgan? Mehnat qo'shiqlarini odamlar nima maqsadda aytgan? Qadimda mehnat og'ir bo'lgan deyishadi? Nima uchun? Siz darsdan tashqari paytda nima ishlar qilasiz?

**11. Uyga vazifa. She'rni yod olish.** Mehnat qo'shiqlaridan namunalar topib kelish.

**12. O'quvchilarni rag'batlantirish.**

**VI Ilova**

## **TOPISHMOQLAR**

**O'quv material. Topishmoqlar.**

**Darsning maqsadi.**

1. O'quvchilarga topishmoqlarning janriy xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Ularning topishmoqni ifodali o'qish, javobini tez topish malakalarini oshirish, ziyraklikka o'rgatish.

2. O'quvchilarning muomala madaniyatini oshirish.

3. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. Ijodiy faoliyatga yo'llash.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, topishmoq o'qish darsi.

**Darsning borishi.**

**I. Da'vat bosqichi. Maqsad.** O'quvchilarning topishmoq haqidagi tushunchalarini aniqlash, yangi mavzuga qiziqish uyg'otish.

**Metod.** Suhbat, izlanish metodi.

**1. O'quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash.** O'qituvchi doskaga osmondagi yulduzlar, yong'oq, yeryong'oq, arra rasmlarini ilib qo'yadi.

Doskaga quyidagi topishmoqni yozadi: 1. Tunda ko'rib, cho'g' deysan, Tongda ko'rib yo'q deysan.

Shu rasmlar ichidan topishmoqning javobini toping. Qaysi so'zlar orqali topishmoqlarning javobi *yulduz* ekanini bildingiz? 2. Qo'shaloq tovoq, Ichi to'la yog'. Qaysi belgilarga ko'ra topishmoqning javobini topdingiz? Pilla kabi bo'g'oindor. Har bo'g'inda mag'zi bor. Yeryong'oqning qaysi belgilari topishmoqda keltirilgan? 4. Og'zi yo'g'u tishi bor? Duradgorda ishi bor. Javobini qaysi so'zlar orqali topdingiz?

O'qituvchi. Topishmoqlarni topishda sizga nimalar yordam berdi? Topishmoqda narsaning belgilarini ifodalovchi so'zlar bo'ladi. Topishmoqlarda ko'pincha kim? Nima? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar yashirinadi.

## **2. Topishmoqlar haqida ma'lumot berish.**

O'qituvchining hikoyasi. Topish ham xalq yaratgan.

Topishmoq matnida yashiringan narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa xususiyatlari berilgan bo'ladi. Topishmoqlar qadimda jumboq, top-top deb yuritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusmlari bilan bog'liq bo'ladi.

**II. Anglash bosqichi. Maqsad.** Darslikda berilgan topishmoqlar bilan tanistirish. Mustaqil o'qishga, topishmoqlar yuzasidan o'zaro muhokama qilishga o'rgatish.

Metod. Mustaqil ish, krossvord yechish, suhbat metodi.

**1. Topishmoqni ifodali o'qish va javobini topish.**

**2. Topishmoqlar yuzasidan savol-javob o'rkazish.** ♦ Birinchi topishmoqning javobi nimaga o'xshatilgan? (G'o'zaga.) Tun cho'kkandagi osmon mnimaga

o'shatilgan? (Ko'k ko'ylakka.) ♦ 2- topishmoqda oy nima deb ta'riflangan? (Patir.)  
♦ 3- topishmoqda karamni qaysi belgilariga ko'ra topdingiz? ( Karamning qavat-qavat bargi qat-qat to'nga o'xshatilgan.)

### **3. Krossvord yechish.**

O'qituvchi krossvord vatmanga oldindan quyidagicha tayyorlashi mumkin. Krossvord savollari topishmoqlar ko'rinishida bo'ladi. Singni 3 guruhga bo'lib, har bir guruhga yechish uchun bitta krossvord beradi. Bu, bolalarning topishmoqni tez topishiga ishtiyoqini oshiradi.

*1- guruh uchun krossvord. Bo'yiga:*

1. Keragida suvga o'tasan  
Qimirlashin poylab yotasan.
3. Kasbi doim taqir- tuqur,  
Qayda ilom ko'rsa cho'qir.
6. Birlashtirib kiyimni  
Issiq tutadi sizni.

*Eniga:*

2. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
4. Katta oppoq dasturxon  
Yeryuzini qoplagan.
5. Og'zi yo'g'u, tishi bor,  
Duradgorda ishi bor.

**Javoblari: 1. Qarmoq. 3. Laylak. 6. Tumg'ma. 2. Shamol. 4. Qor. 5.**

**Arra.**

*2-guruh uchun krossvord. Bo'yiga:*

1. Tikuvchimas,  
Bichuvchimas,  
Ignasi ancha ekan.
3. Kundalik tarix 'zi  
Har yerda uning so'zi
5. Bir onadan yuz bola,

Yuzovi ham bo'z bola.

*Eniga:*

2. Uyning shiftida ini,

Kuylab berar har kuni

Bahorda kutib olib

Kuzatamiz kuz uni.

4. Xo'ppa semiz, bir tuki yo'q.

6. Uzun terak, ichi kovak.

**Javoblari: 1. Tipratikan. 3. Gazeta. 5. Uzum. 2. Qaldirg'och. . Tarvuz.**

## **6. Qamish.**

*3- guruh uchun krossvord. Bo'yiga:*

1. Pishirsang osh bo'lur,

Pishirmasang qush bo'lur.

3. Gulsiz meva qiladi,

Ko'p yesaang – til shiladi:

G'ir g'ildirak oy kulcham

Bu nima, kim biladi?

4. Chopsa chopilmaydi,

Ko'msa ko'milmaydi.

5. Bodom kabi yaprog'I,

Sollanadi butog'I,

O'zi shirin, tukligina,

Mazasi ham totligina.

*Eniga:*

2. Ikki ajib qulog' bor:

Biri tinglar, biri so'zlar.

6. O'zi qizil, go'zal biram,

Qirga yozar qizil gilam

7. Pak-pakana bo'yi bor,

Yetti da'vat to'ni bor.

**Javoblar: 1. Tuxum. 3. Anjir. 4. Soya. 5. Shaftoli. 2. Telefon trubkasi. 6. Lola. 8. Piyoz.**

**III. Fikrlash bosqichi, Maqsad.** Darslikdagi savol-topshiriqlarga javob olish orqali egallagan bilimlarini aniqlash. O'yinlar orqali ijodiy izlanish ko'nikmasini shakllantirish.

1. Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlarsh. Toishmoqlarni kim yaratgan? Topishmoqlar qadimda nima det atalgan? Topishmoqning qanday foydasi bor? O'zingiz qanday topishmoqlar bilasiz?

**2. O'quvchilar bir necha qatorlarga ajratiladi.** Qator sardorlari o'quvchilarga biror narsa rasmini beradi. O'quvchi rasmga oid topishmoq aytadi. U aytolmasa, orqadagi o'quvchiga uzatadi. O'quvchilarga shunga doir topishmoqni o'zingiz to'qishingiz hak mumkin deb aytiladi. Qaysi qator topishmoqni birinchi bo'lib aytsa, o'sha qator g'olib sanaladi.

**3. Uyga vazifa.** Darslikda berilmagan yangi topishmoqlar topib, daftarga yozib kelish.

**4. O'quvchilarni rag'batlantirish.**

## VII Ilova

### Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning «Xalq og'zaki ijodu» bo'limi yuzasidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash.
2. O'quvchilarning xalq merosini o'rganish va qadrlashga o'rgatish.
3. O'quvchilarning mustaqil ijodiy jikrlash qobiliyatini o'stirish.

**Dars metodi.** Moduli o'qitish usuli.

**Dars shakli.** Noan'anaviy dars.

**Darsning jihozi.** Tarqatma materiallar, jadval, darslik, turli rasmlar.

## 1- Guruh uchun dars moduli

O'quv faoliyati elementi (O'FF)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt
O'FE-1	<p><b>Maqsad:</b> O'quvchilarning xalq o'gzaki ijodi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash. Savikkar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xalq og'zaki ijodining qanday turlari bor?</li> <li>2. Qanday xalq qo'shiqlarini yod oldingiz?</li> <li>3. «Davlat» ertagining bosh qahramonlari kimlar?</li> <li>4. Xalq og'zaki ijodini kom yaratadi?</li> </ol>	<p>Savollarni guruh ichida bo'lib olib, javobgatayyorlaning. Javoblarni guruhda muhokama qilgach bering. Vaqtni nazorat qiling.</p>	6 daqiqa.
O'FE-2	<p><b>Maqsad:</b> O'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini oshirish. <b>Savol-topshiriqlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mehnat haqida qo'shiqni yoddan ayting.</li> <li>2. «Xop hayda» she'ridaotgan berilgan ta'rifni topib, belgilang.</li> <li>3. «Ilm afzal» ertagidaberilgan maqolni topib, ma'noini izohlang.</li> </ol>	<p>Darslikning 54-betini ochib she'rni takrorlab yod oling. 2-topshiriqni shu she'r asosida bajaring. Darslikning 58-64 – betlarini ochib qaytaring. Izohni birgalikda berishga urinib ko'ring.</p>	8 daqiqa.
O'FE-3	<p><b>Maqsad:</b> Mustaqil fikirlash ko'nikmasini shakllantirish. <b>I. Test topshiriqlari.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Anvat Obidjon qalamiga mansub she'riy ertakni belgilang. A) «Laqma it».B) «Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak». S) «Da'vat».</li> <li>2. Do'stlik kuchi haqida ertak nomini toping:A) «Ovchi, Ko'kchavadono»; B)«Ilm afzal»; S) «Ziyrak uch yigit».</li> <li>3. «Obod bozorda sotilmas» nima? A) Topishmoq; B) Ertak; S)</li> </ol>	<p>Test savollariga to'liq javob bering. 1-2-3- sinfda yod olgan topishmoqlarni ham eslang</p>	8 daqiqa

	Maqol. 4. Topishmoq aytish musobaqasi: Mevalar haqida xalq, shoirlar, o'zingiz to'qigan topishmoqlarni ayting.		
O'FE-4	<b>Maqsad:</b> Ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. Topshiriqlar. 1. Javoblarni quyidagi so'zlardan tashkil topgan krossvord tuzing. Kamalak, maslahat, lavlagi, varrak, rassom, asalari. 2. «Aql yoshda emas, boshda» maqoli mazmuni asosida kichik hikoyatuzing.	Krossvord tuzishda savolni topishmoq tarzida berishga harakat qilin. Hikoya tuzishda o'qigan ertak, ibratli hikoyalaringizni esgaoling.	8 daqiqa
O'FE-5	<b>Maqsad:</b> O'yin orqali o'quvchilarni ijodiy qobiliyatini o'stirish. «Oq terakmi, ko'k terak» o'yini. Yoningizdagi guruh ishtirokchilariga ta'rif berib chiqing. O'yinni quyidagicha boshlang. Kelng qo'shiq aytamiz, Qo'shilishib hammamiz, Oq terakmi, ko'k terak Bizdan sizgakim kerak?	Ta'rif bergandachegaradan chiqmay odob doirasida ta'riflang. Masalan, «Orif a'lochi shoshqaloq kerak» deb javob qay taring. Eng chiroyli ta'rif baholanadi.	8 daqiqa

## 2- Guruh uchun dars moduli

O'quv faoliyati elementi (O'FF)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt
O'FE-1	<b>Maqsad:</b> O'quvchilarning xalq og'zaki ijodi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash. <b>Savollar.</b> 1. Ertaklarni qadimda nima deb nomlashgan? 2. Hunarning afzalligi haqida	2- savolga javobni topishda darslikning 84-86-betlariga qarang...	6 daqiqa

	qanday ertak o'qidingiz? 3. Topishmoq qadimda qanday atalgan? 4. Maqol mazmuniga ko'ra nechaturli bo'ladi		
O'FE-2	<p><b>Maqsad:</b> O'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini oshirish. <b>Savol-topshiriqlar.</b></p> <p>«Laylak kelki-yoz bo'ldi» she'rini yoddan ayting.</p> <p>2. Xalq qoshiqlaridan jonlantirishga misol topib, tozing.</p> <p>«Baqabilan taqa» ertagi mazmuniga mos maqol topib, mazmunini izohlang</p>	Darslikda berilgan xalq qo'shiqlarini sinchiklab o'qib chiqing...	8 daqiqa
O'FE-3	<p><b>Maqsad:</b> Mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. <b>I. Test topshiriqlari.</b></p> <p>1. Anvat Obidjon qalamiga mansub she'riy ertakni belgilang. A) «Laqma it».B) «Bo'ring tabib bo'lgani haqida ertak». S) «Da'vat».</p> <p>2. Do'stlik kuchi haqida ertak nomini toping:A) «Ovchi, Ko'kchavadono»; B)»Ilm afzal»; S) «Ziyrak uch yigit».</p> <p>3. «Obod bozorda sotilmas» nima? A) Topishmoq; B) Ertak; S) Maqol.</p> <p>4. Topishmoq aytish musobaqasi: Mevalar haqida xalq, shoirlar, o'zingiz to'qigan topishmoqlarni ayting.</p>	Test savollariga to'liq javob bering. 1-2-3- sinfda yod olgan topishmoqlarni ham eslang	8 daqiqa
	<p><b>Maqsad:</b> Ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. <b>I. Test topshiriqlari.</b></p> <p>1. Shukur Sa'dulla</p>	Krossvord tuzishda savolni topishmoq tarzida berishga harakat qiling.Hikoya tuzishda o'qigan ertak, ibratli hikoyalaringizni	

O'FE-4	<p>qalamiga mansub ertakni belgilang.</p> <p>A. «Laqma it»  B. «Ilm afzal»  C. «Tulki bilan Ko'zacha»</p> <p>2. Bilim olish afzalligi haqidagi ertakni toping:  A. «Davlat»  B. «Baqabilan taqa»  C. «Ilm afzal»</p> <p>3. «Boychechak» asari qanday asar?  A. Qo'shiq  B. Ertak  C. Topishmoq</p> <p><b>II. Topishmoq aytish musobaqasi:</b>  Tabiatga aloqador topishmoqlar ayting.</p>	esgaoling.	8 daqiqa
O'FE-5	<p><b>Maqsad:</b> O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish.</p> <p>1. Javoblari quyidagi so'zlardan tashkil topgan krossvord tuzing: tugma, tultuvak, tarvuz, uzuk, karavot, laylak.</p> <p>2. «Go'zallik husnda emas, mehnatdadir» maqoli mazmuni asosida kichik hikoya tuzing</p>	Kichik jamoalarga bo'linib ishlang.	8 daqiqa